Q. Yo‘ldoshev, S. Qambarova, D. To‘xliyeva, N. Yusufjonova, O. Olimjonov

Adabiyot
5-sinf
II qism

Yangi nashr

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi
nashrga tavsiya etgan

TASDIQLANGAN
PLAGIATGA QARSHI!
TASDIQLANGAN

novda
edutainment

MAKTABGACHA
VA MAKTAB TA’LIMI
VAZIRLIGI

Toshkent – 2024

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 1 10/10/24 17:23

UO‘K 821.512.133(075.3)+82.09(1-87)(075.3)
KBK 83.3я72
Y 78

Adabiyot 5-sinf (2-qism) [Matn] : darslik / Q. Yo‘ldoshev, S. Qambarova, D. To‘xliyeva, N. Yusufjonova, O. Olimjonov – Toshkent: Novda Edutainment, 2024. – 128 b.

Mas’ul muharrir:

Qunduzoy Husanboyeva – pedagogika fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

Mahfuza To‘ychiyeva – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Shahodat Abdullayeva – Toshkent shahri Chilonzor tumanidagi 114-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi, Xalq ta’limi a’lochisi.

Gulshan Rahimova – Xorazm viloyati Urganch shahridagi 1-sonli ixtisoslashtirilgan maktab-internatning ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi.


Nasiba Nig‘matxo‘jayeva – Toshkent shahri Chilonzor tumanidagi 90-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi.

Xosiyat Matyakubova – Toshkent shahri Yakkasaroy tumanidagi 48-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi, Xalq ta’limi a’lochisi, Xalq ta’limi fidoyisi.

ISBN 978-9910-672-34-7

© “Novda Edutainment”, 2024

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 2 10/10/24 17:23



Alisher Navoiy va sulton Husayn Boyqaro.
Rassom: N. Qo‘ziboyev

Tanishing: ALISHER NAVOIY

Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda Hirotda tug‘ilgan.

Kitob o‘qish Alisherning sevimli mashg‘ulotlaridan bo‘lgan. Bu haqda shoirning o‘zi “Lison ut-tayr” dostonida bunday xotirlaydi: *“Hech esimdan chiqmaydi: maktabda o‘qib yurgan paytlarim edi… Muallim xotiramizni mustahkamlash, zehnimizni o‘tkirlash va savodimizni ravon qilish uchun she’r-u dostonlar o‘qitar, yod oldirar edi. Ba’zan nasriy “Guliston”ni mutolaa qilsak, goho “Bo‘ston” kabi she’riy asarlarni o‘qir edik. Men ayniqsa Fariduddin Attorning “Mantiq ut-tayr” dostoniga alohida mehr qo‘ydim. Bu asarni takror-takror o‘qir edim”*[1].

Navoiy turkiy va forsiyda birdek ijod qilib, ko‘plab nazmiy, tarixiy va ilmiy asarlar yozgan. Ular o‘zbek va jahon adabiyoti xazinasining eng nodir namunalari hisoblanadi.

Alisher Navoiy 1501-yili vafot etgan.

Mutolaadan oldin...

Biz siz bilan Alisher Navoiy qalamiga mansub “Xamsa” dostonlarining birinchisi – “Hayrat ul-abror”dan olingan hikoyatlar bilan tanishamiz. “Hayrat ul-abror” *yaxshi kishilarning hayratlanishi* deganidir.

O‘ylab ko‘ring

Qachondir yolg‘on gapirganmisiz? Nima uchun?
Rost gapirish osonmi yoki yolg‘on gapirish? Nima uchun?

[1] *Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. Tabdil mualliflari: Manzar Abdulxayr, Abduhamid Pardayev. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.*

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 3 10/10/24 17:23

Zavqli mutolaa

Sher va durroj

(hikoyat)[1]

Durrojning yolg‘onni chin o‘rnig‘a ayturidin hodisa domig‘a tushgonida chin so‘zni sher yolg‘on sog‘inib, faryodig‘a yetmagoni va ani balo domidin xalos etmagoni

Qirg‘ovulning chin gapirish o‘rniga yolg‘on gapirib, bir falokat tuzog‘iga ilingani, chin so‘zni sher yolg‘on deb o‘ylab, ovozini eshitib, yetib kelmagani va uni balo tuzog‘idan xalos etmagani

Asl matn	Nasriy bayoni
Bor edi bir beshada bir tund sher, Vahshat aro ko‘k asadidek daler.	To‘qayda bir yirtqich sher bor edi. Vahshatda osmon sheridek qo‘rqmas edi.
Chun bo‘lur erdi bolalab zavqnok, Mo‘r bolasin qilur erdi halok.	U bolalari bilan o‘ynab, zavqqa to‘lganida chumolilar uning bolasini talab qiynardi.
Tishlabon ul moyayi payvandini, Og‘zida asrar edi farzandini.	U o‘zining ajralmas bu boyligi – farzandini og‘zida tishlab asrar edi.
Bor edi durroje o‘shul beshada, Sheri jayon vahmidin andeshada.	O‘sha to‘qayda bir qirg‘ovul ham bo‘lib, bu yirtqich sherning vahimasidan doim qo‘rquvda edi.
Sherki, tishlab bolasin dam-badam, Beshada har yon qo‘yar erdi qadam.	Sher bo‘lsa, bolasini og‘zida tishlab, dam-badam to‘qayning goh u yog‘iga, goh bu yog‘iga borardi.
Yetgach aning boshi uza nogahon, Far eta uchsa edi ul notavon,	Sho‘rlik qush uning tepasida nogahon parr etib uchsa,
Vahm ila seskanmak o‘lub sher ishi, O‘lturur erdi bolasig‘a tishi.	sher qo‘rqqanidan seskanib, bolasiga ham botib ketardi.
Tish bila aylab bolasi yorasin, Yora etib o‘z jigari porasin.	Tishi bilan o‘z bolasini, o‘z jigarporasini yarador qilardi.
Doim anga bu g‘am aro g‘am edi, G‘am neki, motam uza motam edi.	Doim bu unga g‘am ichida g‘am, g‘am ham emas, motam ustiga motam edi.
Ko‘ngli bu ishdin bo‘lub ozorliq, Boshladi durroj bila yorliq.	Bu tashvishdan ko‘ngli ozor topib, qirg‘ovul bilan o‘rtoq bo‘la boshladi.
Dediki: “Mendin sanga yo‘q qasd-u kiyn, Emin o‘l-u bil meni dog‘i amin.	U dedi: “Mening senga hech qanday qasdim, dushmanligim yo‘q. Xotirjam bo‘lib, meni o‘zingga ishonchli do‘st deb bil.
Vahmni qo‘y, hamdam-u hamrozim o‘l, Aysh-u tarab vaqti navosozim o‘l.	Qo‘rqishni yig‘ishtir, hamdamim, sirdoshim bo‘l, aysh va xursandlik vaqti birga kuylashadiganim bo‘l.
Men dog‘i lahning eshitib shod o‘lay, Nag‘mang ila qayg‘udin ozod o‘lay.	Men ham sening kuylaringni eshitib, shod bo‘lay, nag‘malaring bilan qayg‘udan ozod bo‘lay.

[1] *Alisher Navoiy. Xamsa (nasriy bayoni bilan). Birinchi doston. Hayrat ul-abror. – Toshkent: Tamaddun, 2021.*

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 4 10/10/24 17:23

Shart bukim, yetsa gazande sanga, Solsa falak hiylasi bande sanga,	Shart shuki, senga bir ziyon yetsa, falak seni hiyla bilan tuzoqqa tushirsa,
Lutf qo‘lin holingga hamdast etay, Xasmni bir panja bila past etay.	marhamat qo‘lini senga yordam uchun cho‘zay, bitta panjam bilan dushmanni yerga teng qilay.
Ko‘rguzub ixlos ishida ixtisos, Seni aduv domidin aylay xalos”.	Sadoqat masalasida o‘zimni ko‘rsatib, seni yov tuzog‘idan xalos aylay”.
Sher ko‘p afsun bila chun qildi jahd, Sidq ila durroj dog‘i qildi ahd.	Sher ko‘p sehr bilan o‘z fikrini tushuntirishga tirishdi, qirg‘ovul ham sadoqatli bo‘lishga ahd qildi.
Andoq aro yerda ayon bo‘ldi mehr, Kim hasad eltur edi andin sipehr.	Oralarida bir-birlariga shunday muhabbat paydo bo‘ldiki, bunga osmonning o‘zi ham hasad qilardi.
Qaydaki orom tutub sharza sher, Girdida durroj uchubon daler,	Qayerda yirtqich sher dam olib yotsa, atrofida qirg‘ovul bemalol uchib yurardi.
Boshig‘a parvoz ila gardish namoy, O‘ylaki sulton boshi uzra humoy.	Sultonning tepasida humo qushi aylanganday, sher boshida qirg‘ovul aylanib parvoz qilardi.
Sher eshitib aning ilhonini, Fahm qilib savtida yolg‘onini,	Sher uning sayrashini eshitib, kuyida yolg‘on borligini fahm qilib,
Der edi: “Yolg‘on demakim, shum erur, Kizb tuz el ollida mazmum erur”.	der edi: “Yolg‘on gapirma, yomon bo‘ladi. To‘g‘ri odamlar oldida yolg‘on qoralanadi”.
Pand eshitmas edi durroji mast, Kizbdin etmas edi afg‘onni past.	Qirg‘ovul pandni eshitmas, o‘zi bilan o‘zi mast, ataylab fig‘onini hech pasaytirmas edi.
Bir kun aning qasdig‘a bir saydgar, Hodisa domin yoyib erdi magar.	Bir kuni bir ovchi uni tutish uchun o‘z tuzog‘ini yoygan edi.
Dona bila suv sari qilg‘och xirom, Tortti sayyod aning ustiga dom.	U don bilan suvni ko‘rib, oldiga borgach, ovchi uning ustiga to‘rni tashladi.
Qichqiribon dom aro ul mubtalo, Necha dedi: “Tot! Meni tuttilo!”	Tuzoqda u baxtsiz qichqirib, bir necha bor: “Dod, meni tutdilar!” – dedi.
Sher qulog‘ig‘a yetib ul maqol, Savtini doyimg‘idek etti xayol,	Bu so‘z sher qulog‘iga eshitildi, lekin uning bu nolasini har galgidek yolg‘on deb o‘yladi.
Ko‘p eshitib erdi bu yolg‘onini, Uyla gumon etti chin afg‘onini.	Bunaqa yolg‘onlarni ko‘p eshitgani uchun chin qichqirig‘ini ham yolg‘on deb gumon qildi.
Har nechakim rost fig‘on ayladi, Sidqini ham kizb gumon ayladi.	U har qancha rostakamiga qichqirmasin, sher rostini ham yolg‘on deb hisobladi.
Maxlasig‘a aylamadi iltifot, Toki anga munqati o‘ldi hayot.	Uni qutqarish uchun iltifot ko‘rsatmadi, natijada uning hayoti qirqildi.
Har kishikim rostni bexost der, Aytsa yolg‘on, dog‘i el rost der.	Kimki beixtiyor rost gapirsa, yolg‘onini ham xaloyiq rost deydi.
So‘zda, Navoiy, ne desang, chin degil, Rost navo nag‘mag‘a tahsin degil…	So‘zda, Navoiy, nima desang ham rostini gapir, haqiqatni kuylagan ohanglarga tahsin ayt...

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 5 10/10/24 17:23



Keling, suhbatlashamiz

1. Hayvonlar shohi bo‘lgan sherning harakatlarida ota-onalarga xos qanday xislat namoyon bo‘lyapti deb o‘ylaysiz?
2. Siz-u biz o‘qigan ertaklarda sher hayvonlar shohi, o‘rmon qiroli sifatida tasvirlangan. Shundan kelib chiqib ayting-chi, ushbu hikoyatda sher durroj bilan kelishib o‘tirmasdan, uni qo‘rqitib qo‘ya qolsa bo‘lmasmidi? Javobingizni aniq misollar bilan asoslang.
3. O‘ylab ko‘ring: nima uchun durroj ogohlantirishlarga qaramas, yolg‘on gapirishni hech to‘xtatay demasdi?
4. Durroj nima uchun qurbon bo‘ldi deb o‘ylaysiz: nafsi tufaylimi yoki yolg‘onchiligi sabablimi? Yoki boshqa javobingiz bormi? Fikringizni asoslang.
5. Durrojning o‘limi sherning keyingi hayotiga qanday ta’sir ko‘rsatadi deb o‘ylaysiz? Taxminingizni izohlang.



Topshiriq

Hikoyatning nasriy bayoni asosida quyidagi so‘zlarning ma’nosini yozing.

So‘zlar	Ma’nosi	So‘zlar	Ma’nosi
Tund	* * *	*Aduv*	* * *
Asad	* * *	*Sipehr*	* * *
Mo‘r	* * *	*Savt*	* * *
Emin o‘l	* * *	*Kizb*	* * *
Lahn	* * *	*Sayyod*	* * *
Daler	* * *	*Andesha*	* * *



Uyga vazifa

“Yolg‘on kulfat keltiradi” mavzusida ijodiy matn yozib keling.

Tavsiya

Hikoyat asosida ishlangan “Sher va durroj” multfilmini tomosha qiling.

Manba: “O‘zbekkino” milliy agentligi, 2010.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 6 10/10/24 17:23

Mutolaadan oldin...

“Hayrat ul-abror” dostonining mashhur hikoyatlaridan biri “Hotami Toy”dir. Hikoyat bosh qahramoni Hotami Toy tarixiy shaxs, Yamandagi Toy qabilasining boshlig‘i bo‘lgan. Saxiyligi va oliyjanobligi bilan Sharq xalqlari orasida dovruq qozongan. Natijada uning nomi badiiy asarlarda saxovatpeshalik, himmat ramziga aylangan.



O‘ylab ko‘ring

Kimgadir yaxshilik qilsangiz, o‘zingizni qanday his etasiz?

Zavqli mutolaa

Hotami Toy

(hikoyat)

Hotami Toy hikoyatikim, himmat va saxo ahlig‘a peshvo erdi va aning mehmonlig‘i ta’zimig‘a bosh indurmagan gado himmatini ko‘rub insof berdi

Hotami Toy hikoyasiki, u himmat va saxovat kishilariga peshvo edi; uning mehmondorchiligiga ta’zim bilan bosh urmagan bir gadoning himmatini ko‘rib, Hotami Toyning unga tan bergani

Asl matn	Nasriy bayoni
Hotami Toyig‘a bir ozodavash Dediki: “Ey himmating ozoda kash,	Hotami Toyga bir ko‘ngli ochiq odam dedi: “Ey himmatda erkin tabiat kishi,
Toki saxo bo‘ldi kafing varzishi, Ko‘rdung ekinmu bir o‘zungdek kishi?”	saxiylik kaftingga odat bo‘lganidan buyon o‘zingga o‘xshagan kishini hech ko‘rdingmi?”
Dediki: “Bir kun qilibon jashni om, Indab edim bodiya ahlin tamom.	U dedi: “Bir kuni men hamma uchun yig‘in qildim. Unga o‘sha cho‘ldagi odamlarning hammasini chaqirdim.
Matbax aro yuz teva qurbon edi, Qo‘y-u qo‘zi behad-u poyon edi.	Pishirish uchun yuzta tuya qurbon qilindi; so‘yilgan qo‘y-qo‘zilarning ham son-sanog‘i yo‘q edi.
Bazm ichidin dasht sori bir nafas, Kasbi havo aylamak ettim havas.	Bazm bo‘lib turgan vaqtda birpas havo olgim kelib, dasht tomonga chiqdim.
Sayrda ko‘rdum bir asiri mihan, Bir quchoq orqasig‘a yuklab tikan.	Aylanib yurib, mehnatda ezilgan bir qari cholni ko‘rdim. U yelkasiga bir quchoq tikan – o‘tin ortgan edi.
Jismi uyin aylabon ul yuk nigun, Tirkabon ul uyga asodin sutun.	U yuk gavdasini egib, vujud uyiga hassadan ustun tirkagan edi.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 7 10/10/24 17:23

Har qadam olg‘uncha tinib muddate, Har nafas urg‘uncha o‘tub fursate.	Har qadam tashlaganida birpas to‘xtar, har dam olganida ma’lum bir fursat o‘tardi.
Soldi ul emgak o‘ti ko‘nglumga tob, Lutf-u tarahhum bila qildim xitob:	U chekayotgan azob o‘ti ko‘nglimni yondirib, rahm-shafqat bilan unga bunday xitob qildim:
“K-ey qadin emgak yuki past aylagan, Jismida g‘am xori nishast aylagan,	“Ey qaddini mashaqqat yuki bukkan, tanasida g‘am tikanlari o‘rnashgan odam!
Dasht aro go‘yoki xabar bilmading, Hotam uyi sori guzar qilmading?	Dashtda yurib xabaring bo‘lmadimi? Nega Hotamning uyiga bormading?
Da’vat etib asru farovon bukun, Qildi yomon-yaxshini mehmon bukun.	U hammani o‘zining uyiga chaqirib, yaxshi-yu yomonni bugun mehmon qilmoqda-ku.
Tashla tikan, gulshani izzatqa yet, Chekma mashaqqat, qo‘p-u da’vatqa yet”.	O‘tinni tashla, izzat gulshaniga bor, mashaqqat chekib o‘tirmay, tur, chaqiriqqa bor!”
Menda chu fahm etti bu nav iztirob, Bosh ko‘tarib kuldi-yu berdi javob:	U ahvolidan iztirob chekkanimni tushunib, bosh ko‘tarib kuldi-yu bunday javob berdi:
“K-ey solibon hirs ayog‘ingg‘a band, Oz-u tama’ bo‘ynuga bog‘lab kamand.	“Ey oyog‘ini ochko‘zlik band etgan, bo‘yniga nafs va tama sirtmoq bog‘lagan,
Vodiyi g‘ayratg‘a qadam o‘rmag‘on, Kunguri himmatg‘a alam urmag‘on.	g‘ayrat vodiysiga qadam bosmagan, himmat qal’asiga bayroq tikmagan odam,
Sen dog‘i chekkil bu tikan mehnatin, Tortmag‘il Hotami Toy minnatin.	sen ham bu tikan tashish azobini tortib ko‘r, Hotami Toyning minnatini tortma.
Bir diram olmoq chekibon dast ranj, Yaxshiroq andinki, birov bersa ganj”.	Qiynalib, mashaqqat bilan bir tanga topish birov bergan xazinadan yaxshiroqdir”.
Ulki bu yanglig‘ so‘zi mavzun edi, Mendin aning himmati afzun edi”.	Uning so‘zlari shunday o‘rinli ediki, shuning uchun ham uning himmati menikidan ortiq edi”.
Himmat agar bo‘lsa, Navoiy, sanga, Banda durur Hotami Toyi sanga...	Ey Navoiy, agar senda himmat bo‘lsa, Hotami Toy ham senga quldir...



Keling, suhbatlashamiz

1. Hotami Toy nega o‘tinchi cholga o‘zini tanishtirmadi? Bu orqali undagi yana qaysi fazilat namoyon bo‘lyapti?
2. Chol nima uchun Hotami Toy ziyofatidan ko‘ra o‘tin terib tirikchilik qilishni afzal deb biladi? Siz o‘tinchining o‘rnida bo‘lganingizda nima qilardingiz?
3. Cholning ta’nasi uni ziyofatga taklif qilganga qaratilganmi yoki ziyofatga borganlargami? Fikringizni asoslashga urining.
4. Hotami Toyning o‘tinchi chol gaplaridan, Navoiyning esa Hotami Toy ishidan chiqargan xulosasiga munosabat bildiring.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 8 10/10/24 17:23



Tadqiq qiling

Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarining “Saxovat va himmat” bobida ***isrof haqida*** shunday yozadi:

“Isrof qilish saxiylik emas; o‘rinsiz sovurishni aqlli odamlar saxiylik demas. Halol molni kuydirganni devona deydilar, yorug‘ joyda sham yoqqanni aqldan begona deydilar. Maqtanish uchun mol bermoq – o‘zini ko‘z-ko‘z qilmoq va shunday qilib o‘zini “saxiy” demoq – behayolik bilan nom chiqarmoq. Kim xalqqa ko‘rsatib ehson bersa, u pastkash, saxiy emas. Tilagandan so‘ng berish ham saxovatdan yiroqdir, qistash natijasida bergandan bermagan yaxshiroqdir. Bitta kulchani ikki bo‘lib, yarmini och odamga berganni saxiy deb, o‘zi yemay, hammasini muhtoj odamga berganni axiy, do‘st deb bil”.

1. Yuqoridagi fikrlarga munosabat bildiring. Saxiy va axiy o‘rtasidagi farqlarni sanang.
2. Yuqoridagi fikrlardan so‘ng Hotami Toyning ziyofatni “o‘zini ko‘z-ko‘z qilish” uchun uyushtirmaganiga qanday dalillar keltira olasiz?
3. Matndan olingan quyidagi gapga diqqat qiling: “Bitta kulchani ikki bo‘lib, yarmini och odamga berganni saxiy deb, o‘zi yemay, hammasini muhtoj odamga berganni axiy, do‘st deb bil”. Siz qaysi biri bo‘la olasiz: saxiy yoki axiy?
4. O‘qigan asar yoki ko‘rgan filmlaringizdan saxovatli va himmatli kishilar qilgan ishlarga misollar keltiring.



Uyga vazifa

Hikoyatning asl matni va nasriy bayoni asosida lug‘at tuzing.

So‘zlar	Ma’nosi
Ozodavash	*ko‘ngli ochiq*
* * *	* * *

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 9 10/10/24 17:23

Mutolaadan oldin...



O‘ylab ko‘ring

Boriga qanoat yoki yo‘g‘ida sabr etmay, xarxasha qilgan paytlaringiz bo‘lganmi? Nega shunday qilganingizni tushuntirib bera olasizmi?

Siz shoshqaloqlik oqibatlaridan afsuslanganmisiz? Javobingizni izohlang.

Zavqli mutolaa

Qanoatli va tamagir

(hikoyat)

Qoni’ juvonmard ila tomi’ jahongard hamrohlig‘i va biri farog‘at ganji hirsidin mazallat ranjig‘a qolib, birining qanoat ranji chekardin farog‘at ganjiga yetgoni

Qanoatli juvonmard bilan tamagir jahongashtaning hamroh bo‘lgani, birining farog‘at boyligiga berilganidan xorlik azobida qolgani, ikkinchisining qanoat azobini chekish tufayli farog‘at boyligiga erishgani

Asl matn	Nasriy bayoni
Fors navohiysidin ikki rafiq Ayladilar Chin sori azmi tariq.	Fors o‘lkasidan ikki o‘rtoq Chin mamlakati tomon yo‘l oldilar.
Biri azal qismig‘a qoni’ edi, Qismidin ortuq biri tomi’ edi.	Biri azaldan berilganiga qanoat qilardi, ikkinchisi esa undan ortiqni tama etardi.
Borur edilar qilibon po‘ya fosh, Bo‘ldi ayon yo‘l uza bir soda tosh.	Ular uzoq masofalarni bosib borarkanlar, yo‘l bo‘yida bir oddiy tosh uchrab qoldi.
Yorimi yerda, yorimi yuqqori, Ul yorimidaki, bo‘lub toshqori.	Uning yarmi yerga kirgan, yarmi tashqarida bo‘lib, tashqaridagi qismiga
Nuktayi bas turfa qozilg‘on edi. Chun o‘qudilar bu yozilg‘on edi:	ajoyib bir gap o‘yib yozilgan edi. Yozuvni o‘qiganlarida quyidagi gaplar bor edi:
“Kim kishi gar emgak o‘tin yondurur, Toshni yana yuzig‘a aylandurur.	“Kim qiyinchilikka bardosh berib, toshning orqa tomonini ag‘darsa,
Anda bitiklik durur afsonaye, Kim bu navohiy aro vayronaye.	unda bir afsona yozilgan. O‘sha afsonaga ko‘ra, shu atrofda bir vayrona bor.
Borki, ostida erur turfa ganj, Olg‘ay ani har kishi ko‘rsa bu ranj.	Vayronaning tagida ajoyib bir xazina bor. Mashaqqatiga chidagan o‘sha xazinaga ega bo‘ladi.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 10 10/10/24 17:23

Har kishi bu ranjidin o‘lsa yiroq, Sabr-u qanoat boridin yaxshiroq”.	Kimki bu mashaqqatdan yiroqlik istasa, sabr-u qanoat hammasidan yaxshiroqdir”.
Tomi’ o‘qug‘och mutahattik bo‘lub, Tomia irqi mutaharrik bo‘lub,	Tamagir buni o‘qigach, besaranjom bo‘lib, tamagirlik tomirlari qattiq ura boshladi.
Ganj tamannosig‘a berkitti tish, Bo‘ldi anga tosh tubin qozmoq ish.	Xazina havasida tishlari g‘ijirlab, toshning tagini qazishga tushib ketdi.
Qoni’ ul ishga chu nazar ayladi, Qilmadi parvo-u guzar ayladi.	Qanoat qiluvchi uning bu ishini ko‘rib, parvo qilmasdan o‘tib ketdi.
Dedi: “Bu ne mehnati jonkoh erur, Ganji qanoat manga hamroh erur.	U dedi: “Bu naqadar mashaqqatli mehnat! Qanoat xazinasi mening hamrohimdir.
Kim sorikim, Tengrining ehsoni bor, Tosh yorilib chiqmog‘i imkoni bor.	Kimga Tangri ehson bermoqchi bo‘lsa, tosh o‘z-o‘zidan yorilib, uning ostidagi ehson o‘z egasini topishi mumkin.
Yo‘ldin olib kecha tong otquncha bahr, Subhidam olinda ayon bo‘ldi shahr.	U yo‘lga tushib, tong otguncha yurdi, ertalab bir shahar oldiga kelib qolibdi.
Shahrg‘a el kirgali ko‘p yo‘l edi, Ulki burun kirdi, vale ul edi.	Shaharga kiradigan yo‘l ko‘p ekan. Lekin u shu shaharga birinchi bo‘lib kirdi.
Bor edi darvozag‘a surmak hamon, Har soridin xalq yugurmak hamon.	U darvozaga yaqinlashib borganida har tomondan odamlar chopib kela boshladi.
Bu el aro rasm bu ermishki, shoh Qilsa baqo mulki sori azmi roh.	Bu yer aholisining odati bo‘yicha, podshoh mangulik yurtiga safar qiladigan bo‘lsa,
Asrab ani shahr elidin yoshurun, Kimki sahar shahrg‘a kirsa burun,	shahar xalqidan buni sir tutishar ekan. Sahar vaqti kim shaharga oldin kirsa,
Aylar emishlar ani masnad nishin, Boshig‘a toj, ilgiga solib nigin.	Uni taxtga o‘tqazib, boshiga toj kiydirib, qo‘liga uzuk taqishar ekan.
Oni ham ul rasm ila xayl-u sipoh Qildilar ul mulk-u sipoh uzra shoh.	O‘sha odat bo‘yicha, uni ham davlat kishilari va askarlari mamlakat va sipoh ustidan podshoh qilib ko‘tardilar.
Yoriki, ranj o‘ziga olib edi, Ganj tamannosig‘a qolib edi.	Boshiga mashaqqatni ortib olgan do‘sti bo‘lsa, boylik havasiga berilib,
Ranj bila yetti chu o‘z jonig‘a, Toshni evurdi yana bir yonig‘a,	mehnat bilan o‘z jonini rosa qiynadi, toshni boshqa tomoniga aylantirdi.
Xatqa boqib ko‘rdi bu mastur erur: “Xom tama’ dahrda ranjur erur”.	U yerda yozilgan xatga qarasa: “Kim xomtama bo‘lsa, u dunyoda doim azobda” deyilgan ekan.
Oni qanoat qilibon shahriyor, Muni tama’ ranji qilib xoksor.	Uni qanoat mamlakatga podshoh qildi, bunisini tamagirlik azobi xor-zor etdi.
Qilma, Navoiy, tama’ eldin diram, Bor esa, bersang, xud erur ul karam…	Ey Navoiy, birovdan uch pul tama qilma: o‘zingda bor bo‘lsa, uni boshqaga bersang, shu karamdir…

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 11 10/10/24 17:23

Keling, suhbatlashamiz

1. Ikki do‘st Chinga nima maqsadda ketayotgan bo‘lishi mumkin? Asar matniga tayanib taxmin qilib ko‘ring.
2. Qanoatli deb ta’riflangan odam nega toshni ag‘darib ko‘rishga intilmadi? Toshdagi bitik asosida javob bering.
3. Qanoatli kishi nega sherigini o‘zi bilan ketishga undamadi? Axir ular do‘st edi-ku?
4. Toshni ag‘darib ko‘rishga uringan kishini bu ishi uchun ayblay olasizmi? Nima uchun?
5. Ushbu hikoyat sizga “Hotami Toy” hikoyatining qaysi voqealarini eslatyapti? Izohlang.

Topshiriqlar

1. Hikoyatdan chiqargan xulosalaringizni yozing.

1-xulosam:	* * *
2-xulosam:	* * *
3-xulosam:	* * *

2. Ochko‘z va qanoatli odam o‘rtasida qanday farqlar bor? Javobingizni quyidagidek jadval tuzib, yozing.

Ochko‘z odam	Qanoatli odam
* * *	* * *

Uyga vazifa

1. Hikoyatning nasriy bayoni asosida quyidagi so‘zlarning ma’nosini yozing.

So‘zlar	Ma’nosi	So‘zlar	Ma’nosi
Navohiy	* * *	*Ganj*	* * *
Qoni’	* * *	*Tamanno*	* * *
Emgak	* * *	*Nigin*	* * *
Tomi’	* * *	*Shahriyor*	* * *
Jonkoh	* * *	*Dahr*	* * *

2. Quyidagi qoliplardan foydalanib nima uchun shukr, sabr qilishingizni yozib chiqing.

Men _____ * * * _____ uchun shukr qilaman, chunki _____ * * * _____ .
Men _____ * * * _____ uchun sabr qilaman, chunki _____ * * * _____ .

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 12 10/10/24 17:23



Tanishing: NODAR DUMBADZE

Nodar Dumbadze 1928-yilning 14-iyulida Gruziya poytaxti Tbilisi shahrida tug‘ilgan.

Uning “Hellados”, “Xazarulla”, “Quyoshjon”, “Onaginam”, “Sayroqi qushcha” hikoyalari, “Kukaracha” qissasi, “Abadiyat qonuni”, “Quyosh kechasi”, “Oq bayroqlar”, “Men, buvim, Iliko va Illarion” kabi romanlari o‘zbek tiliga tarjima qilingan. “Abadiyat qonuni” asari asosida o‘zbek tilida telespektakl ham yaratilgan.

Nodar Dumbadzening tashabbusi bilan Gruziya poytaxti Tbilisi shahrida “Mziuri” – “Quyoshjon” nomli bolalar bog‘i bunyod etilgan.

Ijodkor 1984-yil vafot etgan.

Mutolaadan oldin...

Aziz o‘quvchilar, siz bilan “Hellados” hikoyasini o‘qishni boshlaymiz. Asar voqealari Venetsian ko‘chasining “sardori” Yanguli va tbilisilik Jamol atrofida kechadi…

Mutolaadan oldin ayting-chi, siz uchun qadrli bo‘lgan kishilar, narsalar bormi? Ular nimasi bilan siz uchun juda aziz?

Yashash joyingiz sizga qay jihatlari bilan yoqadi? Sanang va izohlang.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 13 10/10/24 17:23

Zavqli mutolaa

Hellados

(hikoya)

I qism

– Jamol – skripka!
– Yanguli – mishiqi!..
– Jamol – sassiq taka!
– Chivinbotir!
– Eshshak!
– Chuvrindi!
– Bezori!
– Tbilisilik landavur!
– Sheni deda vatire, Yanguli!
– Imana su ine prostikasa ineka, Jamol!



Chalbash daryosi, Gruziya

Yanguli – suxumilik grek Xrista Aleksandridining o‘g‘li. Cho‘pday ozg‘in, yelkalari turtib chiqqan, qirraburun, ko‘zlari charosdek qop-qora, qo‘llari uzunligidan tiz-zasiga tushib turadigan o‘n to‘rt yoshli bu bola yon-atrofdagi tengqurlari uchun naq Azroil-ning o‘zi edi. Mushtlashishda hech kim unga bas kelolmasdi. Ana-mana deguncha birvara-kayiga ikki-uch bolani yerga chalpak qilib qo‘yaverardi. Mushukday chaqqon, qayishday chayir bola edi u. Qishin-yozin oldi ochiq qora satin ko‘ylak kiyib yurardi.

Yanguli otasi bilan Venetsian ko‘chasida, Chalbash daryosining bo‘yida yashardi. Onasini eslolmaydi – chaqaloqligidayoq yetim qolgan. Ota-bolaning bor-yo‘q davlati bir parcha tomorqa, bittagina sigir va eshakdan iborat. Oshko‘k, sut-qatiq sotib kun ko‘rishadi.

Yanguli hech qayerda o‘qimasdi. Otasining yumushlariga qarashar, ahyon-ahyon eshakda qo‘shnilarga sut-qatiq tarqatar edi. O‘ziga o‘zi in’om etgan bor vaqtini ko‘chada o‘tkazardi. Temiryo‘l kesib o‘tiladigan joyda maktabdan qaytadigan bolalarni poylab turar, bittama-bitta ularning cho‘ntaklarini timirskilab, tamakimi, sariq chaqami, soat zanjirimi yoxud rangli qalammi – nimaiki bo‘lsa, barini shipshiydam qilib olib qo‘yar edi. Ertasiga esa o‘sha narsalarni yana o‘sha bolalarning o‘ziga arzonroqqa pullar, so‘ng tushgan aqchaga ular bilan qimor o‘ynab, noshud sheriklarining bor-budini obdan shilardi-da, cho‘ntaklarini qappaytirib uyiga qaytardi.

Xudoning bergan kuni ahvol shu edi...

O‘n to‘rt yoshli bu zolim Venetsian ko‘chasida istiqomat qiluvchi barcha ustidan, jum-ladan, xolavachcham Koka ustidan ham tanho hukmronlik qilardi.


Xullasi kalom, Yanguli dahaning tan olingan sardori edi.

Bizning tanishuvimiz o‘ttiz sakkizinchi yilning kuzlarida boshlangan. Nina xolam meni Tbilisidan olib kelgan kunning ertasigayoq butun Suxumiga nomi ketgan musiqa muallimi Yelena Mixaylovna Navrodskayaning uyiga boshlab borib, o‘zini tappa uning oyoqlari ostiga tashladi:

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 14 10/10/24 17:23



Skripka



Lyudvig van Betxoven – nemis bastakori.

– Yetimchaga rahmingiz kelsin! Onasi skripkaga olib borardi... Xudoning irodasi ekan, bir kunda onasidan ham ajraldi, skripkasidan ham judo bo‘ldi... Shu bolani tarbiyangizga oling... Qancha so‘rasangiz ham mayli...

Navrodskaya eshitish qobiliyatimni tekshirdi, har turli notalarni o‘qitib ko‘rdi, barmoqlarimni ko‘zdan kechirdi, iyagim ostidagi qadoqni siypaladi. So‘ng biroz ikkilanib turdi-da, narigi xonadan skripka ko‘tarib chiqib, uni sozlashni buyurdi. Xolam tipirchilab qoldi, ammo topshiriqni tuppa-tuzuk uddalaganimni ko‘rib, sal xotirjam bo‘ldi.

– Endi Betxovenning “Surka”sini chal! – Yelena Mixaylovna shunday dedi-yu kresloga yastangancha chalishimni kuta boshladi.

Betxovenning nomini eshitib, xolamning avzoyi buzildi.

– Muhtaram Yelena Mixaylovna, balki, boshqa, mundog‘roq kompozitorni tanlagan ma’qulmikin? – dedi u ro‘molchasi bilan peshonasidagi terni artib.

– Iye, “Surka”ni chalolmaydimi hali? – deya hayratdan Navrodskayaning qoshlari chimirildi.

Hayotimdagi orziqib kutilgan daqiqalar yetib keldi. Olti yoshimdan buyon meni ezib-yanchib kelayotgan shafqatsiz musiqa jabr-zulmidan birato‘la va bir umrga xalos bo‘lish imkoniyati tug‘ilgan edi. Shu tobda birgina “Yo‘q!” degan afsungar so‘z og‘zimdan chiqsa, butun azoblarim barham topgan bo‘lardi. Ammo... xolamning yolvorganday mo‘ltirab qarab turishimi, Navrodskayaning taajjublanganimi yoxud o‘n uch yashar bolaning g‘ururimi – bilmadim, ishqilib, allaqanday sehrli kuch meni kamonchani qo‘lga olishga majbur qildi-yu... xona ichi “Surka”ning sodda va bemisl ohanglariga to‘lib ketdi...

Nihoyat kuyni chalib bo‘ldim. Xolamning ko‘zlarida liq-liq yosh, Navrodskayaning chehrasi esa yal-yal yonardi.

Yelena Mixaylovna rozi bo‘ldi...

Uyga qayta turib, temiryo‘l kesib o‘tiladigan joyda, ko‘prik ustida o‘tirgan bolaga ko‘zimiz tushdi. U bir parcha g‘isht bilan zo‘r berib yong‘oq po‘stini ishqalardi.

– Salom, Nina Ivanovna! – dedi u.

– Salom! – dedi xolam quruqqina qilib.

– Koka qayerda?

– Maktabda-da, qayerda bo‘lardi? Hamma senga o‘xshagan bekorchimi?

– Kim bu bola?

– Ishing bo‘lmasin! – deb javob berdi xolam yelkamga niqtab.

Yanguli cho‘zib hushtak chalib qo‘ydi. Biz yo‘lga ravona bo‘ldik.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 15 10/10/24 17:23

– Heey, skripka!

Men o‘girilib qaradim.

Yanguli tilini chiqargancha bir ko‘zini qisib, xuddi skripka chalayotganday, o‘ng qo‘lini chap bilagiga ishqadi. Jon-ponim chiqib ketdi.

– Maymun! – deb qichqirdim uzoqdan musht o‘qtalib.

– Ertaga biznikiga kir, musht o‘qtalishni o‘rgatib qo‘yaman! – dedi u xoxolab.

– Qachon bezoriliging qoladi, a? – xolam kuyinib boshini sarak-sarak qildi.

– Kim bu?

– Grek bola, Yanguli. Otasi uyimizga sut olib kelib turadi... Unga yaqinlasha ko‘rma! Bezori u... Kun-u tun ko‘chaga tanda qo‘ygan.

Men yana bir bor o‘girilib qaradim. Yanguli yong‘oq ishqalagancha masxaraomuz tirjayib turardi.

Xolam meni joylashtirgan 13-maktab temiryo‘l ko‘tarmasining narigi tomonida bo‘lgani uchun deyarli har kuni Yanguliga duch kelishim muqarrar edi.

Qariyb bir oygacha u menga mutlaqo e’tibor bermadi. O‘zining odatiy mashg‘uloti – atrofiga o‘rtoqlarini yig‘volib, oshiq tashlash yoki qimor o‘ynash bilan andarmon bo‘lib yuraverdi. Ammo har gal men yaqinlashganimda Yanguli bolalardan birortasiga tashlanib qolar – goh telpagini ko‘ziga bostirib qo‘ysa, goh hech narsadan hech narsa yo‘q, yumshoq joyiga tepar edi. Shunda negadir nigohini mendan uzmasdi.

Ayni paytda men ham o‘zimni na Yanguli, na uning o‘rtoqlari zig‘ircha ham qiziqtirmaydiganday tutardim. Aslida esa hoziroq bolalarga qo‘shilib ketgim kelib turar – ularga o‘zimning nimalarga qodirligimni ko‘rsatib qo‘yishni istardim. Biroq mahallada yangi odam edim, yon-atrofimda Kokadan bo‘lak yor-do‘stim yo‘q edi, binobarin, Yangulining kallakesarlariga yaqinlashishga yuragim dov bermasdi. Ammo o‘rtamizdagi betaraf maydon tobora qisqarayotganini, vishillab yonayotgan pilik pistonga yaqinlashib qolganini, bir kunmas-bir kun portlash yuz berishini ko‘nglim sezib turardi.

Oradan roppa-rosa bir oy o‘tgach, ana shu kun keldi...

Yelena Mixaylovna ichkarida boshqa bir shogirdi bilan mashg‘ulot o‘tkazar, men dahlizda navbat kutardim.

Doira stol ustida akvarium turar, uning ichida suv o‘tlari, biri-biridan chiroyli chig‘anoq va toshlar oralab tilla baliqchalar suzib yurar edi. Baliqlar og‘zini kap-kap ochib, pufakchalar chiqaraverganidan negadir ularning qorni och degan xulosaga keldim. Darrov cho‘ntagimdan qog‘ozga o‘rog‘liq bir bo‘lak qora non bilan pishloqni chiqardim-da, apil-tapil ushoqlab, akvariumga sepdim. Baliqchalar avvaliga hurkib ketib, toshlar ortiga berkinishdi, keyin go‘yo niyatim yomonmasligini sezganday, birin-ketin pana joylaridan chiqib, yemishga tashlanishdi.

Men suv ichida ko‘tarilgan oltin quyunni zavq bilan tomosha qila boshladim. Akvarium bamisoli jajji okeandek jo‘sh urib burqirardi. Asta-sekin to‘lqin bosildi. Nafsi orom olgan baliqchalar suv ichida yana u yoqdan bu yoqqa xotirjam suza boshlashdi. Ayrimlari akvariumning shisha devoriga yaqin kelishardi-da, xuddi menga minnatdorlik bildirganday, dumlarini xiyol qimirlatib, jilpanglab qo‘yishardi. To‘satdan baliqchalardan biri – eng kattasi – to‘nkarilib qoldi. Keyin yana bittasi shunday bo‘ldi. Hayal o‘tmay akvariumdagi jamiki baliqchalar qornini osmonga qilib, orqasi bilan suza boshladi. Qo‘limni suvga tiqib, jonivor-

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 16 10/10/24 17:23

larni o‘nglab qo‘yishga harchand urinmayin, ular yana lip etib to‘nkarilib qolishardi. Shundagina nojo‘ya ish qilib qo‘yganimni anglab yetdim. Hash-pash deguncha akvarium ichidagi hayot so‘ndi. Zaharlangan baliqchalar suv yuzasiga qalqib chiqdi... Dahshatdan yuragim orqaga tortib ketdi. Skripka solingan g‘ilofimni ko‘tarib sekin juftakni rostlamoqchi bo‘lib turuvdim, evoh, ichkaridan shogirdini kuzatib Yelena Mixaylovna chiqib keldi.

– Kir! – deb murojaat qildi u menga. Qoqqan qoziqdek turaverdim.

– Kira qol! – dedi u yana yelkamdan eshik tomon sal niqtab. Turgan joyimdan jilmadim.

– Nima balo, darsingni qilmadingmi? – Yelena Mixaylovnaning ovozi o‘zgardi. Miq etmadim. U menga taajjublanib qaradi, so‘ng nigohi nigohimga ergashib, akvarium tomon og‘di-yu... faqat baliqshunoslargina tasavvur qila oladigan hodisa yuz berdi. Yelena Mixaylovnaning tizzalari qaltiray boshladi, bir zumda lablari ko‘karib ketdi, arang borib kresloga o‘tirdi-yu titroq ovoz bilan menga so‘z qotdi:

– Sen... nima qilib qo‘yding, yaramas?

– Bilmabman, Yelena Mixaylovna... Xayolimda... Qora non bilan pishloq sepdim xolos...

– Zaharlabsan! – dedi u ingrab. Keyin xuddi birov arzanda bolasini bo‘g‘izlab qo‘yganday, ikkala kaftini yuziga bosib, ho‘ngrab yubordi.

Bir nimalar deb g‘udranganim, o‘zimni oqlaganim, alamzada ayolni yupatishga uringanim esimda. Qani endi nafi tegsa! Ayol o‘rnidan turib, akvarium yoniga bordi. Suvdan jonsiz baliqchalarni bittama-bitta olib, har birini alohida-alohida o‘pib, yana akvariumga tashlarkan, yig‘i aralash nuqul:

– Azizlarim, oltinlarim, nuridiydalarim... Sizlarni zaharladilar, o‘ldirdilar! – deya sannardi.

Sannamoq – ko‘chma ma’noda: ko‘p gapirmoq, vaysamoq, aytib yig‘lamoq.

Keyin u menga yuzlandi. Quti o‘chgan, iyagi titrar, ko‘zlaridan duv-duv yosh quyilar edi. Qo‘qqisdan Yelena Mixaylovna yuzimga tarsaki tortib yuborgan edi, ag‘darilib tushishimga sal qoldi.

– Jo‘na bu yerdan, vahshiy! Ikkinchi qadamingni bosma!.. Yo‘qol!

Shapaloq og‘rig‘ini ham, bo‘g‘zimga qadalib turgan alam yoshlarini ham bazo‘r ichimga yutib, xonadan chiqdim.

Esankiragan, sharmanda-yu sharmisor, chala o‘lik bir ahvolda uyga qarab jo‘nadim. Temiryo‘l kesib o‘tiladigan joyda odatdagidek Yangulining to‘dasi uymalanardi. Beixtiyor boshim o‘sha tomon og‘di – hozir uyga borishdan nima foyda?! Bolalarga yaqin qolganda qadamimni sekinlatdim-da, atayin engashib, botinkamning iplarini titkilay boshladim.

– Heey, skripka!

Yangulining ovozini darrov tanidim.

– Nima deysan?

– Bu yoqqa kel!

– Ishing bo‘lsa – o‘zing kel!

Yanguli o‘zidan ham battar taajjublangan o‘rtoqlariga bir qarab qo‘ydi-da, asta men tomon yura boshladi.

– Kimligimni bilmaysanmi hali? – deb so‘radi u kishining g‘ashiga tegadigan bir ohangda.

– Bilaman, – dedim ko‘zlariga tik qarab.

– Bo‘lmasa, nega chaqirganda kelmaysan?

– Kim bo‘psan meni chaqiradigan? – dedim yana bepisandlik bilan, ammo har ehtimolga qarshi skripka solingan g‘ilofni yerga qo‘ydim.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 17 10/10/24 17:23

Yanguli o‘yinni ham unutib, bizni qurshab olgan bolalarga yana bir-bir qarab chiqdi.

– Yanguli, kimligingni bir ko‘rsatib qo‘y! – dedi bolalardan biri.

– Sol, Yanguli! – deya qo‘shimcha qildi ikkinchisi.

– Bir shapaloqqina! – deb maslahat berdi uchinchi bola.

– Oldin zo‘rligini bir ko‘raylik-chi! – Yanguli shunday deb, yuzimni bir siypalab qo‘ydi.

– Qo‘lingni tort! – deb baqirdim unga.

– Ol-a! – deya hayron bo‘ldi Yanguli.

– Uni qaranglar-a!

– Papirosni chiqar! – dedi Yanguli birdan qo‘lini cho‘zib.


– Chekmayman!

– Puldan cho‘z!

– Pulim yo‘q.

– Cho‘ntaklaringni ag‘dar!

Bolalar pichirlasha boshlashdi. Yanguli dovdirab qoldi, ammo darrov o‘zini bosib, skripkaga qo‘l cho‘zdi.



– Tort panshaxangni! – deb baqirdim skripka ustiga engashib. Lekin Yanguli o‘zg‘irlik qildi – g‘ilofni ochib, asbobni menga uzatdi.

– Qani, birorta kuy chalib bolalarni xursand qilgin-chi!

– Chalmayman!

– Nega bo‘lmasa bu daxmazani ko‘tarib yuribsan? Esi yo‘q eshakmisan?

– Ber skripkani!

Yanguli asbobni orqasiga yashirib, bir qadam tisarildi.

– Petya, Fema, Kurlik, Pancho, Tena! Umrlaringizda skripka ovozini eshitganmisizlar? – dedi u bolalarga murojaat qilib. Ular baravariga chuldirashdi.

– Radiodan eshitganman! – dedi Petya.

– Bo‘la qol, Yanguli, bir ko‘rsatib qo‘y!

Skripkamning ovozini hammadan oldin o‘zim eshitdim: Yanguli qulochkashlab turib skripka bilan boshimga tushirdi.

Ziing... qars... etgan tovushdan so‘ng asbob ikkiga bo‘lindi. Uning qorni xuddi shartta chopib tashlangan qo‘lday nozik simlarga osilgancha lapanglab turardi.

Bolalar xoxolab, yerga dumalashdi.

Yuragim go‘yo to‘xtab qolganday bo‘ldi, miyamga qon urildi, quloqlarim bitib qoldi. Men hech narsani eshitmas, sezmas edim, faqat qornini changallab kulayotgan bolalarni, chil-parchin bo‘lgan skripkani va Yangulining turtib chiqqan ozg‘in iyagini ilg‘ardim xolos. Birdan bor kuchim bilan ana shu iyak ostiga musht tushirdim.

Es-hushimni yig‘ib olganimda Yanguli ko‘prik ustida o‘tirar, menga hayratomuz tikilgancha o‘ng qo‘li bilan iyagini ishqalar edi. Bolalar churq etishmasdi.

Shartta burilib, uyga jo‘nadim.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 18 10/10/24 17:23

O‘sha kuni kechqurunoq qo‘shnimiz, Yangulining o‘ng qo‘li hisoblanmish Petya majaqlangan skripka bilan g‘ilofni uyimizga olib kelib, ostonaga tashladi-da, quyonni survordi.

Fig‘oni falakka chiqqan xolam avval Petyani, so‘ng Yanguli Aleksandridini, oxirida o‘zimni bisotida bor yomon so‘zlar bilan qarg‘ashga tushdi:

– Haa, yer yutsin seni, Petya kasofat!.. Iloyim, bo‘yginang go‘rda chirisin... Sen ham bir, ko‘katfurush otang ham bir! Senlar skripkaning qadriga yetasanlarmi? Paganinimi, Stradivarimi, arrakashmi senlarga baribir!.. Eng avval sening go‘shtingni qiymalash kerak edi, Yanguli Aleksandridi! Hayf senga musiqa! Eshakning hangrashini eshitib katta bo‘lgan bola musiqani tushunarmidi?! Hammasiga uyimdagi yangi bezori aybdor! Mana shuni oyog‘idan osish kerak! O, opajonim Aniko! O‘zimning tashvishim yetmayotuvmidiki, yana manovi g‘urbatni boshimga balo qilib tashlab ketding-a! Nima gunoh qildim, ey Parvardigor?

Paganini – italiyalik mashhur sozanda va bastakor.

Stradivari – skripka yasovchi italiyalik mashhur usta.

O‘sha kuni musiqa olamidagi sarguzashtlarimga nuqta qo‘yildi. Hayotimda yangi davr – yashash uchun kurash davri boshlandi...

Keling, suhbatlashamiz

1. Hikoyadagi ta’riflardan Yanguli obrazi sizda qanday taassurot uyg‘otdi?
2. Nima deb o‘ylaysiz, Yanguli nega Jamolni har ko‘rganida yonidagi sheriklaridan biriga tashlanib qolardi?
3. Jamolning Yanguli to‘dasiga nisbatan o‘zini befarq tutishi, lekin ularga qo‘shilib, nimalarga qodir ekanini ko‘rsatmoqchi bo‘lganini qanday baholaysiz? Jamol ham bezorilar to‘dasiga qo‘shilib ketishi mumkinmi?
4. Jamol o‘zidagi qaysi xislatlar bilan Yangulini qiziqtirib qo‘ygan edi?
5. Yangulining to‘dasi oldida skripka chalishga Jamolning g‘ururi yo‘l qo‘ymadimi yoki bunga boshqa sabab bor deb o‘ylaysizmi?
6. Jamolni asrab olgan Nina xola haqida mulohazalaringizni bildiring. U nega oddiy vaziyatlarda ham asabiylashib, kuyinib gapiradi deb o‘ylaysiz?

Uyga vazifa

Siz sinfingiz yoki mahallangizga yangi kelgan bolaga qanday munosabatda bo‘lish kerak deb hisoblaysiz? Unga nimalarni tanishtirgan bo‘lardingiz? Javobingizni yozing.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 19 10/10/24 17:23

Hellados

(hikoya)

II qism

Ertasi kuni Yanguli bilan Petya bizni maktab darvozasi oldida qarshi olishdi. Yuragim shuv etdi, ammo go‘yo kecha hech narsa bo‘lmaganday, yonidan beparvo o‘tib ketdim.

– Skripka! – Petyaning ovozi edi bu.

To‘xtadim.

– Gaplashvolishimiz kerak! – dedi Yanguli yonimga kelib.

– Nimani gaplashamiz?

– Bu yer noqulay, – deya u maktabdan chiqib kelayotgan o‘quvchi va muallimlarga ishora qildi.

– Qayerda bo‘lmasa? – deb so‘radim.

– Temiryo‘lning nariyog‘ida, ko‘prik ostida.

– Ixtiyoring.

Yanguli yo‘l boshladi, Koka ikkalamiz unga ergashdik. Petya esa orqada kelardi (qochib ketmasligimiz uchun degan o‘y kechdi ko‘nglimdan).

– Tamom bo‘ldik! – dedi sarosimaga tushgan Koka. U mendan ikki yosh kichik, buning ustiga, Yangulining tarsakilari yodidan ko‘tarilmagan edi.

– Qo‘rqma! – dedim unga tasalli berib, lekin ichimdan o‘tganini o‘zim bilib turardim.

Temiryo‘l ko‘tarmasidan pastga tushayotganimizda Koka qochib ketmoqchi bo‘ldi, bazo‘r bilagidan ushlab qoldim:

– Qayoqqa?! Sharmanda bo‘lging kelyaptimi?

– Sen uni bilmaysan! Ikkalamizniyam dabdala qiladi! – dedi Koka yalinchoq ovozda.

– Qilsa qilar! O‘ldirmaydi-ku harqalay!

Koka xuddi qurbonlikka atalgan buzoqday chor-nochor yana menga ergashdi.

Yanguli temiryo‘l ko‘prigi ostida to‘xtab, atrofga alangladi. Hech kim yo‘q edi.

– Mana, keldik. Xo‘sh, nima demoqchisan? – dedim.

Yanguli biroz indamay turdi, keyin asta so‘z boshladi:

– Kecha meni bolalarning oldida sharmanda qilding... Qattiq urding, qo‘qqisdan... O‘rnimdan turolmadim, shuning uchun ham sen nasibangni olmading... Turmoqchi bo‘ldim-u, turolmadim.

Yangulining bunday ochiq, samimiy gapirishidan angrayib qoldim.

– Men rahbarman. Mahallaning xo‘jayiniman, shunday bo‘lib qolaman... – deya davom etdi u.

– Bo‘lsang bo‘laver, lekin meni tinch qo‘y, – dedim men ham o‘shanday samimiylik bilan.

– Mendan katta bo‘lganingda mayli edi! Lekin mendan yoshsan, shunga qaramay, qo‘l ko‘tarding... Bunaqasi ketmaydi. Podada serka bitta bo‘lishi kerak – yo sen, yo men!

– Aytdim-ku, menga hech narsa kerak emas! – deb takrorladim men.

– Yo‘q, urg‘ochi gap bu... Mushtlashamiz!

– Mayli, – dedim rozi bo‘lib.

– Faqat, halol mushtlashamiz!

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 20 10/10/24 17:23

– Halol deganing nimasi?

– Petya bilan Koka aralashmaydi! So‘kishish yo‘q! Tosh bilan urish yo‘q! Yiqilganga tegilmaydi!

– Bo‘pti!

– Agar bugun seni yengsam, ertaga kechagi bolalarning oldida yana bir marta uraman. Shu bilan tamom.

– Ko‘ramiz hali kim kimni yengadi...

Yanguli qora satin ko‘ylagini yechdi. Keng, tarang ko‘kragini ko‘rib, seskanib ketdim. Bu ham mayli, chap to‘shining ustiga ko‘kish rangda naqshlangan lotin harflaridagi yozuv meni negadir butkul dovdiratib qo‘ydi: “Hellados”.

Yanguli Petyaga grekchalab bir nimalar dedi. Petya miq etmadi.

Yanguli yana takrorladi. Petya istamaygina ikkala cho‘ntagidan ikkita kattakon toshni chiqarib, bir chetga uloqtirdi. Yanguli Kokaga qaradi. Koka shosha-pisha qoq-quruq cho‘ntaklarini ag‘darib ko‘rsatdi.

– Boshladik! – dedi Yanguli.

– Boshladik! – dedim men ham.

Olishuv ikki-uch minutgina davom etdi.

Men mushtlarimni tugib, Yanguli esa besh panjasi bilan urardi. Men urganda ovoz chiqmas, ammo Yanguli har tushirganda atrofdan charsillagan aks sado kelardi. Petya Yanguliga grekchalab dalda berar, Koka esa menga gruzinchalab bidirlar edi:

– Kalla qil, Jamol, kalla qil!

Mushtlashganda kalla qilish nimaligini o‘zim ham bilaman, biroq Yanguliga yaqinlashib bo‘lmayotgan edi: uning chayir, terlagan gavdasi har gal sirg‘alib qo‘limdan chiqib ketaverardi.

Yana bir qarsillagan tovush eshitildi-yu, burnimdan tizillab qon otildi. Qonni artgunimcha Yanguli tag‘in bir marta tushirdi; natijasi shu bo‘ldiki, kecha xuddi Yanguli ag‘darilganday gup etib yerga quladim, faqat bitta farqi bor: hozir men turadigan holdaman, ammo Yanguli kecha o‘rnidan turolmagan edi.

Nima bo‘lganda ham, bugungi olishuvning yakuni ma’lum: men yutqazdim. Yanguli biroz kutib turdi, mushtlashishni davom ettirish niyatim yo‘qligiga ishonch hosil qilgach, shoshmasdan ko‘ylagini kiya boshladi. Nigohim yana ko‘ksidagi g‘alati so‘zga tushdi: “Hellados”.

– Ertagacha! – dedi Yanguli. Ustki labi shishib ketganini, chap qoshi yorilganini shundagina payqadim.

Yanguli bilan Petya tepaga ko‘tarilib, temiryo‘l yoqalab ketdi, Koka ikkalamiz pastda qoldik.

– Hechqisi yo‘q, u ham oladiganini oldi! – deya Koka menga tasalli bergan bo‘ldi.

– Ertaga baribir uni yengaman! – dedim.

– Oldin bir oynaga qaravolsang bo‘lardi! – dedi xo‘rsinib Koka.

– Yuzim yomon shishibdimi?

– Ko‘pchigan xamirning o‘zginasi! – dedi Koka chetga qarab.

– O‘o‘, yaramas!

Bu gal xolam indamadi. Yuzimga avaylab ho‘l latta bosdi. Ertasiga ertalab xuddi o‘shanday xotirjamlik bilan qatiq to‘la xurmachani Xristo Aleksandridining boshiga urib sindirdi,

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 21 10/10/24 17:23

baayni Yanguli skripkani mening boshimga urib sindirganday. Keyin “Bolani vahshiylarcha kaltaklagani uchun bezori o‘g‘lingni qamoqda chiritaman”, deya unga obdan po‘pisa qildi.

Ertasiga maktabga bormadim – yuzimdagi shish va momataloqlarni davoladim. Uchinchi kuni temiryo‘l kesib o‘tiladigan joyda Yangulidan boshqa deyarli butun mahallaning bolalari to‘planib turganini ko‘rdik. Ular bizni hushtak va tahqirlar bilan kutib olishdi.

– Qalay, Skripka, tavbangga tayandingmi?

– Endi uni tinch qo‘yarsan? Yo o‘lging kelyaptimi?

– Bu yer senga Tbilisi emas!

Butun to‘da o‘tgan kungi mag‘lubiyatimni eshitib bo‘lgan edi.

Ularning gap-so‘zlariga e’tibor bermay, sumkamni asta yerga qo‘ydim, o‘zim ham o‘tirib, Yangulini kuta boshladim.

– Kelyapti! – deb qichqirdi kimdir birdan.

– Hozir ko‘ramiz tomoshani! – dedi yana birov.

– Salom! – Yanguli hamma bilan so‘rashdi, keyin menga ko‘zi tushdi-yu baqa bo‘lib qoldi.

– Mana, Yanguli, lahm go‘sht o‘z oyog‘i bilan keldi. Tezroq yeya qol! – dedi Petya uni gijgijlab.

– Shundoq yeyaverasanmi, ikra yo sariyog‘ bilanmi?

Yanguli amirona ishora bilan hammaning ovozini o‘chirdi, so‘ng bamisoli qabila oqsoqoliday o‘z qavmiga yuzlanib, tarixiy nutq irod etdi:

– Bolalar! Men, Yanguli Aleksandridi, sizlar saylagan sardor, sizlarga, Venetsian ko‘chasining hur farzandlariga murojaat qilaman! Ro‘parangizda tbilisilik rangpar laqma bilan uning jiyani – Vatan va qabila xoini, mishiqi Koka turibdi. Mana bu rangpar kelgindi bizning mehmondo‘stligimiz va muruvvatimizdan bahramand bo‘lish o‘rniga – Xudo siylagan yerimizni, dengizimizni, jamiki daryolarimiz, oltin va kumushlarimiz, o‘tloqlarimizni o‘ziniki qilib olmoqchi...

– Bas qil maynabozchilikni! – dedim uning gapini bo‘lib. – Mushtlashamiz!

Yanguli menga tikilib turdi-da, so‘zida davom etdi:

– Hozir sizlarga rangpar go‘shtdan qanday qilib qovurdoq tayyorlashni ko‘rsatib qo‘yaman.

– Oliftagarchilik qilma! Boshlaymiz!

– Hoy mishiqi! – Yanguli Kokaga murojaat qildi. – Yugur, “Tez yordam”ga qo‘ng‘iroq qil, besh daqiqadan keyin kelib, xolavachchangni olib ketsin. Ungacha behush bo‘ladi.

Bolalar huzur qilib kulishdi.

– “Tez yordam” bugun seni olib ketadi! – shunday deb o‘rnimdan turdim.

Tomoshabinlar davra olishdi.

Yanguli Petyaga ikki og‘izgina pichirladi. U kamarini yecha boshladi. “Nahotki kamar bilan ursa?” degan o‘y o‘tdi ko‘nglimdan.

Petya kamarni Yanguliga uzatib, davraga qaytdi. Yanguli to‘planganlarga viqor bilan bir nazar tashlab chiqqach, dedi:

– Men bu rangpar bilan ikki qo‘llab mushtlashmayman. Bunga bitta qo‘l ham kifoya. Petya, chiq bu yoqqa, qo‘limni bog‘la!

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 22 10/10/24 17:23

Atrofdan “Qoyiil!” degan xitoblar eshitildi, mening esa yuragim orqaga tortib ketdi. Bu yana qanaqa nayrang!

Petya o‘rtaga chiqib, Yangulining chap qo‘lini gavdasiga qo‘shib bog‘lab qo‘ydi.

– Masxarabozlikni bas qil! Chiqar qo‘lingni! – dedim men.

– Yo‘q, sen bilan ikki qo‘llab mushtlashish men uchun uyat!

Bolalar tag‘in zavqlanib kulishdi.

– Ee, unaqada mushtlashmayman! – men sumkamga engashdim.

– Qo‘rqyapsanmi? – deb so‘radi Yanguli.

– Yo‘q, qo‘rqayotganim yo‘q, xohlamayman. Chiqar qo‘lingni! Baribir bugun kaltak yeysan!

– Boshla, keyin afsuslanasan! – Yangulining jahli chiqa boshladi.

– Solsang-chi, nimani kutyapsan?! – deb shivirladi menga Koka.

Bosh chayqab turaverdim. Axiyri bo‘lmagach, Yanguli yaqin kelib, tarsaki tortib yubordi. Yuzimdan olov chiqib ketdi, lekin qo‘limni qimirlatmadim. Yanguli yana urdi, keyin yana. Sezib turibmanki, bor kuchi bilan urmayapti. Uning tarsakilari raqibiga zarba berishdan ko‘ra o‘yinqaroq bolaga po‘pisa qilishga o‘xshardi. Javob qaytarmayotganimni ko‘rib, Yanguli qo‘lini tushirdi. Men shartta burilib, bir og‘iz ham gapirmay, jang maydonini tark etdim. Bolalar indamay yo‘l bo‘shatishdi.

– Ho‘ Skripka! – bu Petyaning ovozi edi, shu zahotiyoq charsillagan tovush ham eshitildi. Yanguli Petyaning yuziga tarsaki tortgan edi.

Orqamga qaramadim – men yig‘lardim, bolalar ko‘zyoshlarimni ko‘rishlarini istamasdim.

Yig‘lardim-u, lekin bugungi olishuvda g‘olib chiqqanimni ich-ichimdan his etardim.

Tongotar, hali g‘ira-shira paytida men Aleksandridilar darvozasi oldida turardim. Xristo eshakka to‘qim urar, Yanguli esa unga yordamlashar edi. Meni ko‘rib yonimga keldi.

– Ha, arz qilgani keldingmi? – dedi u otasi tomon bosh irg‘ab. Xristo orqa o‘girib turgani uchun meni ko‘rmasdi.

– Kim kepti? – deb baqirdi u ishidan ko‘z uzmay.

– O‘rtog‘im.

– Yangulining vaqti yo‘q, bozorga boradi! – Xristo o‘girilib meni ko‘rdi-yu hayron bo‘ldi: – Iye, yarashdinglarmi?

– Yarashdik! – deb javob qildim men.

– Ha, mana bu – boshqa gap! Ikkoving ham zo‘r yigitsan-ku! – Xristo suyunib ketdi. – Kir bu yoqqa!

– Rahmat, shoshib turibman... Qachon qaytasan?

– Kechki payt, – deb javob berdi Yanguli.

– Ko‘prik tagida kutaman!

Shunday dedim-u izimga qaytdim.

U keldi, indamay eshagini bir chetga bog‘ladi-da, ko‘ylagini yechib to‘qim ustiga tashladi, shunda yana ko‘ksidagi afsungar so‘zga ko‘zim tushdi: “Hellados”.

Bugungi olishuvimizga faqat eshak shohid bo‘ldi. Mushtlashish uzoq davom etdi. Har qancha urinmayin, Yanguli o‘zg‘irlik qildi – birinchi zarbani u berdi. Men yiqilmadim, faqat chayqaldim xolos. Ikkinchi marta hamla qilganida chaqqonlik bilan gavdamni orqaga tashladim, qo‘li burnim oldidan shuvullab o‘tib ketdi. Ammo u shu qadar shiddat bilan quloch otgan ediki, muvozanatini yo‘qotib, munkaygancha bir qadam oldinga tashladi.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 23 10/10/24 17:23

Shunda... Ho‘ o‘sha birinchi bor mushtlashganimizda bo‘lganiday, ozg‘in iyagi o‘ng kelib qoldi. Men ham o‘sha iyak ostiga qattiq musht soldim. Yanguli yiqildi, bir muddat qimir etmadi. Endi o‘rnidan turolmaydi deb o‘ylagan edim. Ammo u birdan sapchib turdi-yu yana menga tashlandi. Uning ochiq panjasi bilan mening mushtim nishonga bir vaqtda tegdi. Ko‘zim tinib, cho‘kkalab qoldim, beixtiyor kaftlarimni yuzimga bosgan edim, burnimdan tizillab qon oqayotganini sezdim. Sal o‘zimga kelib qarasam, Yanguli ham cho‘kkalagancha yorilib ketgan lablaridagi qonni artyapti. Bir amallab qaddimni rostladim. Yanguli ham o‘rnidan turdi.

Biz bir-birimizga uzoq tikilib qoldik. Pishillab nafas olayotganimizni ikkalamiz ham eshitib turardik. Men Yangulining yana hamla qilishini kutardim, ammo, taajjubki, mushtlashishga menda na xohish, na kayfiyat qolgan edi. Biroq endi hech qachon Yanguli menga zo‘ravonlik qilolmasligini ham bilib turardim.

– Bas! – dedi Yanguli kutilmaganda.

– Bo‘pti! – Men ham rozi bo‘ldim. – Lekin ertaga bolalarning oldida mushtlashamiz! – deya qo‘shib qo‘ydim har ehtimolga qarshi.

– Keragi yo‘q. Zo‘r bola ekaningni bolalarga o‘zim aytaman. Lekin bilib qo‘y, birinchilikni senga bermayman!

– Keragi ham yo‘q!

– Xohlasang, ikkinchi bo‘la qol.

– Menga hech narsa kerak emas! Sening yo‘ling boshqa, mening yo‘lim boshqa! – Men ketishga chog‘landim.

– To‘xta! Bunaqasi ketmaydi. Har kuni mushtlashavermaymiz-ku axir. Ke, kelishvolaylik: ertadan boshlab faqat so‘kishamiz. Kim qoyillatsa – o‘sha g‘olib!

– Mayli, roziman.

Mana, yana bolalar qurshovidamiz. Bu gal o‘rtamizda dahanaki jang avjiga chiqqan.

– Jamol – eshakmiya!

– Yanguli – ko‘katfurush grek!

– Tbilisilik mishiqi!

– Eshakboqar!

– To‘ng‘iz!

– Chirigan bodring!

– Toshbaqa!

– Itbaliq!

– Meduza!

– Ovsar!

– Paganini!

Bisotimdagi haqoratbop so‘zlar tugadi. Yanguli kutib turardi – navbat meniki edi.

– Bo‘la qol, yutqazasan! – deb turtkiladi Koka.

– Menda boshqa yo‘q!

– Onasiga o‘t!

– Yo‘q, onani aralashtirib bo‘lmaydi!

– Sheni deda vatire, degin! Uyat joyi yo‘q buning!

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 24 10/10/24 17:23

– O‘rischasiga nima degani?

– Sen gruzinchasiga aytaver! U baribir tushunmaydi! – Koka hol-jonimga qo‘ymasdi.

– Yanguli, sheni deda vatire! – gruzinchalab shunday dedim-u, javobini jon hovuchlab kutib turardim.

– Imana su ine prostikasa ineka, Jamol!

Sezdimki, Yanguli ham onamga til tekkizdi, ammo bu so‘zlar shu qadar xushohang, shu qadar yoqimli eshitildiki, go‘yo u go‘zal bir qo‘shiqni boshlaganday bo‘ldi nazarimda. Men yana takrorladim:

– Sheni deda vatire, Yanguli!

– Imana su ine prostikasa ineka, Jamol!

Bu hol yarim yilcha davom etdi. So‘ng ehtiroslarimiz asta-sekin so‘ndi. Ikkalamizning ham haqorat repertuarimizda bitta-yu bitta jumla qoldi, har uchrashganimizda men: “Sheni deda vatire, Yanguli!” derdim, u bo‘lsa: “Imana su ine prostikasa ineka, Jamol!” derdi.

Oftob charaqlab turardi. Koka ikkalamiz maktabdan qaytardik. Temiryo‘l kesib o‘tiladigan joyda odatdagidek Yanguli o‘rtoqlari bilan ivirsib o‘tirardi. Meni ko‘rdi-yu shartta o‘rnidan turib, istiqbolimga yura boshladi.

– Yanguli, sheni deda vatire! – deya o‘zg‘irlik qildim men.

U to‘xtab, ma’yus nigoh bilan uzoq tikilib turdi.

– Sheni deda vatire, Yanguli! – deb takrorladim yana.

Yanguli boshini egdi, keyin burilib, asta... uyi tomon keta boshladi. Men dong qotib qoldim.

– Ko‘rdingmi quyon bo‘lganini?! Endi xo‘jayinlik qilolmaydi! – dedim Kokaga.

– Yo‘q, endi boshlandi! – Koka miyig‘ida kulib qo‘ydi.

– Qanaqasiga?

– Shunaqasiga-da. U seni yengdi, Jamol!

– Nega so‘kinmadi bo‘lmasa?!

– Kecha oyingni surishtirgan edi: kim, qayerda... Men nima deyin... Shunaqa, shunaqa... haligi... Yo‘q... o‘lgan, dedim. Shuning uchun ham so‘kmadi-da seni...

G‘alati bo‘lib ketdim.

– Ahmoq, ovsar! Nega kecha shuni menga aytmading?

– Qaydam...

– Yanguli! – deb qichqirdim orqasidan. Ammo u ancha uzoqlashib ketgan, ovozimni eshitmasdi. Yo eshitsa ham, eshitmaganga oldimi...

Shu ondan boshlab Yanguli o‘n baravar ulg‘ayganday bo‘ldi, mening nazarimda. Oramizda g‘animlik bo‘lmaganidek, yaqin do‘st ham bo‘lolmadik u bilan. Uchrashib qolganimizda bir-birimizga jilmayib, qo‘l silkib qo‘yardik xolos. Ahyon-ahyon, otasining o‘rniga uyimizga sut yoki qatiq olib kelganida uch-to‘rt og‘iz gaplashardik. Shunda ham suhbatimiz sut-qatiqning bahosi-yu eshakdan nariga o‘tmasdi.

O‘sha kuni Yanguli sut opkeldi. Hovlida unga ko‘zim tushdi-yu... taniyolmay qoldim. Basharasi momataloq bo‘lib ketgan edi.

– Nima bo‘ldi? – deb so‘radim ajablanib.

Aql bovar qilmasdi – bu atrofda Yanguliga kim qo‘l ko‘tarishi mumkin?! Yoki birorta kattaroq yoshdagi odamning ishimikan bu?

– Hech narsa! – dedi u chetga qarab.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 25 10/10/24 17:23

– Aftingga bir qaragin...

– Hechqisi yo‘q! – deya jilmaydi u.

– Yanguli, kim urdi? Agar kuching yetmagan bo‘lsa, birga boramiz!

Yanguli bosh chayqadi.



Suxumi shahrining hozirgi ko‘rinishi

– Eshagingni bog‘la, hoziroq boramiz! – deb sut solingan xurmachani zinaga qo‘ydim.

– Keragi yo‘q, unga baribir kuchimiz yetmaydi! – dedi Yanguli siniq kulimsirab.

– Nega yetmas ekan?! Ikkalamizniyam-a?

– Ikkalamizniyam, butun Venetsian ko‘chasiniyam...

– Kim ekan u mushtumzo‘r?!

– Otam!

– Otang?

– Otam.

– Nima gunoh qiluvding? – deya uning shishib ketgan chakkasiga avaylab qo‘limni tekkizdim.

– Sababi bor-da...

– Nima ish qilib qo‘yding?

– Uch kundan keyin Suxumiga Gretsiyadan paroxod keladi. Bu yerlik greklar Elladaga qaytishyapti. Otam ham...

Ellada – Yunonistonning tarixiy nomi, gruzinchada “Hellados” bo‘ladi.

– Xo‘sh, nima qipti?

– Ketmoqchi emasman... Otamning gapiga qaraganda, bizning Vatanimiz, ona tuprog‘imiz o‘sha yerda... Bizni ajdodlar ruhi chaqirayotganmish, bu nidoga quloq solish shart emish...

– Nega birga ketmoqchimassan? – deb so‘radim astoydil taajjublanib.

Yangulidan ancha vaqtgacha sado chiqmadi. Nuqul eshagining qulog‘ini silardi. Silab turganida quloq kaftiga yotar, ammo qo‘yib yubordi deguncha, xuddi suhbatimizni eshitolmay qolishdan qo‘rqqanday, darrov yana dikkayib olar edi.

– Qandoq tushuntirsamikin... – deya gap boshladi u nihoyat. – Onam yo‘q, hatto eslolmayman ham. Otam uzzukun tomorqada yoki tirikchilik tashvishida... Men ko‘chada, Venetsian ko‘chasida katta bo‘ldim... Mening Vatanim, mening Elladam bu – Suxumi, ko‘cha, Chalbash; bu – Koka, Petya, Kurlika, Fema, Qora dengiz, ko‘prik... – U bir yutinib olib, davom etdi: – Bu – Mida... qolaversa, sen...

Uzzukun – kun bo‘yi.

Midaning ismini mening oldimda Yanguli birinchi marta tilga olayotgan edi. Ammo men Mida – bir abxaz kishiga turmushga chiqqan grek ayolining qizi ekanini, Suxumida undan go‘zal qiz yo‘qligini, Yanguli uni yaxshi ko‘rishini bilardim.

– Tushundingmi endi?

A’zoyi badanim jimirlashib ketdi. Bunaqa so‘zlarni umrimda birinchi marta eshitayotgan edim.

– Bu nima bo‘lmasa? – Men Yangulining ko‘ksidagi yozuvni baland ovozda o‘qidim:

– **H E L L A D O S.**

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 26 10/10/24 17:23

– Bu – naqsh, Jamol. Vatan – ichkariroqda, naq yurakning o‘zida! – Yanguli qo‘lini ko‘ksiga qo‘ydi.

O‘pkam to‘lib, tomog‘imga achchiq bir narsa qadaldi, unga yana bir nimalar demoqchi edim-u, ammo Yanguli eshagini no‘xtasidan yetaklab, hovlidan chiqib ketdi.

No‘xta – ot, eshak kabi ulovlarni bog‘lash, yetaklash, haydash uchun boshiga solinadigan abzal.

Oradan uch kun o‘tgach, erta tongda hovlimizga eshagini yetaklab Yanguli yana kirib keldi.

– Otam hamma narsani sotdi: sigirniyam, uyniyam, boshqa lash-lushlarniyam. Eshakni hech kim olmayapti. Bilaman, sizlar uyda eshak saqlamaysizlar, urf-odatinglarga to‘g‘ri kelmaydi. Lekin chakki qilasizlar. Bundan beozor jonivor yo‘q dunyoda – mehnatkash, beminnat dastyor... Nima qilaman buni endi? Greklarning hammasi ketyapti... Ko‘chaga haydavorolmayman-ku... Qo‘rqma, bunga parvarishning keragi yo‘q. Bir tutam xashak bo‘lsa kifoya... – Yanguli tutilib-tutilib gapirar, to‘xtovsiz eshakning bo‘ynini silar edi.

– Sen-chi? Sen ham ketyapsanmi?

– Ketyapman... Eshakni opqolasanmi?

– Bo‘pti!

– Lekin haydavorma!

– Yo‘q, yo‘q!

– Nina Ivanovnaga ham aytib qo‘y, haydamasin!

– Albatta aytaman.

– Koka yordamlashadi... Eshakka ko‘p narsa kerak emas. Bir tutam xashak...

– Tashvishlanma, Yanguli.

– Ismi Apollon.

– Bilaman.

– Avaylaysanmi?

– Xotirjam bo‘l.

– Mayli, men ketdim... Paroxod kechqurun jo‘naydi...

– Bora qol...

– Xayr, Jamol!

– Kechqurun portga chiqaman, Yanguli!

Biz quchoqlashdik. Yanguli ancha vaqtgacha meni bag‘ridan bo‘shatmadi. Keyin shartta burilib, go‘yo allaqanday mudhish va yovuz narsadan qochganday, chopib chiqib ketdi...

Kechqurun portga butun Suxumi ko‘chib chiqdi.

Hamma yoq gulga ko‘milgan, orkestr jaranglar, odamlar qo‘shiq aytib, raqsga tushishar edi. Vag‘ir-vug‘ur orasidan “rahmat”, “xayr”, “omon bo‘linglar” degan so‘zlar quloqqa chalinar, ammo ko‘zyoshlar undan ham bisyor edi.

Suxumiliklar o‘zlari bilan et-tirnoq bo‘lib ketgan qadrdonlari – greklar bilan xayrlashishardi. Greklar allaqachon nuqraday oppoq “Poseydon” kemasiga chiqib olishgan, o‘sha yerdan turib qo‘l silkishar, grekcha, ruscha, gruzincha, armancha lafzda bir nimalar deb qichqirishar edi.

Nuqra – kumush.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 27 10/10/24 17:23

Men bolalarga qo‘shilib, sohildagi panjara devorga qapishgancha nigohim bilan Yangulini izlay boshladim. Va uni topdim. Egnida o‘sha o‘zi yoqtiradigan oldi ochiq qora satin ko‘ylak.

– Yanguli, Yanguli! – deya qiyqirishga tushdim qo‘l silkitib. Yanguli kuzatuvchilarga uzoq, juda uzoq razm soldi va birdan meni ko‘rib qoldi. Ikkala qo‘lini baland ko‘tarib, nido berdi:

– Jamol, ego agapo imana su!

U grekcha nimadir deb baqirdi-yu, ammo menga qo‘shiq aytganday tuyuldi. Tag‘in shu narsani sezdimki, nazarimda, kemadan qochib ketmasin debmi, otasi uni bilagidan mahkam ushlab turardi. Yana uning qo‘shig‘ini eshitishga, yana unga mo‘ltirab turishga bardoshim yetmadi. Kemaga ters o‘girildim-da, yig‘lagancha uyga jo‘nadim.

Oradan bir kun o‘tib, Kelasuri daryosining quyilish joyida dengiz to‘lqinlari bir bolaning jasadini sohilga chiqarib tashlabdi. To‘g‘rirog‘i, uni keksa baliqchilar suvdan tortib olib, qumga yotqizishibdi. So‘ng murdaning kimligini aniqlash uchun shu atrofda o‘ynab yurgan bolalarni chaqirishibdi.

Marhumning basharasi shu qadar dabdala bo‘lib ketgan ekanki, uni hech kim tanimabdi.

Uni men tanidim. Chap to‘shining ustidagi “Hellados” degan sehrli yozuvni ko‘rgandan keyin tanidim.

Nafasimni ichimga yutgancha sohildan, so‘ng temiryo‘l bo‘ylab, keyin Venetsian ko‘chasidan to‘xtovsiz yugurib, telbalarcha uyga otilib kirdim.

– Ha, nima bo‘ldi?!! – xolamning kapalagi uchib ketdi.

– Nina xola... Yanguli qaytib keldi...

So‘ng xolamning oldida cho‘kkalab, oyoqlarini quchoqlagancha ho‘ngrab yig‘lab yubordim...

Nizom Komil tarjimasi

Keling, suhbatlashamiz

1. Sizningcha, Jamol **“yashash uchun kurash davri”**da ikki marta Yangulidan kaltak yesa ham, nega unga bo‘ysunib, to‘dasiga qo‘shilib ketmadi? Fikrlaringizni asoslang.
2. Yanguli to‘dasi oldida qilgan **“tarixiy nutq”**ida Kokani *“vatan va qabila xoini, mishiqi”* deb ta’riflashining sabablari haqida fikr bildiring.
3. Jangga o‘zi chorlagan bo‘lsa-da, Jamol nega tarsaki yegach ham, hujumga o‘tmadi deb o‘ylaysiz?
4. Shapaloq yeb, jang maydonini tark etayotgan Jamolni mazax qilgan Petyaga Yanguli nega tarsaki tushirdi deb o‘ylaysiz? Bu orqali Yanguli shaxsiga baho bering.
5. Yanguli ketish oldidan qadrdon eshagini nega eski do‘stlariga emas, aynan Jamolga qoldirib ketdi?

Uyga vazifa

Quyidagi savolga javob yozing.

O‘ylab ko‘ring, nega Yanguli Kokadan Jamolning onasi haqida surishtirgan bo‘lishi mumkin? Agar surishtirmaganda yoki Koka unga haqiqatni aytmaganda voqealar, sizningcha, qanday rivojlangan bo‘lardi?

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 28 10/10/24 17:23

Mutolaadan so‘ng...



Keling, suhbatlashamiz

1. Nega bolalar o‘rtasida bir-biriga laqab qo‘yish ko‘p uchraydi deb o‘ylaysiz? Bu yaxshi odatmi? Fikringizni asoslang.
2. So‘kinib gapirishga munosabatingizni bildiring. Nega Koka Jamolni onadan so‘kishga undadi? Jamol nega o‘zi xohlamasa-da, Koka o‘rgatganidek takrorladi?
3. Yanguli bezori, tarbiya ko‘rmagan bo‘lsa ham, pok qalb egasi ekani asarning qaysi o‘rinlarida ko‘proq namoyon bo‘lgan? Javobingizni asoslang.
4. Yangulining ko‘ksidagi yozuv haqida bilgach, Jamolning holatiga diqqat qiling: *“O‘pkam to‘lib, tomog‘imga achchiq bir narsa qadaldi, unga yana bir nimalar demoqchi edim-u, ammo Yanguli eshagini no‘xtasidan yetaklab, hovlidan chiqib ketdi…”* Sizningcha, Jamol nima demoqchi bo‘lgan? Taxminingizni asoslashga urining.



Topshiriq

1. Hikoyani o‘qish davomida asar qahramonlariga xos qanday fazilat va illatlarni bilib oldingiz? Quyidagi jadvalni daftaringizda to‘ldiring.

Asar qahramonlari	Fazilatlari	Illatlari
* * *	* * *	* * *

2. Qaysi sabablar Jamol va Yangulining yaqinlashishiga turtki berdi? Quyidagi jadvalni daftaringizda to‘ldiring.


1-sabab:	* * *
2-sabab:	* * *
3-sabab:	* * *



Uyga vazifa

Vatanni Yanguli qanday tushunadi? Siz-chi? Hikoya matni asosida **“Vatan ichkarida, naq yurakning o‘zida”** mavzusida istagan yo‘nalishda ijodiy ish tayyorlang. Bunda oila a’zolaringizdan yordam olishingiz mumkin.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 29 10/10/24 17:23



Tanishing: ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR

Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yil 14-fevralda Andijonda tug‘ilgan. Farg‘ona viloyatining hokimi bo‘lgan otasi Umarshayx Mirzoning kutilmaganda vafot etishi uning taxtga erta chiqishiga sabab bo‘lgan. Bobur bu haqda “Boburnoma”da bunday yozadi: *“Seshanba kuni, ramazon oyining beshinchisida, sakkiz yuz to‘qson to‘qqizinchi hijriy yili Farg‘ona viloyatiga o‘n ikki yoshda podshoh bo‘ldim”.*

Yoshligidan shijoatliligi va dovyurakligi sabab “Bobur” (yo‘lbars) laqabini olgan. Saltanat uchun kurashlar natijasida yosh Bobur vatanini tark etishga majbur bo‘ladi. Ammo uzoq yillik sargardonlik, jang-u jadallardan so‘ng Hindistonning katta qismini egallashga erishadi hamda Boburiylar saltanatiga asos soladi.

Boburning devonlaridan tashqari “Boburnoma” asari ham juda mashhur va qimmatli manba bo‘lib, dunyoning ko‘plab tillariga tarjima qilingan.

Zahiriddin Muhammad Bobur 1530-yilning 26-dekabrida Agrada vafot etgan. Keyinroq uning xoki, vasiyatiga muvofiq, Kobulga ko‘chiriladi.

Tavsiya

Kattalar yordamida “Xalq yuragi” turkumida ishlangan “Zahiriddin Muhammad Bobur. Yo‘lbars izidan” hujjatli filmini topib, tomosha qiling.

Manba: O‘zbekiston kinematografiya agentligi, 2021.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 30 10/10/24 17:23

Mutolaadan oldin...

Bobur ijodida ruboiy janri muhim o‘rin tutadi. Shoir ruboiylarining aksariyatida hasbi holi (boshidan o‘tgan voqealar)ni, ko‘nglidan kechirgan his-tuyg‘ularini o‘quvchiga lo‘nda, mazmunli va ta’sirli tarzda yetkazishga erishgan. Quyida bir nechta ruboiylarni o‘qib, tahlil qilamiz.



Bilib oling

Ruboiy arabchada *“to‘rtlik”* ma’nosiga ega. To‘rt misradan iborat bo‘lgan kichik she’riy janr. Ko‘pincha birinchi, ikkinchi, to‘rtinchi satrlari qofiyalanib (a-a-b-a shaklida) keladi. Ba’zan to‘rt satri ham o‘zaro qofiyalanishi (a-a-a-a) mumkin.

Qofiya – misra oxiridagi ohangdosh so‘z. Radif – misra oxirida, qofiyadan keyin takrorlanuvchi so‘z. Quyidagi birinchi ruboiyning ko‘k rangda berilgan so‘zlari qofiya, qizil rangdagilari esa radifdir.

Zavqli mutolaa

Ruboiylar

1.

Yod etmas emish kishini g‘urbatta kishi,
Shod etmas emish ko‘ngulni mehnatta kishi.
Ko‘nglum bu g‘aribliqda shod o‘lmadi, oh,
G‘urbatta sevunmas ermish, albatta, kishi.

G‘urbat – musofirlik, o‘z vatanidan uzoqda qolish.
Mehnat – mashaqqat.
G‘aribliq – musofirlik.



Keling, suhbatlashamiz

1. Musofirlik nima? Siz ota-onangizdan, uyingizdan ma’lum muddat uzoqda yashaganmisiz? Shunday paytlarda ko‘nglingizdan qanday tuyg‘ular kechgan?
2. Ruboiyda ishlatilgan “mehnat” so‘zi bugun qanday ma’noda qo‘llanadi?
3. Boburning “*G‘urbatta sevunmas ermish, albatta, kishi*” tarzidagi xulosasiga diqqat qiling. Siz bunga qo‘shilasizmi yoki boshqacharoq fikrdamisiz? Fikringizni asoslashga urinib ko‘ring.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 31 10/10/24 17:23

2.

Tole yo‘qi jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi,
Har ishniki ayladim – xatolig‘ bo‘ldi.
O‘z yerni qo‘yib, Hind sori yuzlandim,
Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig‘ bo‘ldi?..

Tole – baxt.
Sori – sari, tomon.

Keling, suhbatlashamiz

1. Bobur *xatolig‘* deganda nimalarni nazarda tutgan bo‘lishi mumkin?
2. *“Yuz qarolig‘i”* iborasini qanday holatlar uchun ishlatish mumkin?
3. Boburning ruboiydagi iqrorlari sizda qanday taassurot qoldirdi? Nima deb o‘ylaysiz, Boburdek buyuk shoh va shoir o‘z xatolarini bu qadar ochiq e’tirof etishi uning shaxsiga xos qanday fazilatdan darak beradi?

3.

Ko‘pdin berikim, yor-u diyorim yo‘qtur,
Bir lahza-yu bir nafas qarorim yo‘qtur.
Keldim bu sori o‘z ixtiyorim birla,
Lekin borurimda ixtiyorim yo‘qtur.

Keling, suhbatlashamiz

1. Boburning iztirobiga sabab bo‘lgan tuyg‘ular haqida ruboiyning 1-, 2- va 4-misralariga tayanib fikr bildiring.
2. Butun boshli sulolaga va katta saltanatga asos solgan Bobur o‘zini *“yor-u diyori yo‘q”* deb hisoblashining sabablarini ayting. Sizning *“yor-u diyor”ingiz* kimlar va qayer?
3. "O‘z ixtiyori" bilan o‘zga yurtlarga borgan Bobur ortiga qaytishda nega "ixtiyorim yo‘qtur" deb afsuslanyapti? Buning sabablarini aniqlashga urining.

Uyga vazifa

Yuqorida berilgan ruboiylardan birini tanlang va o‘z so‘zlaringiz bilan sharhlang.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 32 10/10/24 17:23

Tadqiq qilamiz

Oldingi darslarda o‘rganilgan ruboiylar bo‘yicha quyidagi topshiriqlarni daftarda bajaring.

1. Ruboiylarning har biriga sarlavha toping. Nima uchun shunday sarlavha tanlaganingizni qisqacha izohlang.

T/r	Ruboiylar	Men tanlagan sarlavha	Izoh
1.	“Yod etmas emish kishini…”	…	Chunki …
2.	“Tole yo‘qi jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi…”	…	Chunki …
3.	“Ko‘pdin berikim, yor-u diyorim yo‘qtur…”	…	Chunki …

2. a) Yuqoridagi uch ruboiyning mazmunida quyidagi holatlarning qaysilari borligini aniqlang.

shodonlik	**baxtsizlik**	**ikkilanish**	**majburlik**
mag‘rurlik	**toqatsizlik**	**tavakkalchilik**	**tushkunlik**
aybdorlik	**umidsizlik**	**omadsizlik**	**yolg‘izlik**

b) Yuqoridagi holatlar qaysi ruboiy mazmunida uchrashini yozing.
“Yod etmas emish kishini…” ruboiysida _____, _____, _____ holatlari bor.
“Tole yo‘qi jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi…” ruboiysida _____, _____, _____ holatlari bor.
“Ko‘pdin berikim, yor-u diyorim yo‘qtur…” ruboiysida _____, _____, _____ holatlari bor.

Uyga vazifa

Quyidagi 4-, 5-, 6-ruboiylarni o‘qing, savollarga javob berishga tayyorlanib keling.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 33 10/10/24 17:23

Zavqli mutolaa

4.

Har kimki vafo qilsa – vafo topqusidur!
Har kimki jafo qilsa – jafo topqusidur!
Yaxshi kishi ko‘rmagay yomonlik hargiz,
Har kimki yomon bo‘lsa – jazo topqusidur!



Keling, suhbatlashamiz

1. *“Vafo”, “sadoqat”* so‘zlarini qanday tushunasiz? Ularni izohlang.
2. Insonni nimalarga ko‘ra yaxshi yoki yomon deb baholash mumkin?
3. Siz Boburning ruboiydagi qaysi xulosalariga qo‘shilasiz? Nima uchun?
4. Yaxshilikning mukofoti qanday bo‘ladi? Siz ham shu tarzda mukofotlanganmisiz?

5.

Ko‘ngli tilagan murodig‘a yetsa kishi,
Yo borcha murodlarni tark etsa kishi.
Bu ikki ish muyassar o‘lmasa olamda,
Boshini olib bir sorig‘a ketsa kishi.

Murod – istak, maqsad.



Keling, suhbatlashamiz

1. Inson barcha orzu-murodlariga yetishishi mumkinmi? Buning uchun nimalar qilish kerak deb o‘ylaysiz? Orzu, umid va maqsadning bir-biridan farqi bor deb hisoblasangiz, ularni izohlab bering.
2. Ruboiyning to‘rtinchi misrasida *“bu ikki ish”* jumlasi ishlatilgan. Bu ikki ish nimalar? Fikringizni dalillang.
3. *“Boshini olib ketmoq”* iborasini sharhlang. Shoirning shunday xulosaga kelishi sabablari haqida o‘ylab ko‘ring. U chiqargan xulosaga qo‘shilasizmi? Fikringizni asoslang.

6.

Beqaydmen-u xarobi siym ermasmen,
Ham mol yig‘ishtirur laim ermasmen.
Kobulda iqomat etti Bobur, dersiz,
Andoq demangizlarkim, muqim ermasmen.

Qayd – kishan.
Beqayd – kishansiz, erkin.
Siym – oltin, kumush.
Laim – gado.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 34 10/10/24 17:23

Keling, suhbatlashamiz

1. Qaysi misralarda Bobur siz ertaklarda o‘qigan, filmlarda ko‘rgan ochko‘z, talonchi shohlarga o‘xshamasligi yaqqol namoyon bo‘lgan? Fikringizni asoslang.
2. Shoh Boburning “beqayd”ligini qanday tushundingiz? Izohlang.
3. Ruboiydagi murojaat kimga qaratilgan deb o‘ylaysiz? Fikringizni dalillashga urining.

Uyga vazifa

Ijodiy ish

Quyidagi miniatyura asarlaridan birini tanlang. Miniatyura syujeti, kishilarning nima o‘yda ekaniga, ular kiygan kiyimlar, surat ranglari va boshqa detallarga ham diqqat qiling. Shundan so‘ng tanlab olingan suratni sharhlovchi 120–150 so‘zli hikoya yozing. Hikoyangizda monolog, dialoglardan ham foydalaning.

A	B
	

Muallif: Xurshid Nazirov

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 35 10/10/24 17:23



Tanishing: ERKIN VOHIDOV

O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov 1936-yili o‘qituvchi oilasida dunyoga kelgan. Maktabdagi ijodiy muhit, tog‘asining uyidagi adabiy suhbatlar, she’riyat to‘garaklari uni adabiyotga oshno qildi, buyuk shoir bo‘lib yetishishiga turtki bo‘ldi.

Shoir o‘zining bolalik yillari haqida shunday yozadi: *“Tol novdasidan yasab olgan “toychog‘im”ni minib bilqillagan issiq tuproq ko‘chada chang ko‘tarib chopib yurganlarimni eslayman. Otam frontda ekanida onam qishloq fuqarolar kengashida kotiba vazifasida ishlar, qiyinchilik bilan kun kechirar edik. Jo‘xori poyasini shimib tilimni qonatganim, bolalarga qo‘shilib kunjara yeganim uchun onam yuzimga shapaloq urgani va o‘zi kechgacha yig‘laganini unutmayman. O‘ylab qarasam, bolalik xotiralarimning ko‘pchiligi she’rlarga, dostonlarga ko‘chgan ekan. “Nido”, “Quyosh maskani” poemalari, “Bolalik”, “Oqsoqol”, “Bolalik ekan-da…” she’rlari o‘sha murg‘ak tasavvur, ilk xotiralarning mevasi bo‘lgan”.*

Shoir Vatanimizning eng yuksak mukofoti – “O‘zbekiston Qahramoni” unvoni bilan taqdirlangan.

Erkin Vohidov 2016-yilda vafot etgan.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 36 10/10/24 17:23

Mutolaadan oldin...

- Oilaviy an’analar deganda nimani tushunasiz? Sizning oilangizda qanday o‘ziga xos odatlar bor?
- Siz uchun qadrli narsani olib qo‘yishsa, o‘zingizni qanday his qilasiz? Hayotingizda shunday holatlar bo‘lganmi?

Zavqli mutolaa

Tandir haqida ertak

Mo‘jaz hovli,
Pastgina devol,
Pastakkina tandiri bilan
Yashar edi kichkina bir chol
Kichkina bir kampiri bilan.
Yashardilar kamtar va halol,
Osoyishta taqdiri bilan.
Pichoq charxlar ermak uchun chol,
Kampiri band xamiri bilan.
Nafaqa bor,
Chol-kampir mamnun,
Daraxt ham bor – bir tup olucha.
Lekin shu tor hovlidan bir kun
O‘tar bo‘ldi kattakon ko‘cha.
Ular bu gap tarqagan kundan
Mung‘ayishib so‘lib qoldilar.
Bamisoli ini buzilgan
Musichadek bo‘lib qoldilar.
O‘z boshidan kechirgan bilar,
O‘ylab ko‘ring, osonmas axir,
Shu hovlida turgan edilar
Naqd oltmish yil chol bilan kampir.
Ular bunda ko‘rdi go‘shanga,
Ikki o‘g‘il boqdilar o‘ktam.
Kuzatdilar ikkovin jangga,
Qaytgani yo‘q ammo biri ham.
Mana,
Uy ham buzilar endi,
Tan berdilar yana taqdirga.
Faqat ular o‘rgangan edi
Parcha yerga, pastak tandirga.



44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 37 10/10/24 17:23

Tanishing: ERKIN VOHIDOV

Boshqarmaga qatnamadi chol,
Raysovetga yurmadi kampir.
Peshonada borini alhol
Yurt qatori ko‘rarmiz axir.
Ne qilardik,
Ko‘pga kelgan to‘y,
Nolish bizga yarashiq ishmas,
Tegar axir bizga ham bir uy,
Ko‘cha-ko‘yga haydab qo‘yishmas.
Shunday bo‘ldi,
Berdilar uy ham,
Ko‘chirdilar ko‘rsatib hurmat.
Biram yorug‘,
Ozoda, shinam,
Hammadan ham... birinchi qavat!
Kampir cholni chimchilab kulsa,
Xush keladi cholga qilig‘i.
Bir jo‘mrakdan sovuq suv kelsa,
Bir jo‘mrakdan kelar ilig‘i.
Oppoq vanna,
Gazxona... rohat,
Hatto po‘choq tashlashga paqir...
Hamma narsa joyida,
Faqat...
Faqat bunda yo‘q ekan tandir.
Busiz ular bir kun turolmas,
Tatimaydi bersa jahonni,
Chol qurmag‘ur og‘ziga olmas
Gaz o‘choqda pishirgan nonni.
Boshqarmaga arzga bordi chol,
Raysovetga qatnadi kampir.
“Qanday kechar tandirsiz ahvol,
Uy kerakmas bizga betandir”.
Boshqarmada yelka qisdilar,
Raysovetda bo‘ldilar hayron.
Jilkontorda shartta kesdilar:
“Yo‘q, bo‘lmaydi tandirga imkon”.
“Hech bir yerga qo‘ndirib bo‘lmas
Gap shu, – dedi JEKning rahbari. –
Hamma ruxsat bersa ham, ko‘nmas
O‘t o‘chirish tashkilotlari.

Boshda hech kim qilmagan xayol,
Proyektga qo‘shmagan axir...”
Sabablarni tushunmadi chol,
Dalillarga ko‘nmadi kampir.
Ikkovin ham tegdi tishiga
“Ammo”, “Lekin”, “Ha”, “Albatta”lar.
Xullas kalom, tandir ishiga
Aralashdi oxir kattalar.
Boshqarmada dedilar mumkin,
JEKdagilar topdilar tadbir.
Baland uyning yonida bir kun
Chol-kampirga qurdilar tandir.
Qo‘shnilar ham qarab turmadi,
Kim g‘isht tergan,
Kimdir qorgan loy...
Tushmadi ham JEKning hurmati,
Topildi ham tandirga mos joy.
Tandir bitdi
Va o‘sha-o‘sha
Tong yorishar chog‘ida har kun
Osmon bo‘yi tomlardan osha
Ko‘kka o‘rlar ingichka tutun.
O‘sha-o‘sha, bizga beshikdan
Tanish xush bo‘y taralar har yon.
Tongda har bir ochiq eshikdan
Rizqdek kirar bir juft issiq non.
Shunday yashar –
Sokin, bezavol
Pastakkina tandiri bilan
Katta uyda kichkina bir chol
Kichkina bir kampiri bilan.

Proyekt – loyiha.

Paqir – chelak.

Raysovet – xalq deputatlari tuman kengashining oldingi nomi.

Jilkontor (JEK) – ko‘p qavatli uylar holatini saqlash va nazorat qilish bilan shug‘ullanuvchi tashkilotning oldingi nomi.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 38 10/10/24 17:23

Tanishing: ERKIN VOHIDOV



Keling, suhbatlashamiz

1. Hovlisi buzilishini eshitgan chol va kampirning *“musichadek bo‘lib qolgani”*ni qanday tasavvur qildingiz? Insonga o‘z uyi nimasi bilan aziz deb o‘ylaysiz?
2. She’rdagi “Ko‘pga kelgan to‘y” jumlasini qanday tushundingiz? Bu bilan shoir nimaga ishora qilmoqda?
3. Chol va kampirning tandirga bunchalar mehr qo‘yganini qanday izohlaysiz?

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 39 10/10/24 17:23

4. Sizningcha, she’rda tandir nimaning ramzi sifatida qo‘llangan? Chol-kampirga tandir qurib berilishi jarayonida qanday o‘zbekona urf-odatlarga duch keldingiz?
5. She’rning boshlanishi va yakuniga diqqat qiling. Shoir nega “kichkina”, “pastakkina”, “katta”, “kichkinagina” so‘zlariga alohida urg‘u bergan deb o‘ylaysiz? Ushbu so‘zlar qahramonlarimiz hayoti bilan qanday bog‘langan?
6. Chol-kampirning fe’l-atvori, xatti-harakatlarini o‘z ota-onangiz, bobo va buvingiz bilan solishtiring. Nima deb o‘ylaysiz, ular o‘rtasida qanday o‘xshashlik bor?



Topshiriq

She’r mazmuniga oid quyida berilgan fikrlardan to‘g‘ri deb bilganlaringizni tanlang. Javoblaringizni misollar asosida izohlang.

- She’rda shoirning o‘zbek xalqi va milliy qadriyatlariga cheksiz mehri ifodalangan.
- Tandir chol va kampir uchun 60 yil yashagan hovlisidan ham azizroq ekaniga e’tibor qaratilgan.
- Shoir o‘zbeklarning hech qaysi bir xalqnikiga o‘xshamagan o‘ziga xos fazilatlarini topa olgan.
- Tandirda pishgan issiq nonning o‘rnini hech narsa bosa olmasligi ochib berilgan.
- O‘zaro yordam, xayrixohlik, hamjihatlik kabi insoniy fazilatlar o‘z aksini topgan.



Uyga vazifa

Asosiy mazmunini saqlagan holda "Tandir haqida ertak"ni nasriy shaklga keltirib yozing. Bu jarayondagi qiyinchiliklarni navbatdagi darsda ustozingiz bilan muhokama qiling.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 40 10/10/24 17:23

Mutolaadan oldin...

Aziz o‘quvchi, Erkin Vohidovning "Donishqishloq latifalari" turkumiga kiruvchi bir qancha hajviyalarini birgalikda maroq bilan mutolaa va tahlil qilamiz. Undan oldin esa quyidagi savollarga javob bering.

- Qanday hajviy asarlar o‘qigansiz? Ular sizda qanday taassurot qoldirgan?
- Nima deb o‘ylaysiz, kishi qachon kulgili vaziyatlarga tushib qoladi? Sizda shunday holat bo‘lganmi? Vaziyatdan chiqish uchun qanday yo‘l tutgansiz?

Zavqli mutolaa

Matmusaning tandiri

Matmusaga bir kuni
Xotini: “Hoy er, – dedi. –
Hammada bor, menga ham
Tandir qurib ber”, – dedi.

Pishiq edi Matmusa,
Boshga qo‘yib qo‘lini,
O‘ylab topdi eng arzon
Tandir qurmoq yo‘lini.

Dehqonchilik – somon, jun,
Loy qorishni biladi.
O‘zi tayyor qolip-ku,
Nega pul sarf qiladi?

Loyni qordi ishlatib
Zang ketmon-u paqirni.
So‘ng oftobga cho‘k tushib,
Bolalarni chaqirdi.

Qiyqirishib bolalar
Atrofida chopdilar.
Qorni, bo‘yni aralash
Loyshuvoqni yopdilar.

Bundoq tandir bo‘lmagan,
Yo‘qdir hech bir kitobda.
Tandirini Matmusa
Quritadi oftobda.

Qotgan sari tanda loy,
Har bir mo‘yi jimirlar.
Chig‘anoq qurt singari
Faqat boshi qimirlar.

Ko‘p qiynaldi Matmusa,
Mard emasmi – chidadi.
Tandir tayyor, endi mard
Undan qandoq chiqadi?



Loyshuvoq – loysuvoq.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 41 10/10/24 17:23

Tanishing: ERKIN VOHIDOV

Pilla yorar kapalak,
Qil sug‘rilar xamirdan.
Lek Matmusa chiqolmas
O‘zi qurgan tandirdan.

Yetar yetti qo‘shniga
Uning nola-xonishi.
Maslahatga yig‘ilar
Qishloq ahli donishi.

Kim der: – “Evoh, bechora”.
Kim der: – “Ko‘ring taqdirni”.
Bahs boshlandi – masala:
Butun olmoq tandirni.

Oxir dedi bosh hakam,
Chimirgancha qoshini:
– Bir chora bor: arralang
Matmusaning boshini.

“Mayli, – dedi Matmusa,
– Rozi bo‘lmay netayin.
Bilmadinglar qadrimni,
Hammang jinni, betayin.

Kessangizlar boshimni,
Men niyatga yetarman.
Boshim olib bu yerdan
Biror yoqqa ketarman”.



Keling, suhbatlashamiz

1. *“Chig‘anoq qurt singari Faqat boshi qimirlar”* misralaridagi holatni qanday tasavvur qildingiz?
2. She’rning oxirgi bandidagi mazmunni “bosh olib ketmoq” iborasi bilan qiyoslang. Ijodkorning so‘z qo‘llash mahoratini tahlil qiling.
3. Matmusaning *“qadrimni bilmadinglar”* tarzida zorlanishini qanday tushundingiz?
4. She’rda insonlardagi qaysi fe’l-atvor tanqid qilinmoqda? Shoirni aynan shu mavzuda yozishga nima majbur qilgan deb o‘ylaysiz?

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 42 10/10/24 17:23

Tanishing: ERKIN VOHIDOV

Tandir kiygan Matmusa

O‘zi tandir qurolmay,
Ko‘nib oxir taqdirga,
Shahar tomon yo‘l oldi
Matmusavoy tandirga.

Tandir bozor qizigan,
U tushgacha aylandi.
Va nihoyat bozorning
Zo‘r tandiri saylandi.

Chertsa, uch kun jaranglar,
Bir umrga yetadi.
Lekin uni qishloqqa
Qanday olib ketadi?

O‘ylab ko‘rsa, eshakka
Ortmoqning yo‘q chorasi.
Ortganda ham arqonlab
Tortmoqning yo‘q chorasi.

Ahli bozor yig‘ildi,
Qizib ketdi maslahat.
Barchada bir shu tashvish,
Hammada shu o‘y faqat.

Kengashildi, o‘ylandi,
Mindirildi oxiri
Eshagiga – Matmusa,
Matmusaga – tandiri.

U shod, bundoq tadbirni
Topmas eng zo‘r topqir ham.
O‘zi yayov qolmadi,
Zap o‘rnashdi tandir ham.

“Hayyo-hayt” deb yo‘l oldi
Donishqishloq tomonga.
Mana, tandir ichidan
Qarab borar osmonga.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 43 10/10/24 17:23

Tanishing: ERKIN VOHIDOV

Har qanchaki intilar,
Matmusa yo‘l ko‘rolmas.
Mening uyim qayda? – deb
Odamlardan so‘rolmas.

Ketib borar tavakkal,
Ko‘kka qarab: “Tangrim! – der, –
Meni qilma sharmanda,
Eshagimga aql ber”.

Bedapoya ko‘rganda
Eshak sho‘rlik netadi?
Qishloq qolib mag‘ribda,
Mashriq tomon ketadi.

Kun botar-u shom tushar,
Yulduz chiqar osmonga,
Hamon borar Matmusa,
Yetmas manzil-makonga.

Deydilarki, to bu dam
Yo‘lda emish Matmusa.
Boshi ham yo‘q, cheki yo‘q
Cho‘lda emish Matmusa.

Ayo do‘stlar, adashgan
Bir mo‘mindan kulmaylik.
Matmusadek o‘zimiz
Tandir kiygan bo‘lmaylik!



Mag‘rib – g‘arb.

Mashriq – sharq.

Tavsiya

TV yoki internet orqali “Donishqishloq hangomalari” multfilmini tomosha qiling.

Manba: O‘zbekfilm, 2013.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 44 10/10/24 17:23



Keling, suhbatlashamiz

1. Tandirni bozordan uyga olib ketish uchun topilgan chora sizda qanday fikr uyg‘otdi? Siz o‘sha yerda bo‘lganingizda Matmusaga qanday maslahat berardingiz?
2. Matmusa nega sharmanda bo‘lishdan hadiksirayapti?
3. Shoirning quyidagi nasihatiga munosabat bildiring.

   Ayo do‘stlar, adashgan
   Bir mo‘mindan kulmaylik.
   Matmusadek o‘zimiz
   Tandir kiygan bo‘lmaylik!
4. Matmusadan ham nimalarnidir o‘rganish mumkinmi? Shunday bo‘lsa, ularni sanang va izohlang.
5. Erkin Vohidovning *“Donishqishloq latifalari”ni o‘qib, hamma kuladi. Vaholanki, men ularni yig‘lab yozganman”* degan fikrini o‘ylab ko‘ring. Sizningcha, shoirni qanday masalalar qattiq o‘ylantirgan? Nega u bu asarlarni yig‘lab yozgan bo‘lishi mumkin?



Topshiriq

Yuqoridagi ikki hajviya asosida Matmusaga xos bir nechta xususiyatlarni tanlang va izohlang.

Ziqna	Sodda	Oilaparvar	Ilmsiz	Tejamkor	Uddaburon
* * *	* * *	* * *	* * *	* * *	* * *




Uyga vazifa

Quyidagi ikki topshiriqdan birini tanlang va bajaring.

1. Tasavvur qiling: siz ustozsiz, Matmusa esa sizning o‘quvchingiz. Unga nimalarni o‘rgatgan bo‘lardingiz? Shu haqda qisqacha yozib keling.
2. Tasavvur qiling: siz jurnalistsiz, Matmusadan intervyu olishingiz kerak. Unga qanday savollar bergan bo‘lardingiz? 5 ta savol tuzing.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 45 10/10/24 17:23



Tanishing: REDYARD KIPLING

Jahon bolalar adabiyotining yetuk namoyandasi, ingliz adibi Redyard Kipling 1865-yil 30-dekabrda Hindistonning Mumbay (oldingi nomi Bombey) shahrida tug‘ilgan. Bolaligining eng quvnoq davrlari turfa tabiatli Hindiston bag‘rida kechgan va bu uning ijodiy kamolotida muhim omil bo‘lib xizmat qilgan. Redyard Kipling o‘z xotiralarida yozishicha, 6 yoshida uni Angliyadagi xususiy maktabga berishadi. Yozuvchi maktabning juda qattiq tartibiga moslashishi qiyin kechadi. Unga faqat bitta narsa taskin-tasalli bera olar edi – chegarasiz xayollari. Ana o‘sha xayollari, o‘ylari kuni kelib qog‘ozlarga to‘kildi va dunyo yuzini ko‘rdi.

Asarlari uchun inglizlar orasida birinchi bo‘lib Nobel mukofotini qo‘lga kiritgan adibning changalzor o‘rmon (jungli) vahshiy hayvonlari orasida yashagan inson farzandi Maugli (qurbaqacha) sarguzashtlari haqida hikoya qiluvchi “Jungli kitobi”, “Jungli haqida ikkinchi kitob”, “Rikki-Tikki-Tavi” qissalari jahon bolalar va o‘smirlar adabiyotining eng sevimli namunalariga aylandi.

Bilib oling

Nobel mukofoti har yili chuqur ilmiy izlanishlar, adabiyot rivoji, xalqlar tinchligiga qo‘shilgan munosib hissa uchun beriladigan nufuzli xalqaro mukofotdir.

Mutolaadan oldin...

1. O‘rmon hayoti haqida ko‘rgan kino yoki multfilmlaringizni eslang. Ular sizga nimasi bilan yoqqan?
2. Yovvoyi hayvonlar hayoti bilan uy hayvonlarining hayotini taqqoslab ko‘rganmisiz? Ularning yashash tarzidagi o‘ziga xos xususiyatlarni sanab bering.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 46 10/10/24 17:23



Tanishing: REDYARD KIPLING

Zavqli mutolaa

Maugli

(qisqartirib olindi)

Mauglining birodarlari

I

Kechki soat yetti. Sion tog‘larida bo‘ladigan juda issiq oqshomlardan biri. Kunduzgi uyqudan uyg‘ongan Ota Bo‘ri qashinib olgach, uvushib qolgan panjalarini yozib kerishdi. Uyqusini o‘chirish uchun uzoq esnadi. Ona Bo‘ri bo‘lsa keng kulrang tumshug‘ini goh tipirlashib, goh chiyillashib uymalashayotgan to‘rtta bolasi ustiga qo‘ygancha mudrardi. Ko‘kda charaqlab turgan oy Bo‘rig‘orning og‘zini yoritib yuborgan.

– Uf, – dedi pishillab Ota Bo‘ri. – Yana ov qiladigan vaqt yetibdi.

Shu xayol bilan Ota Bo‘ri tog‘dan pastga endigina chopib tushmoqchi bo‘lib turgan ham ediki, ostonaga hurpaygan dumli pastakkina bir nimaning soyasi tushdi-yu, shikastalik bilan nolib ketdi:

– Ey Bo‘rilar sardori! Oving baroridan kelsin. Aziz bolalaringning tan-jonlari sog‘, oppoq tishlari o‘tkir va baquvvat bo‘lsin. Dunyoda bizdek ojiz-u notavon, och-yalang‘och bechoralar ham borligi dovyurak bo‘ri bolalarining yodidan aslo chiqmasin.

Bu xushomadgo‘y Taboqi degan chiyabo‘ri edi. Qishloqdagi axlat uyumlarini titkilab, bir parcha qatirma teri va hatto latta-puttalardan ham jirkanmay, tamaddi qilib kun kechiruvchi Taboqi duch kelgan kovakka tumshug‘ini suqar, yolg‘on-yashiq gaplar bilan g‘iybat tarqatib, to‘s-to‘polon, janjal qo‘zg‘ardi. Shu bois Hindiston bo‘rilari Taboqini yoqtirishmasdi. Shunday bo‘lsa-da, ular Taboqidan hayiqishardi. Negaki changalzor o‘rmonda yashovchi o‘zga hayvonlarga qaraganda Taboqi bot-bot quturar, shu paytlarda u o‘zini qo‘yarga joy

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 47 10/10/24 17:23

topmay, boshi og‘gan tarafga yugurar, duch kelgan hayvonga tashlanib, qopib olmoqchi bo‘lardi. Hatto yo‘lbars ham ushoqqina Taboqining quturganini sezib qolsa, o‘zini panaga olib qochardi. Axir vahshiy hayvonlar uchun quturish dardidan ham dahshatliroq ofat bormi? Odamlar tilida bu dard quturish deyilsa, hayvonlar uni divani deydilar va kasallik yuqishidan qo‘rqib, qirdan qirga qochadilar.



– Hay, mayli, ichkari kirib, o‘z ko‘zing bilan ko‘ra qol, – dedi ensasi qotib Ota Bo‘ri. – Biroq yegulik narsa yo‘q.

– Bo‘riga-ku topilmas, – dedi ming‘illab Taboqi, – ammo bizdek nochor-notavonlarga quruq suyak ham bo‘laveradi. Biz chiyabo‘rilarga ovqat tanlab, injiqlik qilishni kim qo‘yibdi deysan?

Taboqi shunday deb vaysagancha g‘orning ichkarisiga kirib, timirskilanib, chala tozalangan bug‘u suyagini topib oldi. Sevinganidan tirjayib yerga o‘tirdi-yu, suyakni qirsillatib g‘ajiy ketdi.

– Men faqirni siylabsan, martabang bundan ham ulug‘ bo‘lsin, – dedi lablarini yalab Taboqi. – Bolalaringiz xo‘pam ko‘rkam bo‘lishibdiki. Bay-bay-bay, hali yosh-u, biroq xuddi pahlavonning o‘zginasi-ya! Katta-katta ko‘zlaridan o‘t chaqnab turibdi-ya, ofarin, ofarin! Ey xomkalla, esim bo‘lsa, podshozodalarning polvonligi bolaligidayoq ma’lum bo‘ladi degan naqlni unutarmidim?

Bolalarni ota-ona ko‘z oldida maqtash falokat keltirishini Taboqi boshqalardan ko‘ra yaxshiroq bilsa-da, jo‘rttaga o‘zini go‘llikka solib, Ona va Ota Bo‘riga zimdan nazar tashladi. Ularning xijolat chekkanlarini ko‘rib, ich-ichidan quvondi. Ota-onani tashvishlantirib qo‘ygan Taboqi biroz jimlikdan keyin zaharxanda ohangda dedi:

– Hali yangi gapdan xabaringiz yo‘qdir. Katta yo‘lbars – Sherxon ov qilish joyini o‘zgartiribdilar. U janob bundan buyon bir oy mobaynida shu tog‘larda ov qilmoqchilar. Xoh ishoning, xoh ishonmang, bu gapni Sherxonning o‘z og‘izlaridan eshitdim.

Sherxon Bo‘rig‘ordan yigirma milcha naridagi Vayngang daryosi bo‘yida yashovchi yo‘lbars edi.

Mil – masofa o‘lchov birligi.

– Bunday qilishga haqqi yo‘q! – dedi g‘azab bilan Ota Bo‘ri. – Changalzor qonuniga ko‘ra, bir oy burun boshqalarni ogohlantirishi, so‘ngra ov joyini o‘zgartirishi mumkin. U o‘n milya atrofdagi parranda-yu darrandalarni cho‘chitib yuborishi turgan gap. Axir bundan buyon men... men ikki bo‘rining ovini qilishim kerak-ku!

– Onam rahmatli bekorga uni langri (oqsoq) deb atamagan ekanlar, – dedi sipolik bilan Ona Bo‘ri. – U bir oyog‘i oqsoq bo‘lib tug‘ilgan. Shuning uchun uy hayvonlarini ov qilishdan boshqasiga uning qurbi yetmaydi. Vayngang bo‘yidagi qishloq odamlarining uni ko‘rgani ko‘zi, otgani o‘qi yo‘q. Endilikda bu yerga ham kelib qolsa bormi, boshimizga bitgan balo, jonimizga bitgan jazo bo‘ladi u go‘rso‘xta. O‘rmonda uning iziga tushgan odamlar atrofdagi dov-daraxtlarni yondiradilar. Sho‘rimiz quriydigan bo‘ldi. Go‘daklar bilan duch kelgan

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 48 10/10/24 17:23

tomonga qochishdan o‘zga ilojimiz qolmaydi. Ha, bu “himmati” uchun Sherxonga har qancha “minnatdorlik” bildirsak, arziydi.

– Sizning “minnatdor”ligingizni u zotga aynan yetkazsam, ma’qul bo‘lar-a? – dedi ustomonlik bilan Taboqi.

– Yo‘qol! – deya irilladi Ota Bo‘ri. – Yo‘qol, ko‘zimga ko‘rinma! Xo‘jang bilan qo‘shmozor bo‘l. Badbaxt, keltirgan shumxabaringning o‘zi ham bugunga yetib ortadi.



Vayngang daryosining hozirgi ko‘rinishi

– Hali ham ketaman, – dedi dashnomlarni sirtiga yuqtirmay Taboqi. – Yo tavba, nega endi elburutdan bu xabarni sizlarga yetkazay deb o‘zimni o‘zim koyitib yuribman-a? Hademay pastlikdagi chakalakzordan Sherxonning ovozini eshitib qolarsiz.

Sirtiga yuqtirmaslik – ko‘ngilga olmaslik, beparvo qarash ma’nolarini anglatadi.

Elburutdan – hammadan oldin, birinchi bo‘lib.

Shu on Ota Bo‘rining quloqlari ding bo‘lib ketdi. Pastlikdagi kichik daryoga borib tutashuvchi vodiydan ovi o‘ngidan kelmagan yo‘lbarsning alamzada, qisqa-qisqa na’rasi eshitildi. Yo‘lbars ovi yurishmagani changalzordagilarga ma’lum ekanini bilar, lekin bundan or qilmasdi.

– Ey xomkalla, – dedi Ota Bo‘ri. – Tungi ovni ham shunday boshlaydilarmi? Nahotki bizning bug‘ularni Vayngang daryosi bo‘yidagi bo‘rdoqi qo‘toslarga o‘xshaydi deb o‘ylasa?

– Sekinroq! Hozir u qo‘tosni ham, bug‘uni ham izida emas, balki odamlarni ovlash payida yuribdi, – dedi Ona Bo‘ri.

Chor atrofdan aks sado berayotgan na’ra bo‘g‘iq irillashga aylandi. Bu daraxt kesuvchi yoki daydib yuruvchi lo‘lilarni ham dahshatga solib, esankiratib, yo‘lbars panjasiga duchor qiluvchi bo‘g‘iq na’ra edi.

– Odam payida deysanmi? – deb so‘radi oppoq tishlarini tirjaytirib Ota Bo‘ri. – Axir unga hovuzlardagi qo‘ng‘iz va qurbaqalar kamlik qilibdimiki, yana bizning elimizda odam go‘shtini qo‘msab yursa?! Ma’lum urf-odatlarga asoslangan changalzor qonuniga ko‘ra, hayvonlar bolalarini ovga o‘rgatganlaridagina odam o‘ldirishga ijozat beriladi. Lekin shunda ham hayvonlar podasi yoki galasi ov qilinmaydigan joyda odam zotini o‘lja qilishga ruxsat beriladi. Odam ovlangandan keyin sal o‘tmasdanoq bu yerlarda qanchadan qancha qurol-yarog‘li, fil mingan oq tanlilar, qo‘llarida mis qo‘ng‘iroq ushlagan va o‘q-yoylari shay qilib qo‘yilgan hindlar paydo bo‘ladi. U holda changalzordagilarning holiga voy. Hayvonlar orasidagi rivoyatga ko‘ra, odam barcha jonli maxluqlar orasida eng nozik va ojizi bo‘lgani tufayli unga tajovuz qilish haqiqiy ovchining sha’niga to‘g‘ri kelmaydi. Yana o‘sha rivoyatlarga ko‘ra, shubhasiz, bu haq gap bo‘lsa kerak, odamxo‘rlarning vaqt o‘tishi bilan tuki to‘kilib, barcha tishlari tushib ketar emish.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 49 10/10/24 17:23

Irillash tobora kuchayib, nihoyat, sapchishga hozirlangan yo‘lbarsning gulduros na’rasiga aylandi. Oradan sal o‘tmay, yo‘lbarsning uvullashidan ko‘ra Sherxonning ingrashiga o‘xshash ovoz eshitildi.

– U o‘ljasini tutolmadi, – dedi Ona Bo‘ri. – Nega bunday bo‘ldi?

Bo‘rig‘ordan bir necha qadam nariga chopib borgan Ota Bo‘ri chakalakzor orasida to‘lg‘anayotgan Sherxonning alamzada irillashini eshitib qoldi.

– U xomkalla panjalarini kuydirib olibdi. O‘tinchining gulxanida nima bor edi senga, ahmoq? – dedi po‘ng‘illab Ota Bo‘ri.

– Taboqi ham u bilan birga. Kimdir tog‘ga o‘rmalab chiqyapti, – dedi shivirlab Ona Bo‘ri. – Tayyorlanib tur!



Chakalakzordagi butalar astagina shitirlagan ham ediki, Ota Bo‘ri orqa oyoqlariga tiralib, sapchishga hozirlandi. Agar shu holatni kuzatganingizda bormi, dunyodagi eng hayratli manzaraning guvohi bo‘lardingiz: Ota Bo‘ri nimaning ustiga sapchiyotganini ham bilmay, to‘satdan olg‘a tashlandi-yu, to‘rt-besh fut balandlikdan yana sapchigan joyiga qaytib o‘tirib qoldi.

– Odam! – deya irilladi u. – Qara! Odam bolasi!

Ularning shunday ro‘parasida pastakkina butani ushlab, qorachadan kelgan, endigina atak-chechak qilishni o‘rgangan, qip-yalang‘och, jajjigina, do‘mboqqina bolakay iljaygancha turardi. Bo‘ri uyasida, yana tun payti bunday jajji bolakayning paydo bo‘lishi hech qachon ko‘rilmagan hodisa edi. U Ota Bo‘rining ko‘zlariga tikilib qaradi va kulib yubordi.

– Odam bolasi shunaqa bo‘ladimi? – deb so‘radi Ona Bo‘ri. – Ularni hech ko‘rmagan edim. Qani, bu yoqqa olib kel-chi.

Bolalarini tishlab olib yurishga odatlangan, zarur bo‘lib qolganda tuxumni ham darz ketkazmay tishlay oladigan bo‘ri go‘dakning yelkasidan avaylab tishlab, bolalari orasiga keltirib qo‘ydi. Go‘dakning yelkasida tishning izi ham qolmadi.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 50 10/10/24 17:23

– Voy kichkinaligini! Qip-yalang‘och-u, hech narsadan cho‘chimaydi-ya, – dedi mehribonlik bilan Ona Bo‘ri (bolakay esa bo‘ri bolalari orasiga suqilib, issiqqina joyga talpinardi). – Voy tavba! U bolalarimga qo‘shilib emyapti! Ana odam bolasi qanday bo‘lar ekan?! Bo‘ri bolalari orasida odam bolasi ham bo‘lishi qaysi bir urg‘ochi bo‘riga nasib bo‘lgan axir!

– Men bunday hodisa qadimda bo‘lganini eshitganman. Ammo bizning zamonda va ayniqsa, to‘damizda shunday hodisa bo‘lganini eslolmayman, – dedi Ota Bo‘ri. – Hali sochi ham yo‘q. Uni bir turtib o‘ldirib qo‘yish hech gap emas. Qara, qo‘rqmay tikilib turibdi-ya!

G‘or og‘ziga tushib turgan oy nurini allanarsa to‘sib qo‘ydi. Sherxonning bahaybat boshi bilan yelkasi uyani to‘sdi. Uning orqasidan Taboqining:

– Janob, janob! Bola xuddi shu uyaga kirib ketdi, – deya chiyillagan ovozi eshitildi.

– Janob Sherxonning qadamlariga hasanot! – dedi ko‘zlaridan g‘azab chaqnab turgan Ota Bo‘ri. – Qanday xizmat bilan keldilar?

– O‘ljamni beringlar! Odam bolasi shu yerga kirib ketdi, – dedi Sherxon. – Bolaning ota-onasi qochib qoldi. Hoziroq uni menga berasanlar.

Ota Bo‘ri aytganidek, o‘tinchilar gulxaniga sapchib, panjalarini kuydirib olgan Sherxon endi alamiga chidamay quturayotgandi. Ammo g‘orga kirish yo‘li yo‘lbarsga torlik qildi. Ota Bo‘ri buni juda yaxshi bilardi. Hatto u hozir turgan yerining o‘zidayoq na yelkasini, na panjalarini qimirlata olardi. Odam bochka ichida urisholmaganidek Sherxon ham bu tor-tanqis g‘orda o‘lja talasholmasdi.

– Bo‘rilar – erkin qabila, – dedi Ota Bo‘ri. – Ular har bir uchragan ola-bula odamxo‘rlarga emas, balki To‘da yetakchisiga itoat qiladilar. Odam bolasi bizning ixtiyorimizda. Xohlasak, o‘zimiz ham o‘ldiraveramiz.

– “Xohlasak, xohlasak!” Nima qilishlaring bilan ishim yo‘q. O‘zim o‘ldirgan qo‘tos ruhiga qasam bo‘lsinki, o‘ljamni olish uchun bu sassiq uyalaring og‘zida yana qancha vaqt tumshug‘imni suqib turishga majbur qilasizlar? Buni men – Sherxon aytyapman!

Yo‘lbarsning na’rasi g‘or ichini gulduros sadoga to‘ldirib yubordi. Ona Bo‘ri emizib turgan bolalarini o‘zidan chetlatib, olg‘a tashlandi. Uning zulmat ichida ko‘kimtir oyga o‘xshash ko‘zlari Sherxonning o‘t chaqnab turgan ko‘zlari bilan to‘qnashdi.

– Javobni esa men – Rakshadan eshit. Hoy Langri, shuni yaxshi bilib olginki, odam bolasi menga tegishli va mening bag‘rimda qoladi! Uni hech kimsa o‘ldirolmaydi. To‘da qayerda bo‘lsa, bola ham o‘sha yerda bo‘ladi, u bilan birga yashaydi va ov qiladi! Hoy go‘daklar kushandasi, baliqxo‘r, qurbaqalar jallodi, o‘zingga hazir bo‘l, bir vaqt kelib, bu go‘dak sening boshingni yesa, ajab emas! Yaxshilikcha bu yerdan qorangni o‘chir, changalzorning yovuz maxluqi! Yo‘qsa, o‘zim bo‘g‘izlagan bug‘u ruhiga qasam bo‘lsinki (yemishim o‘laksa emas), u dunyoga to‘rt oyog‘ing ham oqsoqlanib ketasan! Yo‘qol bu yerdan, changalzorning kuyindi maxluqi!

Ota Bo‘ri rafiqasiga qoyil qolib qarab turardi. Ha, u bir vaqtlar bo‘rilar orasida “Iblis” deb nom chiqargan bu urg‘ochi bo‘riga besh bo‘ri bilan ochiq jangda kurashib erishganini unutib yubora yozgan edi! Sherxon Ota Bo‘ri bilan olishishdan qo‘rqmaydi, ammo Ona Bo‘ri bilan tutishmoqdan hayiqadi. Chunki bu to‘qnashuvda urg‘ochi bo‘rining hayot-mamot uchun jang qilajagini, shuning uchun ustun kelishi muqarrarligini yaxshi biladi.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 51 10/10/24 17:23

Noiloj qolgan yo‘lbars po‘ng‘illay-po‘ng‘illay orqasiga qaytdi. O‘zini erkinlikda his qilgach:

– Har qanday it ham o‘z uyida ovozining boricha akillaydi! Ko‘ramiz, odam zotidan bo‘lgan asrandi haqida To‘da ahli nima derkin?! Hoy uzundum muttahamlar, shuni bilib qo‘yingki, go‘dak mening o‘ljam, ertami-kechmi, axir bir kun uni yeyishim turgan gap! – deb irilladi. Ona Bo‘ri hansirab, bolalari yoniga cho‘zildi. Ota Bo‘ri unga qat’iy dedi:

– Sherxonning gapida jon bor: go‘dakni To‘da ahliga ko‘rsatmoq shart. Ha, aytgancha, sen uni olib qolmoqchimisan, onasi?

– Olib qolmoqchimisan emish! – dedi ensasi qotib Ona Bo‘ri. – O‘zing o‘ylab ko‘rsang-chi, qop-qorong‘i tunda, qip-yalang‘och go‘dakning yolg‘iz o‘zi bu yerga kelishdan cho‘chimadi-ku axir! Qara, qara, bolalarimdan birini chetga turtib, o‘rniga kirib olishga ham ulgurdi. Oqsoq jallod bo‘lsa, go‘dakni o‘ldirib, Vaynganga qochib qolgan bo‘lardi. Qilg‘ilikni u qilardi-yu, balosiga biz qolardik. Odamlar esa yo‘qolgan go‘dakning xunini bizdan olib, tinch uyamizni vayron qilishardi. Uni olib qolmoqchimisan emish! Ha, men uni o‘z bag‘rimda qoldiraman. Tinchgina orom ola qol, Qurbaqacham – Maugliginam. Ha, men seni Maugli – Qurbaqacha deb erkalayman. Sherxon sening payingda bo‘lganidek, kun kelib, sen ham Sherxonning izidan tushib, ov qilasan!

– Ammo To‘da ahli nima derkin? – dedi Ota Bo‘ri.

Changalzor qonunida aytilishicha, oila qurgan har bir bo‘ri o‘z To‘dasidan ayrilib chiqishi mumkin. Ammo bo‘ri bolalari o‘sib-ulg‘aygach, ularni har oyda bir marta, oy to‘lishgan paytda o‘tkaziladigan To‘da kengashiga olib kelib, o‘zga bo‘rilarga ko‘rsatishi zarur. Shundan so‘ng bo‘ri bolasi o‘zining dastlabki ov o‘ljasi – bug‘uni o‘ldirmaguncha istagan joyida shataloq otib yuraveradi. Shu orada katta bo‘rilarning birortasi ham bo‘ri bolasini o‘ldirolmaydi. Agar shunday qotil topilgudek bo‘lsa, uning jazosi – o‘lim. Bunday fikr qilib ko‘rsang, haqiqatan ham shunday bo‘lishi lozimligini tasdiqlaysan.

Bo‘ri bolalari ulg‘ayib, bemalol chopqillaydigan bo‘lgach, To‘da kengashga yig‘iladigan tunlarning birida Ota Bo‘ri bolalari, Maugli va Ona Bo‘rini Kengash qoyasiga boshlab bordi. Bu yuzlab bo‘rilar yashirinishi mumkin bo‘lgan va katta-katta xarsangtoshlar bilan qoplangan tepalik edi. Qoyada esa kuchli va chaqqonligi uchun butun To‘daning yetakchisi etib saylangan so‘qqabosh kulrang bo‘ri cho‘zilib yotardi. Qoya ostida bir vaqtlar yolg‘iz o‘zlari qo‘toslarni bo‘g‘izlagan, hozir esa qarib, bo‘rsiqdek munkillab qolgan tajribali keksa bo‘rilardan tortib ichida “ha, biz ham bo‘sh qolmaymiz” deb o‘ylayotgan qirqdan ortiq turli yoshdagi va tusdagi bo‘rilargacha qator tizilishib o‘tirardi. So‘qqabosh bo‘ri bir yildan beri ularning yetakchisi edi. U yoshligida ikki marta bo‘ri qopqoniga ilingan: bir martasida esa odamlar uni rosa do‘pposlab, o‘ldi deb o‘ylab tashlab ketishgan. Shu bois u odamlarning xulq-atvori va urf-odatlarini yaxshi bilib olgandi. Kengash qoyasida hech kim miq etmasdi. Ota-onalari davra qurib o‘tirgan maydonda bo‘ri bolalari o‘mbaloq oshib o‘ynashardi. Katta bo‘rilardan ba’zi birlari dam-badam shoshilmay o‘rinlaridan turib, u yoki bu bo‘ri bolasining oldiga kelib, uning basharasiga uzoq tikilib qarab, so‘ng yana o‘z joyiga qaytib kelib o‘tirardi. Ba’zan esa ona bo‘rilar tag‘in kattalar nazar-e’tiboridan chetda qolmasaydi degan mulohazaga borib, o‘z bolalarini oy yog‘dusi tushib turgan yerga itarib chiqarardi.

– Hoy bo‘rilar, ogoh bo‘ling, Qonun sizlarga ayon, Qonun sizlarga ayon, buni unutmang! – deya o‘z qoyasidan turib bong urdi Akela. Uning so‘zini ilib olgan mehribon ona bo‘rilar ham:

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 52 10/10/24 17:23



– Hoy bo‘rilar, ehtiyot bo‘ling, yaxshilab mulohaza yuriting! – deb chuvullashdi.

Nihoyat ularning navbati kelgach, Ota Bo‘ri Qurbaqacha – Mauglini davra o‘rtasiga itarib chiqarar ekan, Ona Bo‘ri sergaklanib, hurpaydi. Maugli yerga o‘tirib olib qiqirlab kuldi-da, oy nurida yaltirab ko‘ringan mayda toshlarni o‘ynay boshladi.

Bu orada Akela oldingi oyoqlariga qo‘ygan boshini biron marta ham ko‘tarmadi, faqat:

– Hoy bo‘rilar, ogoh bo‘ling! – deb dam-badam takrorlardi.

Qoya ortidan Sherxonning bo‘g‘iq irillashi eshitildi.

– Go‘dak menga tegishli! Uni menga qaytaring! Erkin to‘daga odamzodning nima keragi bor?

Akela o‘zini eshitmaganga oldi. U faqat:

– Hoy bo‘rilar, ogoh bo‘ling! Nega endi Erkin to‘da begonalar gapiga quloq solishi kerak ekan?! Yaxshilab o‘ylab ko‘ring, – deya xitob qildi.

Bo‘rilar bo‘g‘iq uvullashdi. Faqat to‘rt yashar bo‘rilardan biri Akelaning gapiga javoban Sherxonning:

– Erkin to‘daga odamzodning nima keragi bor? – deb savolini takrorladi.

Changalzor qonuniga ko‘ra, odamzodni to‘daga qabul qilish-qilmaslik masalasida tortishuv boshlangudek bo‘lsa, masalaning ijobiy hal qilinishi uchun To‘dadagi hech bo‘lmaganda ikkita bo‘ri uni yoqlab gapirishi shart. Ammo ota-ona bu masalada lom-mim deb og‘iz ocholmaydi.

– Bu go‘dakni kim yoqlaydi? – dedi Akela. – Erkin to‘da orasida kim gapirmoqchi?

Hech kimdan sado chiqmadi. Agar ish janjalga borib taqaladigan bo‘lsa, bu o‘zi uchun hayot-mamot jangi bo‘lishini yaxshi anglagan Ona Bo‘ri kurashga hozirlandi.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 53 10/10/24 17:23

Shu payt orqa oyoqlarida tik turib olgan hayvonning do‘rillagan ovozi eshitildi. Bu tanbal keksa ayiq Balu edi. Balu bo‘ri bolalariga changalzor qonunlarini o‘rgatar, faqatgina yong‘oq, asal va ildizlar bilan ovqatlanganligi tufayli ko‘ngli qayerni tusasa, o‘sha yerda sanqib yurardi. Shuning uchun ham o‘zga hayvon jinsidan bo‘lishiga qaramay, unga To‘da kengashida qatnashish huquqi berilgandi.

– Odamzod farzandi? Xo‘sh, nima bo‘pti, – dedi Balu, – men go‘dakni yoqlayman. Uning hech kimga zarari tegmaydi. So‘zamol bo‘lmasam-da, gapning lo‘ndasini aytaman-qo‘yaman. U To‘dada yuraversin. Kelinglar, boshqa bo‘ri bolalari qatori go‘dakni ham bag‘rimizga olaylik. Unga ta’lim-tarbiya berishni o‘z zimmamga olaman.

– Yana kimdir so‘zlashi kerak, – dedi Akela. – Bolalarimizning tarbiyachisi Balu o‘z mulohazasini aytdi. Undan boshqa yana kim so‘zlamoqchi?

Davra o‘rtasida qora soya paydo bo‘ldi. Bu terisi tim qora qoplon Bagira edi. Ammo uning tim qora terisida oq nuqtalar oy yog‘dusida qora selonga chizilgan oq hoshiyalardek jilvalanardi. Jasurligi, yarador fildek dovyurakligi bilan butun jungliga dong‘i ketgan Bagiraning so‘zini ikki qilishga hech kimning yuragi dov bermasdi. Lekin uning tovushi daraxtdan chak-chak tomib turgan yovvoyi asaldek muloyim, terisi esa momiqday yumshoq edi.

Selon – sidirg‘a rangli astarbop shohi mato.

– Hoy Akela, Erkin to‘da, siz ham eshiting, – deya miyovladi Bagira, – aslida sizning yig‘iningizda gap aytishga mening haqqim yo‘q-ku-ya, ammo changalzor qonunida aytilishicha, mabodo To‘da orasida go‘dakning hayot-mamoti ustida tortishuv boshlansa, tovon to‘lab, uning hayotini saqlab qolish mumkin. Lekin bu tovonni to‘lashga kimning haqqi bor-u, kimniki yo‘qligi to‘g‘risida Qonunda lom-mim deyilmagan. Gapim to‘g‘rimi?

– Shunday! Shunday! – deb qichqirishdi qorinlari hech to‘ymaydigan och bo‘rilar. – Bagiraning gapida jon bor! Go‘dakning joni uchun tovon olish – ayni muddao! Qonunda ham xuddi shunday deyilgan.

– Bu yerda gapirish huquqiga ega bo‘lmasam-da, ruxsatlaringiz bilan bir-ikki og‘iz so‘z aytsam.

– Gapirsang-chi axir! – deb shang‘illadi yigirmatacha ovoz birdaniga.

– Murg‘akkina go‘dakni o‘ldirish – nomussizlik! Bundan tashqari, bola ulg‘aygach, sizlar uchun ajoyib ovunchoq bo‘ladi. Balu go‘dak foydasiga bir necha og‘iz gapirdi. Agar sizlar Qonunga ko‘ra, odam bolasini To‘daga qabul qilishga rozilik bersangiz, men ham tovon sifatida bu yerdan yarim milcha narida hozirgina bo‘g‘izlangan semiz qo‘tosni in’om etaman. Qalay, masalani shu tarzda hal etish u qadar qiyin bo‘lmasa kerak?

Shu zahoti qiy-chuv ko‘tarilib, o‘nlarcha ovoz bir-biriga gal bermay baqira ketdi.

– Nimadan qo‘rqamiz? Bola qishki yomg‘ir payti yoki yozning jazirama issig‘ida halok bo‘lishi turgan gap. Qip-yalang‘och Qurbaqachaning bizga nima zarari tegardi? To‘daga aralashib yursa, yuraversin. Qo‘tos qayerda, Bagira? Kelinglar, go‘dakni qabul qila qolaylik.

Avvalgidek mayda toshlarni o‘ynash bilan ovora bo‘lgan Maugli uni kelib ko‘rayotgan bo‘rilarni payqamadi. Bo‘rilar bo‘g‘izlangan qo‘tos ilinjida tepalikni tark etishdi. Tepalikda Akela, Bagira, Balu va Maugli oilasi bilan qoldi. Mauglini ololmaganidan g‘azablangan Sherxon esa hamon qorong‘ilikda irillab na’ra tortardi.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 54 10/10/24 17:23

– Ha-ha, ovozing boricha irilla! – dedi Bagira eshitilar-eshitilmas. – Vaqti kelib bu yalang‘och go‘dak seni boshqacha irillatmasa, odam zotini tushunaman degan da’vomdan voz kechganim bo‘lsin!

– Biz yaxshi ish qildik! – dedi mamnunlik bilan Akela. – Odam bolasi – aqlli maxluq. Vaqti kelib u bizning tengsiz ko‘makdoshimiz bo‘lishi turgan gap.

– Ha, qiyin damlarda ko‘makdosh bo‘lar, axir To‘daga hech kim bir umrga yetakchi bo‘lib qololmaydi-ku, – dedi o‘ychan Bagira.

Akela indamadi. U asta-sekin kuch-quvvatdan qolib, holdan toyish To‘daning har bir yetakchisi boshida bor ekani haqida xayol surib ketdi. Yetakchi ishga yaroqsiz bo‘lib qolgach, bo‘rilar uni o‘ldiradilar, uning o‘rnini esa boshqasi egallaydi. Vaqti kelib u ham dunyodan ko‘z yumadi.

– Go‘dakni olib ket, – dedi u Ota Bo‘riga. – Uni Erkin to‘da farzandlari nomiga munosib qilib tarbiyala.

Shunday qilib, Qurbaqacha – Maugli Baluning mehribon so‘zi va Bagira hadya etgan qo‘tos tufayli Sion to‘dasining farzandi bo‘lib qoldi.



Bu qiziq

Redyard Kipling ingliz tilida ijod qilsa ham, bolaligi Hindistonda o‘tgani uchun asarlarida hindcha va urducha so‘zlarni qo‘llagan. Masalan, “Maugli” asari qahramonlarining hindcha va urducha ismlarining ma’nosi quyidagicha:

Raksha – himoyachi. **Balu** – ayiq. **Akela** – yagona.



Keling, suhbatlashamiz

1. Taboqi xarakteriga xos xususiyatlarni sanab bering.
2. Ota Bo‘ri va Ona Bo‘rining Sherxonga qilgan munosabati to‘g‘ri deb o‘ylaysizmi? Nima uchun?
3. Asarda Ota Bo‘ri insonni barcha mavjudotlar ichida eng nozigi va ojizi sifatida ta’kidlaydi. Sizningcha, u nimaga asoslanib shunday dedi? U haqmi? Fikringizni asoslang.
4. Ota Bo‘rining odamga hujum qilish yirtqich ovchi sha’niga mos kelmasligi haqidagi fikriga munosabat bildiring.
5. Mauglini o‘z oilasida olib qolish uchun Ota Bo‘rining ikkilanishi sabablari-yu Ona Bo‘rining qat’iyati haqida o‘ylab ko‘ring. Fikrlaringizni matn asosida dalillashga urining.
6. Bagiraning Mauglini To‘dada olib qolish uchun aytgan so‘zlari-yu bergan tovonidan kelib chiqib, uning xarakteriga xos bo‘lgan xususiyatlar haqida fikr yuriting.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 55 10/10/24 17:23

Topshiriq

Quyidagi topshiriqlarni daftaringizda bajaring.

I. Akelaning quyidagi gaplariga diqqat qiling: *“Biz yaxshi ish qildik! Odam bolasi aqlli maxluq. Vaqti kelib u bizning tengsiz ko‘makdoshimiz bo‘lishi turgan gap”.* Sizningcha, Akela kuni kelib Mauglining qanday yordami tegishini o‘yladi? Sanang va izohlang.

1. _____ * * * _____;
2. _____ * * * _____;
3. _____ * * * _____.

II. Chiyabo‘ri Taboqining bo‘ri bolalarini ota-onasi oldida maqtashdan qanday maqsadi bor edi? Farzandni ota-ona ko‘z oldida maqtash nega “falokatli” deyilmoqda?

Chunki

_____ * * * _____

_____ * * * _____

Uyga vazifa

“Mauglining birodarlari” bobining 2-qismini o‘qib keling.

Mauglining birodarlari
II

Shunday qilib, oradan o‘n-o‘n bir yil o‘tib ketdi. Bo‘rilar orasida o‘sgan Mauglining boshidan ko‘p ajoyib-g‘aroyib voqealar kechdi. Bo‘ri bolalari to Maugli balog‘atga yetguncha katta bo‘rilar qatoriga kirib ulgurishdi. Ota Bo‘ri erinmasdan Mauglini o‘z hunariga o‘rgatdi, changalzorda bo‘luvchi barcha hodisalarni tushuntirdi. Shuning uchun ham maysalar orasidagi har bir shitirlash, tungi shamolning har bir iliq nafasi, boyo‘g‘lining har sayrashi, uchib keta turib daraxt shoxlariga osilib oluvchi ko‘rshapalakning har bir harakati, sho‘x baliqchalarning ko‘l suvini shapillatib o‘ynashlari Maugliga bir dunyo ma’no anglatardi. Bekor qolgan paytlarida esa o‘zini oftobda toblab mudrar, qorni ochsa, ovqat yer va yana uxlardi. Issiqlab ketsa, o‘rmondagi ko‘lga kalla tashlab suzar; asal yegisi kelib qolsa (Baludan asal va yong‘oq ham xuddi xom go‘sht kabi mazali ekanini bilib olgandi), Bagira o‘rgatganidek daraxtga o‘rmalab chiqardi. Ba’zida Bagira daraxt shoxida cho‘zilib yotib:

– Bu yoqqa kela qol, ukajon! – deb Mauglini yoniga chaqirardi. Avvallari Maugli mushukchaga o‘xshab butoqlarga tirmashib chiqqan bo‘lsa, bora-bora kulrang maymundek hech qo‘rqmasdan bemalol shoxdan shoxga sakrashni o‘rgandi. Endilikda Kengash qoyasida o‘tadigan To‘da yig‘inida uning o‘tiradigan o‘z o‘rni bor edi. U qaysi bo‘riga tikilib qarasa, hech biri uning o‘tkir nigohiga dosh berolmay, ko‘zlarini olib qochishini sezib qolgach, ermak qilib, yig‘in paytlarida bo‘rilar bilan ko‘z urishtirish o‘yinini o‘ynardi. Ba’zida esa terisiga kirib qolgan chaqirtikanak, zirapchalarni olib tashlab, bechora bo‘rilarni azobdan qutqarardi.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 56 10/10/24 17:23

Kechalari tepalikdan sayhon ekinzorlarga tushib, kulbalar oldida yurgan odamlarni qiziqib tomosha qilar, ammo ularga ishonmasdi. Bagira unga daraxtlar orasiga ustalik bilan yashirilgan to‘rtburchak tepki eshikli qutini ko‘rsatib, bu narsa qopqon ekanini uqtirdi. Bir vaqt Mauglining o‘zi ham sal bo‘lmasa shunday qopqonga tushib qola yozgandi. Maugli Bagira bilan o‘rmonning eng qorong‘i va issiq burchagiga kirib olib, kun bo‘yi rohatlanib uxlashni, tunlari esa Bagiraning chaqqonlik bilan qanday ov qilishini kuzatishni yoqtirardi. Bagiraning qorni och bo‘lsa, duch kelgan maxluqni o‘ldiraverardi. Maugli ham ancha vaqt shunday ov qildi. Ammo ulg‘ayib, aql-hushi kirgach, Bagira unga: “Sening hayotingni saqlab qolish uchun qo‘tosni o‘ldirib, To‘daga tovon tariqasida to‘laganmiz, shuning uchun uy hayvonlariga daxl qila ko‘rma”, – deb nasihat qildi.

Sayhon – katta tekis ochiq joy, maydon.

– Changalzordagi bor narsa seniki, – dedi Bagira. – Kuching yetgan har bir parrandani ov qilish sening ixtiyoringda. Lekin sen uchun tovon sifatida to‘langan qo‘tosning haqqi-hurmati, uy hayvonlarining na qarisi, na yoshiga qo‘l tekkiza ko‘rma. Changalzor qonuni ana shunday…

Akelaning kundan kunga keksayib, zaiflashib borayotganidan xabardor Sherxon changalzorda har bir qulay fursatdan foydalanib Mauglining payini qirqa boshladi. Bu ham yetmagandek, oqsoq yo‘lbars Sion to‘dasining bir necha yosh bo‘rilari bilan apoq-chapoq bo‘lib oldi. Yosh bo‘rilar Sherxonning ketidan qolmay, uning sarqitini kutib yurishardi. Avvalgidek hukmini o‘tkazib turganda-ku, Akela u sarqitxo‘rlarning adabini bergan bo‘lardi. Sherxon esa yosh bo‘rilarga tilyog‘lamalik qilib, shunday baquvvat jasur ovchilar o‘z ixtiyorlarini munkayib qolgan keksa bo‘ri bilan odam bolasi qo‘liga topshirib qo‘yganlariga hayron bo‘lardi. “Eshitishimcha, – derdi Sherxon, – Kengash paytida go‘yo sizlar Mauglining ko‘ziga tik qarolmas emishsiz”. Bu gapdan yosh bo‘rilar achchiqlanib, junlari hurpayib, g‘azabnok irillashardi.

G‘azabnok – g‘azab bilan ma’nosida.

Hamma narsadan xabardor, yer tagida ilon qimirlasa biladigan Bagira:

– Sherxon bir kunmas-bir kun seni o‘ldirib qo‘yishi mumkin, – deb Mauglini bir necha bor ogohlantirdi. Maugli esa bu gaplarga beparvogina kulib:

– To‘dam bor, sen borsan. Balu ham bor. U tanbal bo‘lishiga qaramay, menga qasd qilganni panjalari bilan ezib tashlaydi. Xo‘sh, nega endi qo‘rqishim kerak ekan? – derdi.

– …Ko‘zingni och, ukajon. Sherxon seni changalzorda o‘ldirishga jur’at qilolmaydi. Akela keksayib, munkillab qolganini ham unutma. Qo‘tosni o‘ldirishga kuchi yetmay qoldi deguncha yetakchilikdan chetlatiladi. Buning ustiga Kengash qoyasida seni birinchi bor ko‘rib, yoningni olgan bo‘rilar ham qarib qoldi. Oqsoq yo‘lbars bo‘lsa, Bo‘rilar to‘dasida odam bolasiga o‘rin yo‘q, degan gapni yosh bo‘rilarning qulog‘iga quyib kelyapti. Sen esa ko‘p o‘tmay rasmona odam shakliga kirib qolasan.

– Odam degani nima o‘zi? Nega endi u o‘z og‘a-inilari orasida yursa bo‘lmasakan? – deb so‘radi Maugli. – Men changalzorda tug‘ilgan bo‘lsam, changalzor qonunlariga itoat qilsam, To‘dada bironta bo‘ri yo‘qki, men uning panjasidagi zirapchani sug‘urib olmagan bo‘lsam. Axir ularning barchasi menga og‘a-ini-ku!

Bagira cho‘zilib, ko‘zlarini yumdi.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 57 10/10/24 17:23

– Iniginam, – dedi u, – iyagim tagini paypaslab ko‘r-chi.

Maugli baquvvat qoracha qo‘lini uzatib, Bagiraning yaltiroq junlari orasidagi yo‘g‘on paylar tutash yerda bilinar-bilinmas bo‘lib qolgan chandiq joyni paypaslab topdi.

– Bagiradek maxluqning bo‘ynida qayish tamg‘asi borligini junglidagi bironta jonzot ham bilmaydi. Biroq men odamlar orasida tug‘ilganman, iniginam. Onam esa Udaypurdagi qirol hayvonotxonasida vafot etgan. Shuning uchun ham Kengashda sen uchun tovon to‘ladim. Hali sen u vaqtda murg‘akkina go‘dak eding. Men ham odamlar orasida tug‘ilganman. Go‘dakligimda changalzorni ko‘rmadim. Menga panjara ortida temir tovoqda ovqat berardilar. Nihoyat bir kuni tunda men odamlarga o‘yinchoq emas, qoplon ekanimni his qilib qoldim. His qildim-u, panjalarimning bir hamlasi bilan bema’ni qulflarni sindirib, qochib qoldim. Ha, odamlarning odatlari bilan tanish bo‘lganim uchun ham changalzor ahli Sherxondan ko‘ra ko‘proq mendan hayiqadi. Yo noto‘g‘ri gapirdimmi?

– Ha, shunday, – deb tasdiqladi Maugli, – Mauglidan o‘zga butun changalzor ahli Bagiradan hayiqadi.

– Voy, sen odamcha-yey! – dedi mehr bilan qora qoplon. – Mabodo seni Kengashda o‘ldirib qo‘ymasalar, men o‘z makonim changalzorga qaytganimdek, sen ham axir bir kun og‘a-inilaring – odamlar orasiga qaytib borishing turgan gap.

– Nega endi kimdir meni o‘ldirishi kerak ekan? – deb so‘radi Maugli.

– Mening ko‘zlarimga qara-chi? – dedi Bagira. Maugli uning ko‘zlariga tikilib qaradi.

Ulkan qoplon dosh berolmay, ko‘zlarini chetga olib qochdi.

– Mana, ko‘rdingmi, – dedi panjalari ostidagi barglarni shitirlatib qoplon, – men ham odamlar orasida tug‘ilganim va seni yaxshi ko‘rishimga qaramay, ko‘zingga tik qarolmayman, iniginam. Boshqalar senga tik qarashga bardosh berolmaganliklari uchun, ulardan ko‘ra aqlli bo‘lganing uchun, ularning panjasidan zirapchalarni olib tashlay olganing uchun va muhimi inson bo‘lganing uchun seni yomon ko‘radilar.

– Men bu gaplardan butunlay bexabar ekanman, – dedi quyuq qoshlarini chimirib ma’yuslik bilan Maugli.

– Bilasanmi, changalzor qonunlari nimaga o‘rgatadi? Avval zarba urib, so‘ng ovoz chiqar. Sendagi beparvolikning o‘zi ham odamzod ekaningni oshkor qilib qo‘yadi. Es-hushingni yig‘ib ol. U ovdan bu ovgacha Akelaning ahvoli tobora mushkullashib bormoqda. Mabodo navbatdagi ovda Akela o‘ljasini tutolmasa bormi, bo‘rilar unga ham, senga ham itoat qilmay qo‘yadilar, shunday bo‘lishini yuragim sezib turibdi. Unda bo‘rilar darhol Kengash qoyasiga butun changalzor ahlini to‘playdilar-u... Keyin... Keyin... Ha, keyin nima qilishni o‘zim bilaman! – deya qichqirib o‘rnidan sakrab turdi Bagira. – Hoziroq pastlikdagi vodiyga jo‘na, amallab, odamlar kulbasidan Qizil gulni olib kel. Shuni eplolsang bormi, u holda, mendan ham, Baludan ham va To‘dadagi senga xayrixoh bo‘rilardan ham qudratliroq madadkorga ega bo‘lasan. Yugur, tezroq Qizil gulni keltir!

Bagira Qizil gul deb olovni aytgan edi. Chunki changalzordagi bironta hayvon olovni o‘z nomi bilan atashga jur’at qilolmaydi. Barcha hayvonlar olovdan o‘lgudek qo‘rqadilar va shu boisdan uni to‘g‘ridan to‘g‘ri “olov” deyish o‘rniga turli-tuman nomlar bilan ataydilar.

– Qizil gulmi? – dedi Maugli. – U oqshom payti kulbalar oldida o‘sadi. Men uni keltiraman.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 58 10/10/24 17:23

– Mana bu – odam bolasining so‘zi! – dedi g‘urur bilan Bagira. – Aytgancha, u gul kichkina tuvakchalarda o‘sishini yodingda tut. Uni tezroq keltirgin-u zarur bo‘lib qolguniga qadar asrab tur.

– Xo‘p bo‘ladi! – dedi Maugli. – Men ketdim. Biroq, Bagira, – deya uning silliq bo‘ynini quchib, katta ko‘zlariga mehr bilan boqdi Maugli, – bularning hammasi Sherxonning makri ekaniga ishonching komilmi?

– Ha, iniginam, meni ozod etgan siniq qulf haqqi-hurmati, bu gaplarning barchasi chin!

– Hali shunaqami, menga tovon sifatida berilgan qo‘tosning haqqi-hurmati, bu qilg‘iliklari uchun Sherxonning bir boplab adabini berayki, onadan tug‘ilganiga pushaymon bo‘lsin, – dedi-yu g‘izillagancha jo‘nab qoldi.

…Maugli butalar oralab yugurganicha vodiy o‘rtasidagi daryo tomon ketdi. Ammo ov qilayotgan To‘daning uvullashini eshitib, darhol to‘xtab qoldi. U ta’qibdan qochib, holdan ketgan bug‘uning avvaliga ingrashi, keyin esa orqasiga o‘girilib, o‘zini himoya qilish uchun pishqirganini eshitdi. So‘ng yosh bo‘rilarning g‘azabnok va shiddatli akillashi quloqqa chalindi:

– Akela! Ha, Akela! Qani, qo‘yib beringlar-chi, so‘qqabosh bo‘ri o‘z hunarini ko‘rsatsin! Yetakchiga yo‘l bering! Qani, sapchi, Akela!

Esiz, so‘qqabosh bo‘ri o‘ljaga sapchib, xippa bo‘g‘ib ololmadi shekilli, shu payt Mauglining qulog‘iga Akelaning tishlari g‘ijirlab, qisqagina ingrashi eshitildi. Aftidan, o‘zini himoya qilayotgan bug‘u uni oldingi tuyoqlari bilan tepib yiqitganga o‘xshaydi.

Maugli nima bo‘lishini kutib o‘tirmay, g‘izillagancha oldinga qarab chopa ketdi. Tezda odamlar yashaydigan ekinzor yerlar ko‘rindi. Orqadagi uvullash esa borgan sari pasayib, eshitilmay qoldi.

– Bagiraning gapi to‘g‘ri ekan, – deya pichirladi o‘z-o‘ziga Maugli, kulba darchasi tagidagi o‘tlar orasida g‘ujanak bo‘lib o‘tirar ekan. – Ertaga mening ham, Akelaning ham taqdirimiz hal bo‘ladiganga o‘xshaydi.

Keyin u derazaga yaqinlashib, o‘choqda yonib turgan olovga tikilib qoldi. U dehqon xotini kechasi o‘rnidan turib, o‘choqqa qandaydir qora narsalarni tashlaganini, tong payti yer yuzini oppoq sovuq tuman chulg‘ab olganda yosh bola savat ichiga o‘rnatilgan tuvakka cho‘g‘ solib, ustini ko‘rpa bilan berkitib, mollarga qaragani molxonaga ketganini kuzatib turdi.

– Bor-yo‘q gap shumi? – dedi o‘z-o‘ziga Maugli. – Kichkinagina bola eplagan ish mening ham qo‘limdan keladi.

U muyulishdan aylanib o‘tib, bolaning qarshisiga bordi va uning qo‘lidagi tuvakni tortib olib, tuman ichiga kirib g‘oyib bo‘ldi. Bola esa qo‘rqqanidan dodlab yubordi.

– Odamlar juda ham menga o‘xshaydilar, – dedi Maugli xuddi dehqon xotin qilganidek cho‘g‘ni puflab. Agar unga ovqat berilmasa, o‘lib qolishi mumkin, degan fikrda quruq shox-shabba va ildizlarni yig‘ib, cho‘g‘ ustiga tashladi.

Tog‘ga chiqayotib u Bagirani uchratdi. Tonggi shabnam Bagiraning terisida xuddi oy toshlaridek yaltirab turardi.

– Akela o‘ljani tutolmadi, – dedi unga qoplon. – Ular kecha tundayoq Akelani o‘ldirib tashlashardi-yu, lekin ikkovingizni birga yo‘qotishmoqchi-da. Bo‘rilar tepalikdan seni rosa axtardilar.

– Men ekinzor yerlarda bo‘ldim. Qara-chi! Men tayyorman! – deb qo‘lidagi cho‘g‘ to‘la tuvakni baland ko‘tardi Maugli.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 59 10/10/24 17:23

– Juda yaxshi! Endi gap bunday: odamlar tuvak ichiga quruq shox-shabba tiqishganda Qizil gul ochilganini o‘z ko‘zlarim bilan ko‘rganman. O‘shanaqa qilishdan qo‘rqmaysanmi?

– Yo‘g‘-e! Nimadan qo‘rqardim? Tush bo‘lmasa kerak, endi esimga tushdi: hali bo‘riga aylanmasimdan avval ko‘pincha Qizil gul oldida yotardim. O‘shanda men sovqotmasdim.

Maugli butun kunni g‘orda o‘tkazdi; u tuvakdagi cho‘g‘ga goh-goh quruq shox-shabba tashlab, nima bo‘lishini kuzatdi. U bir yog‘ochni topib yonishidan mamnun bo‘ldi. Kech-qurun Taboqi kelib, juda dag‘allik bilan uni Kengash qoyasiga chaqirayotganlarini aytganida xoxolab, o‘zini kulgidan to‘xtata olmadi. Buni ko‘rib, Taboqi qochib qoldi. Maugli kulganicha Kengashga jo‘nadi.

So‘qqabosh bo‘ri Akela To‘da yetakchisining o‘rni bo‘shab qolganiga ishora qilgandek o‘z qoyasi oldida yotardi. Sherxon bo‘lsa xushomadgo‘ylari bilan birgalikda mamnun qiyofada u yoqdan bu yoqqa yurib turardi. Bagira Mauglining yonida yotar, Maugli esa cho‘g‘ to‘la tuvakni tizzalari orasiga olib o‘tirardi. Akelaning kuch-quvvati bor vaqtlarda aslo jur’at qilolmaydigan Sherxon bugun hamma yig‘ilib bo‘lgach, viqor bilan gap boshladi.

– Uning haqqi yo‘q! – deb shivirladi Bagira. – Shunday degin, aslida bu itvachcha juda qo‘rqoq.

Maugli dik etib o‘rnidan turdi.

– Hoy, Erkin xaloyiq! – deb qichqirdi u. – Axir Sherxon To‘daning yetakchisi emas-ku! Qachondan beri yo‘lbars jinsi bizga yetakchi bo‘lib qolibdi?

– Tushunsang-chi, yetakchining o‘rnini hech kim egallaganicha yo‘q, mendan esa gapirishni iltimos qildilar... – deb gap boshladi Sherxon.

– Kim sendan iltimos qildi? – dedi Maugli. – Nahotki biz bu qassobning oldida xushomadgo‘ylik qilib jilpanglovchi chiyabo‘rilarga aylanib qolgan bo‘lsak? Yetakchini To‘daning o‘zi saylab oladi, bu gapning begonalarga daxli yo‘q.

– Ovozingni o‘chir, odamzod! – degan qichqiriqlar eshitildi.

– U bizning qonunlarimizga amal qildi! Gapirsin! – deyishdi ko‘plar.

Nihoyat qari bo‘rilar irillashib:

– Murda bo‘ri gapirsin! – deyishdi.

To‘da yetakchisi o‘z o‘ljasini qo‘ldan chiqarib yuborsa, to o‘lgunicha Murda bo‘ri deb ataladi. O‘lim esa uni uzoq kuttirmaydi. Akela oppoq boshini istar-istamas ko‘tarib dedi:

– Hoy, Erkin xaloyiq! Siz ham eshiting, Sherxonning ityaloq chiyabo‘rilari! O‘n ikki yil bo‘ldiki, sizlarni ovdan ovga boshladim. Shu vaqt ichida na birontangiz qopqonga tushdingiz va na majruh bo‘ldingiz. To‘g‘ri, so‘nggi ovni boy berdim. Mening keksayib, kuch-quvvatdan qolganimni bila turib, sharmanda-yu sharmisor etish niyatida yosh va baquvvat bug‘uni ro‘para qildilar. Bu ustalik bilan qilingan nayrang bo‘ldi. Sizlar meni Kengash qoyasida o‘ldirishga haqlisiz. Endi sizlardan so‘ray: qani, kim kelib, so‘qqabosh bo‘rini o‘ldiradi? Changalzor qonuniga ko‘ra, bitta-bitta bo‘lib kelishingizni talab qilishga haqqim bor.

Uzoq vaqt jimlik cho‘kdi. Birorta bo‘ri ham Akela bilan hayot-mamot jangiga kirishishga jur’at qilolmadi. Oxiri Sherxon irillab qoldi:

– Bu tishsiz ahmoqning bizga nima keragi bor? U shunday ham o‘ladi! Odam bolasi esa dunyoda ko‘p yashab qoldi. Hoy, Erkin xaloyiq! Boshdayoq u mening o‘ljam edi. Uni menga qaytarib beringlar. Sizlarning unga shaydo bo‘lib qolganingiz meni jirkantiradi.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 60 10/10/24 17:23

O‘n yil davomida changalzorni alg‘ov-dalg‘ov qilgani yetar. Uni menga bering, bo‘lmasa hamma vaqt men shu yerda ov qilaman-da, sizlarga quruq suyak ham qoldirmayman. U odamzod va odam bolasi, uni ko‘rgani ko‘zim, otgani o‘qim yo‘q!

Shunda to‘daning yarmidan ko‘pi uvulladi:

– Odam! Odam! Bizga odamning nima keragi bor? Yo‘qolsin o‘z jinsdoshlari orasiga!

– Keyin butun qishloqdagi odamlarni bizga qarshi qo‘zg‘atsinmi? – deb baqirdi Sherxon. – Yo‘q, uni mening qo‘limga topshiring! U odam va hech birimiz uning ko‘ziga tikilib qarolmaymiz.

Akela yana boshini ko‘tarib dedi:

– Biz nima yesak, u ham shuni yedi. Biz bilan birga yashadi. U biz uchun parrandalarni quvib keldi. U biron marta Changalzor qonuniga xilof ish qilmadi.

– Buning ustiga uni To‘daga qabul qilayotganimizda tovon sifatida butun boshli qo‘tosni berdim. Qo‘tos-ku hech gap emas-a, biroq Bagiraning or-nomusi odamzodning yonini olib jang qilishga arzisa kerak, – dedi juda muloyim tovush bilan miyovlab Bagira.

– O‘n yil avvalgi qo‘tosni pesh qiladi-ya! – deb irillashdi To‘dadagilar. – O‘n yillik qoq suyaklardan bizga nima foyda?

– Ho, o‘z so‘zida turish-chi? – dedi oppoq tishlarini irjaytirib Bagira: – Erkin xaloyiq deb bekorga atamagan bo‘lsalar-chi?!

– Bironta ham odam bolasining changalzor ahli bilan yashashga haqqi yo‘q! – deb baqirdi Sherxon. – Uni menga bering deyapman!

– U garchand bizga qondosh bo‘lmasa-da, bizning qardoshimiz, – deb so‘zini davom ettirdi Akela. – Siz bo‘lsa uni shu yerning o‘zidayoq o‘ldirmoqchi bo‘lyapsiz! Haqiqatan umrim behuda o‘tibdi! Birovlaringiz uy hayvonlarini ovlayotgan emishsiz, ba’zi birovlaringiz esa, eshitishimcha, Sherxonning aldam-qaldam gaplariga uchib, tunlari qishloqma-qishloq sanqib, kulbalar oldidan go‘daklarni o‘g‘irlayotganmishsiz. Ha, endi men sizlarning qo‘rqoq ekaningizga qanoat hosil qildim. Endi sizdek qo‘rqoqlarga murojaat qilishdan o‘zga ilojim yo‘q. Kunim bitib qoldi, hech narsaga arzimas hayotim yaqin orada tugaydi. Mabodo umrim salmoqqa ega bo‘lganda edi, uni odam farzandi yo‘liga tikkan bo‘lardim. Agar odam farzandini o‘z jinsdoshlari orasiga bezarar jo‘natib yuborsangiz, To‘daning or-nomusi hurmati, vaqti-soati yetib, meni o‘ldirgani kelganingizda birontangizni ham tishlamayman. Jangsiz taslim bo‘lishga roziman. Bu va’dam To‘dadagilarning umrini saqlab qoladi. Qo‘limdan boshqa hech narsa kelmaydi. Xohlasangiz sizlarni Changalzor qonunlariga muvofiq To‘daga qabul qilingan va hech qanday gunohi bo‘lmagan qardoshlarini bekordan bekorga o‘ldirdi degan isnoddan saqlab qolaman.

Aldam-qaldam – laqillatish, aldash uchun aytilgan gaplar.

– U odam, odam, odam! – deb uvullashdi To‘dadagilar. Shunday qilib, To‘daning yarmidan ko‘pi dumini yerga tap-tap urib turgan Sherxon tarafiga qochib o‘tdi.

– Endi hammasi sening qo‘lingda, – dedi Bagira Maugliga, – jang qilishdan o‘zga ilojimiz qolmadi.

Maugli qo‘lidagi tuvakni ko‘targancha qomatini rostladi. So‘ng yelkalarini kerib, Kengash tomon o‘girilib esnadi. Lekin g‘azab va alamdan ko‘ngli vayron edi. Negaki shu paytgacha bo‘rilar o‘z odatlariga ko‘ra, Maugliga dushman ekanliklarini bunday ochiqchasiga hech qachon aytmagan edilar.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 61 10/10/24 17:23

– Hoy, menga qarang! – deb qichqirdi u. – Bunday akillashning hojati yo‘q! Bugun odamzod ekanimni qayta-qayta yuzimga soldingiz, men esa sizlar bilan birgalikda bir umr bo‘ri bo‘lib qolmoqchi edim. Nihoyat so‘zlaringizda haqiqat borligiga men ham ishona boshladim. Bundan buyon sizlarni tug‘ishganlarim deb emas, balki odamzod aytganidek, itlar deb chaqiraman. Endilikda nima qilish kerag-u, nima qilmaslik kerakligini sizlardan so‘rab o‘tirmayman. Nima qilsam, ixtiyor o‘zimda! Odamzodning nimalarga qodir ekanini bir ko‘rsatib qo‘ymoq uchun sizlar o‘lgudek qo‘rqadigan Qizil gulni keltirdim. Maugli shunday dedi-yu qo‘lidagi tuvakni yerga uloqtirib yubordi. Har yoqqa sochilgan cho‘g‘ qup-quruq xas-cho‘plarni yondirib yubordi. Alangani ko‘rib butun Kengash ahli o‘zini orqaga tashladi. Maugli gulxanga quruq shoxni tiqqan edi, mayda shox-shabbalar alanga olib, lovullab yonib ketdi. Maugli uni boshi ustida aylantirib, qo‘rqib ketgan bo‘rilarni tumtaraqay qildi.

– Endi sen hukmronsan, – dedi shivirlab Bagira. – Akelani halokatdan saqlab qol. U sening do‘sting edi.

Umrida birovdan shafqat tilamagan keksa Akela endilikda Maugliga iltijo qilgandek nigoh tashladi. U bo‘lsa qip-yalang‘och, uzun qora sochlari yelkalariga yoyilgan holda tik turar, gulxan alangasidan hosil bo‘lgan soyalar esa atrofida o‘ynoqlab raqsga tushardi.

– Xo‘sh! – dedi Maugli shoshilmasdan tevarak-atrofga nazar tashlab. – Ana endi itligingizni ko‘rib turibman. Chindan ham odamzod degan maxluq mening jinsdoshlarim bo‘lsa, bas, sizlarni tark etib, ularning yoniga ketganim bo‘lsin. Endilikda changalzor darvozalari men uchun yopiq, sizning tilingizni ham, do‘stligingizni ham unutishim zarur. Ammo men sizlardan ko‘ra shafqatliroq bo‘laman. Men sizlarga qondosh bo‘lmasam-da, biroq barcha ishlarda sherik edim. Xuddi shuning uchun ham, o‘z jinsdoshlarim orasida odam qatoriga kirgudek bo‘lsam, sizlar menga xiyonat qilganingizdek, men ham xiyonat qilib, sizlarni odamlarga tutib bermayman, – dedi. U gulxanni tepgan edi, har tomonga uchqunlar sachrab ketdi. – Bizdek bir to‘daning bo‘rilari orasida jang bo‘lmaydi. Ammo ketishdan oldin qarzni uzib ketmoq shart.

Maugli o‘tga tikilgancha ko‘zlarini ola-kula qilib o‘tirgan Sherxonning oldiga borib, yolidan mahkam ushlab oldi. Bagira ehtiyoti shart uning orqasidan bordi.

– Tur o‘rningdan, itvachcha! – deb baqirdi Maugli. – Odam gapirayotganda o‘rningdan turib eshit, yo‘qsa junlaringni kuydirib yuboraman!

Yonib turgan tayoqchani boshi ustida ko‘rgan Sherxon quloqlarini qisib, ko‘zlarini yumib oldi.

– Mana bu hayvonlar jallodi go‘dakligimda o‘ldirishga ulgurolmagani uchun Kengash paytida yo‘q qilaman deb valdirab yuribdi... Biz odam qatoriga kirar ekanmiz, it emganlarni mana bunday, mana shunday qilib savalaymiz. Sen oqsoq, mabodo g‘iring derkansan, xuddi hiqildog‘ingga Qizil gulni tiqib qo‘yaman.

Maugli qo‘rqqanidan o‘lar holatga yetib, goh angillab, goh ingrayotgan Sherxonning boshiga yonib turgan shox bilan tushira ketdi.

– Uf! Ana endi, kuyuk mushuk, bu yerdan qorangni o‘chir! Ammo yodingda bo‘lsin: kelgusi safar men Kengash qoyasiga kelganimda Sherxonning terisini boshimga yopinib kelaman... Gap bunday: Akelaning ixtiyori o‘zida. Qanday xohlasa – shunday yashasin. Siz uni o‘ldirmaysiz. Chunki bu – mening xohishim. Sizlar, o‘zlarini it emas, balki qandaydir ulug‘ zot deb o‘ylayotganlar, tillaringizni osiltirib, bu yerda uzoq o‘tirmasangiz kerak? Itlarni esa men mana bunday qilib quvaman! Yo‘qol, daf bo‘l!

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 62 10/10/24 17:23

Maugli yonib turgan tayoqni havoda gir-gir aylantirib, davra bo‘ylab goh o‘ngga, goh chapga tasirlatib ura ketdi, tuklari kuygan bo‘rilar uvullashib duch kelgan tomonga tum-taraqay bo‘lishdi. Nihoyat qoyada Akela, Bagira va Mauglining tarafini olgan o‘n chog‘li bo‘ridan boshqa hech kim qolmadi. Xuddi shu payt avvallari hech sezilmagan holat yuz berib, Mauglining yurak-bag‘rini nimadir o‘rtab yuborgandek bo‘ldi. Uning nafasi bo‘g‘ilib, birdaniga ho‘ngrab yig‘lab yubordi, yuzlaridan shashqator yosh oqa boshladi.

– O‘zi nima gap? Bu nima o‘zi? – dedi u. – Changalzordan ketgim kelmayapti, menga nima bo‘lganini tushunmayapman. Bagira, men o‘lyapmanmi?

– Yo‘g‘-e, iniginam, bu odamlarda bo‘ladigan ko‘zyoshi xolos, – deb javob qildi Bagira. – Endi sening rasmana odam bo‘lganingga qanoat hosil qildim. Bundan buyon changal-zorning darvozalari sen uchun yopiq... Qo‘y, mayli, oqaversin. Yosh oqsa, darding yengilla-shadi.

Maugli o‘tirib olib, shunday yig‘ladiki, go‘yo yurak-bag‘ri ezilib oqqandek bo‘ldi. Axir uning birinchi bor yig‘lashi edi-da!

– Endi, – dedi u, – men odamlar orasiga ketaman. Biroq avval borib, onam bilan xayr-lashishim kerak.

U Ona Bo‘ri bilan Ota Bo‘ri yashaydigan g‘or tomon yo‘l oldi. Ona Bo‘rining yunglariga yuzini surkab, ko‘p yig‘ladi. Buni ko‘rgan to‘rtala bo‘ri bolasi uvlashdi.

– Meni unutmaysizmi? – deb so‘radi Maugli.

– Izdan bora olar ekanmiz, aslo seni unutmaymiz! – deyishdi bo‘ri bolalari. – Odam bo‘lib olganingdan keyin ham tepa ostiga kel. Chaqchaqlashamiz, yo tunda sen bilan birga dalaga borib, quvlashmachoq o‘ynaymiz.

– Uzoq vaqt yo‘q bo‘lib ketma! – dedi Ota Bo‘ri. – Mening dono Qurbaqacham, tez-tez kelib tur. Ko‘rib turibsan, onang bilan men ham keksayib qoldik.

– Tez-tez kelib tur, yalang‘och bolaginam, – dedi Ona Bo‘ri, – esingdan chiqmasin, odamzod, seni o‘z farzandlarimdan ham a’lo ko‘rardim.

– Albatta kelaman, – dedi Maugli. – Shuning uchun ham kelishim zarurki, Sherxonning terisini Kengash qoyasiga yopib qo‘ymaguncha ko‘nglim joyiga tushmaydi. Meni unutmang!

Changalzordagi barcha maxluqlarga ham aytingki, meni unutmasinlar!

Mauglining yolg‘iz o‘zi tepalikdan tushib, odamlar deb atalmish sirli maxluqlar tomon yo‘l olganda tong g‘ira-shira yorisha boshlagan edi.

Keling, suhbatlashamiz

1. Maugliga Bagira nima sababdan o‘z bolaligi haqida so‘zlab bergan bo‘lishi mumkin?
2. Uzoq yillar To‘daga boshchilik qilgan, keksaygach, kuchdan qolgan Akelaga nisbatan to‘daning qilgan munosabati, sizningcha, adolatdanmi? Nima uchun?
3. Kengash Sherxon bilan do‘stlashib olgan yosh bo‘rilarni nega jazolamadi?
4. Maugli Sherxon va yosh bo‘rilarga nima uchun “itvachcha” deb ta’na qilgan bo‘lishi mumkin?
5. To‘da ahli nima sababdan Akelaga hujum qilishga jur’at etolmadi deb o‘ylaysiz?
6. Akelaning: “Umrim behuda o‘tibdi”, – deya afsuslanishga qanday asosi bor edi?

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 63 10/10/24 17:23

7. Avval hech qachon yig‘lamagan Mauglining Kengash yig‘ilishidan so‘ng ko‘zyosh to‘kishiga nima sabab bo‘ldi deb o‘ylaysiz? Bagira nega shu voqeadan keyin Mauglining rasmana odam bo‘lganiga ishonch hosil qildi?



Topshiriq

To‘dadan ketgan Mauglining insonlar orasida munosib o‘rin egallashi uchun 5 ta tavsiya yozing.



Uyga vazifa

Asarning “Yo‘lbars, yo‘lbars!” bobini o‘qib keling.

“Yo‘lbars, yo‘lbars!”

Kengash qoyasidagi janjaldan so‘ng Maugli bo‘ri uyasini tark etib, pastlikka – ekinzor yerlar va odamlar istiqomat qiluvchi manzilga intildi... Tekislikdagi yaylovda sigir va qo‘tos-lar o‘tlab yurardi. Poda boqib yurgan bolalar Mauglini ko‘rishlari bilan o‘takalari yorilib, chin-qirgancha qochib qolishdi. Har bir hind qishlog‘ida odat bo‘lib qolgandek, daydib yuruvchi sap-sariq sayoq itlar birdaniga akillay boshlashdi. Maugli juda ochiqqanidan ularga parvo qilmay ketaverdi va oxiri qishloq chekkasiga yetdi. U yon-bu yon qarab, qishloqni ihota qilib turgan chetan devordagi darvozaning tunlari tambalab qo‘yiladigan yo‘g‘on tog‘olcha lo‘kidonining bir yoqqa surib qo‘yilganini payqadi.

Ihota – devor bilan o‘rab olish, himoyalash.

Lo‘kidon – yog‘och qulf.

– Himm! – dedi o‘zicha Maugli (u bundan ilgari ham tunlari yemak axtarib ovga chiqqanda shunday to‘siqlarga bir necha bor duch kelgandi). – Bu yerning odamlari ham changalzor maxluqlaridan qo‘rqisharkan-da!

U darvoza oldiga o‘tirib oldi. Darvozadan bir kishining qorasi ko‘rinishi bilanoq sakrab turib, og‘zini ochib tamshanib, qo‘li bilan lablarini ko‘rsatib, qornim och deya ishoraladi. U odam Maugliga ko‘zi tushishi bilanoq darhol orqasiga burilib, qishloqning yagona ko‘chasidan chopa ketdi. Birozdan so‘ng boshdan oyoq oq libos kiygan, peshonasida qizil va sariq belgisi bor, baland bo‘yli va to‘ladan kelgan kohinni boshlab keldi. Kohin orqasidan yuzlarcha qishloq odamlarini ergashtirib darvoza oldida to‘xtadi; ular Maugliga angrayib qarashar, bir-birlariga gap bermay nimalarnidir chug‘urlashar, qo‘llari bilan uni ko‘rsatib, baqirishardi.

Kohin – ruhoniy.

“Bu odam degan maxluqlar naqadar nodon-a! – derdi o‘z-o‘ziga Maugli. – Ularning kulrang maymunlardan aslo farqi yo‘q”.

U uzun sochlarini orqaga tashlab o‘qraygancha, olomonga qarab turaverdi.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 64 10/10/24 17:23

– Nimadan qo‘rqasizlar? – dedi kohin. – Uning oyoq va qo‘llaridagi izlarni ko‘rmayotibsizmi? Ular – bo‘ri tishining izlari. U bo‘rilar boqib olgan bola ekani aniq, bu yerga junglidan qochib kelgani shunday ham ko‘rinib turibdi-ku!

Bo‘ri bolalari Maugli bilan o‘ynasharkan, o‘zlari sezmagan holda uni qattiq-qattiq tishlab olishar, shuning uchun ham bolaning oyoq-qo‘llari oq chandiqlar bilan qoplangandi. Biroq rostakamiga tishlab olishning nimaligini yaxshi bilgan Maugli oyoq-qo‘llaridagi chandiqlarni hech ham tishlash asorati deb atamagan bo‘lardi.

– Voy-voyey! – deyishdi baravariga bir necha ayol. – Boyoqishning badanini bo‘rilar ilma-teshik qilib tashlabdi-ku! Ko‘hlikkina bola ekan. Ko‘zlaridan o‘t chaqnab turibdi. Ha-ya, Messua, o‘ziyam xuddi sening yo‘lbars o‘g‘irlab ketgan bolangga o‘xshaydi-ya.

– Qani, yo‘l bering, bir yaxshilab qaray-chi, – dedi bilak va to‘piqlariga quyma mis bilaguzuklar taqib olgan ayol qo‘lini peshonasiga qo‘yib Maugliga diqqat bilan qararkan. – Ha-ya, juda o‘xshab ketadi! Bu bola ozg‘inroq, biroq yuz, ko‘zlari xuddi o‘g‘limning o‘zginasi.

Ayyor kohin Messuaning eri qishloqning badavlat odamlaridan biri ekanini yaxshi bilardi. Shuning uchun u ko‘zlarini osmonga tikib, tantanali ohangda:

– Jungli olgan omonatini yana qaytarib berdi. Bolani o‘z bag‘ringga ol, singlim, ammo odamlar kelajagini oldindan biluvchi kohinning izzat-hurmatini o‘rniga qo‘yishni unutib, savobdan bebahra qolma, – dedi.

– Menga tovon sifatida to‘langan qo‘tosning ruhiga qasam bo‘lsinki, – deb o‘yladi Maugli, – bu ishlarning barchasi meni ko‘rikdan o‘tkazgan To‘dadagilarning harakatiga juda ham o‘xshab ketadi! Men chindan ham odamzod ekanmanmi, chinakam odamga o‘xshashim kerak!

Olomon yo‘l bo‘shatgach, haligi ayol Maugliga mening orqamdan yur ishorasini qilib, uni qizil bo‘yoqlari yaltirab ko‘ringan kat qo‘yilgan kulba tomon boshladi. Kulbada yana allaqancha ro‘zg‘orga zarur qaqir-qUqurlar: jimjimador naqsh o‘yilgan don soladigan xum, ovqat yeydigan mis tovoqlar, pastakkina supachaga o‘rnatilgan ma’buda haykali va devorga osilgan, bahosi qishloq bozorida sakkiz sent turadigan ajoyib oyna ko‘zga tashlanardi.

Kat – keng yog‘och kursi, karavot.

Ayol Maugliga to‘ygunicha sut va bir parcha non berdi. So‘ng qo‘llarini bolaning boshiga qo‘yib, uning ko‘zlariga tikildi: ayol haqiqatan ham yo‘lbars o‘g‘irlab ketgan farzandim changalzordan qaytib kelgan bo‘lsa-ya, deb o‘ylardi.

– Natxu! Hay Natxu! – deb chaqirdi ayol. Maugli bu ism o‘ziga tanish ekanini anglatuvchi biron ishora bilan ham javob bermadi.

– Senga yangi kavush olib bergan kunimni nahotki unutgan bo‘lsang? – ayol shunday deb bolaning toshdek metinlashib ketgan tovonini siypab qo‘ydi. – Yo‘q, – dedi ayol ma’yuslanib, – bu oyoqlar umrida kavush ko‘rgan emas. Mayli, nima bo‘lsayam, o‘g‘lim Natxuga o‘xshaysan, endi menga o‘g‘il bo‘lding.

Umrida xonada bo‘lmagan Maugli allanechuk bo‘lib ketdi. Lekin poxol bilan yopilgan tomga ko‘zi tushib, tashqariga chiqqisi kelsa, poxolni teshish yoki ochiq turgan darchadan tushish mumkinligini o‘ylab qo‘ydi.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 65 10/10/24 17:23

“Kishilar gaplashadigan tilni tushunmasang, odamman deb yurishning nima foydasi bor? – deb o‘yladi o‘zicha Maugli. – Odamlar Changalzorda biron so‘zni anglay olmaganidek, men ham bu yerda hech narsani tushunmaydigan gungning o‘zginasiman. Ularning tilini o‘rganishim zarur”.

Maugli changalzorda bo‘rilar bilan yasharkan, bug‘ularning jangovar nidosi yoki to‘ng‘izlarning xur-xuriga taqlid qilishni bekorga mashq qilmagandi. Messua biron so‘zni aytdimi, darhol Maugli shu so‘zni juda o‘xshatib takrorlar va shu yo‘sin kechgacha kulbadagi allaqancha ashyolarning nomini to‘g‘ri ayta boshlagandi.

Uxlash payti keldi. Biroq Maugli qoplonlarga qo‘yiladigan qopqonga o‘xshab ketuvchi kulbada yotishni sira ham istamadi. Eshikni yopishlari bilanoq u sakrab darchaga chiqib oldi.

– Uni o‘z holiga qo‘y, – dedi Messuaning eri. – Bola umrida kat ustida uxlamaganini unutma. Haqiqatan ham u yo‘qolgan o‘g‘limiz o‘rniga g‘oyibdan yuborilgan bo‘lsa, hech yerga qochib ketmaydi.

Maugli tashqariga chiqib, o‘tloq chekkasidagi ko‘m-ko‘k baland o‘tlar orasiga cho‘zildi. Lekin u ko‘zlarini yumishga ham ulgurmagan ediki, nimaningdir muloyim kulrang tumshug‘i bo‘yniga turtdi.

– Fu! – dedi Kulrang Og‘a (bu Ona Bo‘rining bosh farzandi edi). – Xuddi odamlarga o‘xshab sendan ham og‘ilxona va tutun hidi anqib turibdi! Qurib ketsin, shu qo‘lansa isni hidlagani orqangdan yigirma mil masofani bosib kelishga arzimaydi-ya! Ko‘zingni och, ukajon, senga yangi xabar keltirdim.

– Changalzordagilarning barchasi sog‘-omonmi? – dedi Maugli uning bo‘ynidan quchoqlab.

– Qizil Gul taftidan kuygan bo‘rilardan boshqa hamma salomat. Endi so‘zimga quloq sol. Terimdagi kuygan yaralar bitguncha deb Sherxon yiroq manzillarda ov qilgani jo‘nab qoldi. Qaytib kelgach, sening suyaklaringni daryoga uloqtirishga qasam ichibdi.

– Ha, ko‘rarmiz, kim kimning suyagini daryoga uloqtirarkin. Men ham qasam ichib qo‘yganman. Shunday bo‘lsa-da, harqalay, yangi xabarlarni eshitish har qachon ham kishini quvontiradi. Men bugun ko‘rgan barcha yangiliklardan juda-juda horidim, Kulrang Og‘am, ammo qanday yangi xabar bilsang, so‘zlayver, jon deb eshitishga tayyorman.

– Bo‘ri ekaningni unutib qo‘ymaysanmi? Odamlar seni o‘z qarindoshlaringni unutib yuborishga majbur qilmasmikinlar? – deya xavotirlanib so‘radi Kulrang Og‘a.

– Hech qachon! Seni va g‘orimizdagi barcha yaqinlarimni jonimdan ham yaxshi ko‘rganimni hech qachon unutmayman. Biroq meni To‘dadan quvib yuborganlarini ham aslo yodimdan chiqarmayman...

…Uch oy mobaynida odamlarning gapini va urf-odatlarini qunt bilan o‘rganishga kirishgan Maugli qishloqdan tashqariga chiqmadi. Dastavval u o‘zini noqulay sezsa-da, beliga lungi o‘rab olishga majbur bo‘ldi. Keyin nimaga zarurligini bilmasa-da, pul sanashni, nima foyda keltirishiga aqli yetmasa-da, yer haydashni o‘rgandi. Qishloq bolalari unga kun bermay, mudom jig‘iga tegishardi. Biroq Changalzor qonuni Mauglini og‘ir-vazmin bo‘lishga o‘rgatgan, busiz o‘rmonda yashash va kun ko‘rish amrimahol edi. Goho Maugli qishloqi bolalar bilan o‘ynash yoki varrak uchirish-

Lungi – bel va songa o‘raluvchi mato parchasi.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 66 10/10/24 17:23

ni istamagani, ya'ni qandaydir so'zni to'g'ri aytolmagani uchun masxara qilganlarida ularni tutib olib, ta'zirini berish hech gap emasligini yaxshi bilsa-da, biroq u kichkina, ojiz bolalarni jazolash haqiqiy ovchi uchun sharmandalik ekanini o'ylab, indamay qo'ya qolardi.

…Bundan tashqari, odamlarni bir-biridan farq qiluvchi har turli tabaqalarga bo'lib yuborgan qoidalar to'g'risida Maugli hech qanday tushunchaga ega emasdi. Bir kuni kulolning eshagi chuqurga tushib ketganida Maugli uni chiqarishga yordamlashibgina qolmay, xo'qachalarini eshakka ortishib Kanhivar bozoriga jo'nab ketishiga ko'maklashib yubordi. Bu ishi hammasidan oshib tushdi. Chunki kulol past tabaqaga mansub edi (eshagi haqida so'z ochmasa ham bo'ladi). Kohin bu nojo'ya ishi uchun Maugliga qattiq tanbeh bera boshlaganida u achchiqlanib: "Shunday qilaversang o'zingni ham eshakka mindirib qo'yaman", – deb do'q urdi. Shunda kohin Messuaning eriga: "Bunday tashvishlardan qutulishning birdan bir chorasi – Mauglini tayinli ish bilan band qilib qo'yish", – deb maslahat berdi. Shundan keyin qishloq oqsoqoli Maugliga ertadan boshlab yaylovga borib, qo'toslar podasiga poyloqchilik qilishni buyurdi. Bu gap Maugliga juda ma'qul tushdi…

Xo'qacha – kichik ko'za, ko'zacha.

Ertalab Maugli Rama nomli eng haybatli qo'tosga minib olib, butun qishloq ko'chasini aylanib chiqdi. Ko'kimtir-kulrang, bahaybat shoxlari orqaga egilgan qo'toslar birin-ketin molxonadan chiqib, yetakchi Rama ortidan ergashib yo'lga tushdi. Maugli esa boshqa bolalarga endilikda bu yerda xo'jayin men, degandek kekkayib turardi. U qo'toslarni bambukdan yasalgan silliq cho'pontayoq bilan savalar ekan, Kamiy ismli bolani chaqirib: "Qo'tos podasi bilan uzoqroq o'tloqqa boraman, sigirlarni esa bolalarning o'zi boqsin, ammo-lekin bir qadam ham podadan nari jilishmasin", – deb tayinladi.

Hind o'tloqlari tosh, buta, qattiq tikanli o'tlar uyumi va yuza jarliklar bilan qoplangan bo'lib, poda yoyilib ketgach, ba'zan ko'zdan g'oyib bo'lib qolardi. Qo'toslar ko'pincha botqoqlik yaqinida o'tlar, payt topib oftobda qizigan balchiqqa yotib olib, soatlarcha unda maza qilib isinishardi.

Maugli podani Vayngang daryosining changalzordan chiqish yeridagi yalanglikka haydab borib, Rama ustidan sakrab yerga tushdi-da, darhol bambukzorga qarab yugurdi. U yerdan Kulrang Og'asini qidirib topdi.

– Ha, – dedi Kulrang Og'a, – necha kundan beri seni shu yerda kutaman. Nima qilib bu poda bilan o'ralashib yuribsan?

– Menga berilgan buyruq shunday, – dedi Maugli, – hozircha men qishloq cho'poniman. Xo'sh, Sherxon qayerda?

– U ablah yana bu yerga qaytib keldi. Seni shu joylarda ancha vaqt poylab yurdi. Biroq bu yerda o'lja kamayib ketgani sababli yana o'zga manzilga jo'nab qoldi. U seni o'ldirish qasdida.

– Juda soz! – dedi Maugli. – Hozircha Sherxon bu yerda yo'q ekan, sen yoki boshqa og'a-inilarim navbatma-navbat mana shu qoyada o'tirishsin, men qishloqdan sizlarni ko'rib turay. Agar Sherxon qaytgudek bo'lsa, yalanglik o'rtasidagi huv anavi jarlikdagi daraxt tagida meni kutib turinglar. Bekordan bekorga Sherxon panjasiga o'zingizni urishdan foyda yo'q…

Kunlar shu yo'sinda o'ta bordi... Nihoyat Maugli uzoq kutgan payt ham yetib keldi. Bir kuni odati bo'yicha podani haydab kelarkan, Kulrang Og'asini belgilangan yerda ko'rmadi.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 67 10/10/24 17:23

O‘zicha kulib qo‘ydi-da, podani jarlikda o‘sib yotgan va sarg‘ish-qizil gullar bilan qoplangan dxak daraxti tagiga haydadi. Bu yerda har bir tuki ignadek tikkaygan Kulrang Og‘a o‘tirardi.

– Seni chalg‘itish niyatida Sherxon butun bir oy mobaynida yashirinib yurgan ekan. Kecha tunda esa u Taboqi bilan birga tog‘dan oshib o‘tib, sening izingga tushgan, – dedi bo‘ri hansirab nafas olarkan.

– Sherxondan-ku qo‘rqmayman, biroq Taboqi o‘lgudek ayyor-da, – dedi Maugli qovog‘ini solib.

– Qo‘rqma, – dedi Kulrang Og‘a labini yalab, – men Taboqini tong paytida uchratdim. Hozir u o‘zining butun makr-u hiylalarini kalxatlarga so‘zlab beryapti. Ammo uning suyaklarini majaqlashdan avval uni gapirishga majbur qildim. Sherxon bugun tunda boshqa birovni emas, faqat seni qishloq darvozasida poylamoqchi. Hozircha u daryo yoqasidagi qurib qolgan jarlikda yotibdi.

– Bugun u ovqatlandimi, yo och qorin bilan ov qilmoqchimi? – deb so‘radi Maugli. Bu savolga olinadigan javob Maugli uchun muhim edi.

– Tong paytida Sherxon bir to‘ng‘izni tutib ovqatlangan, ustidan qonib suv ichib olgan. Esingda bo‘lsin, Sherxon hatto o‘ch olish arafasida ham qorin to‘yg‘izishni kanda qilmaydi.

– Eh nodon, nodon! Itvachchalarning itvachchasi! Qorin to‘yg‘izib, ustiga-ustak, bo‘kkunicha suv ichibdi-yu, miriqib uxlab olguncha meni lallayib kutib o‘tiradi deb o‘ylasa kerak-da! ...Kulrang Og‘a, sen podani ikkiga ajrata olasanmi?

– Bilmadim, bu ish qo‘limdan kelmas, ammo-lekin senga tadbirchan bir ko‘makdosh topib keldim.

Kulrang Og‘asi bir chekkadagi chuqurga sakradi. Chuqurdan Maugliga tanish bo‘lgan haybatli kulrang kalla yuqoriga ko‘tarildi va jazirama havoni faqat changalzordagina eshitilishi mumkin bo‘lgan, yuraklarni larzaga soluvchi vahimali uvullash ovozi tutib ketdi. Bu bo‘rilarning tush paytida eshitiladigan shartli na’rasi edi.

– Akela! Akela! – deb sevinganidan chapak chalib yubordi Maugli. – Meni hech qachon unutmasligingni bilardim. Ishimiz ko‘p. Akelajon, podani ikkiga ajrat. Buzoqli sigirlarni bir yerga, buqa va qo‘shchi qo‘toslarni esa boshqa bir yerga to‘pla.

…Mauglining rejasi oddiygina edi. U tepalar osha katta davra yasab o‘tib, jarlikning yuqori qismiga yetgach, buqalarni pastga haydab tushib, jardan chiqadigan yo‘lni to‘sib, Sherxonni buqalar bilan sigirlar oralig‘ida iskanjaga olishni mo‘ljallagandi. Qorni rosa to‘ygan Sherxonning jang qila olmasligini, jarlikdagi qiyalikdan yuqoriga o‘rmalab chiqolmasligini Maugli juda yaxshi bilardi. Endi Maugli ovoz chiqarib qo‘toslarni tinchlantirishga, Akela esa orqaroqda qolib ketganlarini to‘da tomon haydashga tutindi. Sherxonni cho‘chitib yubormaslik uchun ular ancha uzoqdan kelishga va jarlik bo‘yiga u qadar yaqinlashmaslikka harakat qilishdi. Nihoyat Maugli podani jarlikning tik o‘pirilib tushib, o‘t-o‘lanlar bilan qoplangan yeriga burdi. Tepadan qaraganda daraxtlarning uchidan ortda, pastlikda kattagina yalanglik ko‘zga tashlanardi. Lekin Mauglini yalanglik emas, jarning tik o‘pirilgan joylari qiziqtirardi. Chunki u bu tik o‘pirilmalar pechakgul va chirmovuqlar bilan qoplanganini, mabodo Sherxon ularga osilib, yuqoriga o‘rmalab chiqmoqchi bo‘lsa, uni ko‘tarolmay, ildiz-pildizi bilan yulinib ketishini yaxshi bilardi.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 68 10/10/24 17:23

– Ularga birpas dam ber, Akela, – dedi Maugli bir qo‘lini yuqori ko‘tarib, – ular hali yo‘lbars isini sezganlaricha yo‘q. Qo‘y, nafaslarini rostlashsin. Mana endi Sherxon o‘zidan ko‘rsin. Uni boplab qopqonga tushirdik.

U qo‘llarini og‘ziga tutib jarlik tomonga to‘g‘rilab bir qichqirgan edi, aks sado gumburlab ketdi.

Oradan ancha vaqt o‘tgachgina, qorni to‘q yo‘lbarsning uyqusirab irillagan tovushi eshitildi.

– Kim chaqiryapti? – deb irilladi Sherxon. Shu payt ajoyib bir tovus qattiq qichqirgancha jarlikdan parillab uchib chiqdi.

– Men, Maugli! Hoy sigir o‘g‘risi, tezroq tur, Kengash qoyasiga borish vaqti keldi! Akela! Ularni pastlikka hayda! Pastlikka! Rama! Pastlikka tomon yugur, pastlikka!

Poda jar bo‘yida bir daqiqagina sehrlangandek taqa-taq to‘xtab qoldi, shu zahoti-yoq Akela Ovchilar nidosini aytgan edi, xuddi kemalar sharsharadan tushishda suvga sho‘ng‘igandek qo‘toslar ham birin-ketin jarlik tomon sho‘ng‘iy boshlashdi. Shag‘al va qum to‘foni tevarak-atrofga otilib ketdi.

Poda oldinga siljidimi, uni to‘xtatib qolish oson emas. Ular jarlik tagiga yetar-yetmas Rama Sherxon sharpasini sezib qoldi-yu, birdan ma’ray boshladi.

– Qoyil! – dedi Ramaga minib olgan Maugli. – Mening nima demoqchi bo‘lganimni endi tushunding!..

Sherxon qo‘tos tuyoqlarining dupur-dupurini eshitishi bilanoq sapchib o‘rnidan qo‘zg‘aldi-yu qochib qolish uchun yo‘l axtarib jarlik etagiga tomon lapanglab yurdi. U jarlikning qayeriga yaqinlashmasin, tik qoyalarga duch kelar, qulay joy axtarib yana nariroq ketar, ishqilib, qanday qilib bo‘lmasin, to‘q qorin bilan jangga kirishmaslikning ilojini qilishga intilardi. Sherxon hozirgina kechib o‘tgan torgina yo‘ldagi ko‘lmak suv tomondan shalop-shulup va podaning ma’ragani eshitila boshladi. Maugli jar etagidan ma’rashga javob berilganini va Sherxonning orqaga o‘girilganini ko‘rib qoldi (Sherxon sigir va buzoqlarga duch kelgandan ko‘ra buqalar bilan jang qilishni afzal bilardi). Shu payt Rama bir qoqildi-yu qandaydir yumshoq narsani bosib o‘tdi va orqadan siqishtirib kelishayotgani uchun o‘zini to‘xtatib qololmay, shiddat bilan podaning boshqa to‘dasi orasiga urildi. Bu to‘qnashuv zaifroq qo‘toslarni holdan toydirdi. Shu yo‘sin, har ikki to‘dadagi qo‘toslar suzishib, pishqirib va tuyoqlarini do‘pirlatib yalanglikka chiqib qolishdi. Maugli bir zum kutib turgach, Ramaning ustidan sirg‘alib tushdi-yu qo‘lidagi tayoq bilan goh o‘ng tomonni, goh chap tomonni savalay ketdi...

Akela bilan Kulrang Og‘a goh oldinga, goh orqaga chopishib, qo‘toslarning oyog‘idan tishlashiga ham qaramay, ular yana jarlik bo‘ylab ketishga intilayotgan paytda Maugli epchillik bilan Ramaning boshini botqoqlik tomon burib yuborgan edi, boshqa qo‘toslar ham uning orqasidan ergashdi.

Sherxonni yana bir-ikki tepkilashning hojati qolmagandi. Chunki uning jonsiz tanasi yerda cho‘zilib yotar va uzoq-yaqindagi kalxatlar uning ustiga yopirilib kela boshlagan edi.

– Og‘aynilar, mana buni it o‘limi desa bo‘ladi! – dedi Maugli va odamlar orasida yashay boshlagandan beri bo‘yniga osib yuradigan pichog‘ining qinini ushlab qo‘ydi. – U aslida qo‘rqoq edi. Mabodo qorni och bo‘lgandayam, jang qilishga jur’at etolmasdi. Juda soz!

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 69 10/10/24 17:23

Uning terisi Kengash qoyasiga juda yarashadi-da. Tezroq ishni saranjom qilmoq zarur.

Fut – o'lchov birligi.

Odamlar orasida katta bo'lgan bolaning bir o'zi hech vaqt o'n fut keladigan yo'lbarsning terisini shilishga qo'l urmagan bo'lardi. Ammo hayvon terisi qanday tuzilganini hammadan ko'ra yaxshiroq bilgan Maugli o'ylab-netib o'tirmay, ishga kirishdi. Shunday bo'lsa-da, ancha og'ir ish bo'lganidan Maugli terini shilish va uni pichoq bilan qirtishlash uchun bir soatcha ovora bo'ldi. Bo'rilar esa tillarini osiltirib qarab turishar, agar Maugli buyursa, yaqin kelib terini tortib turishardi.

Mushket – XVI asrda ixtiro qilingan, taglikka o'rnatib, otiladigan miltiq.

Birdan kimningdir qo'li bolaning yelkasiga tegdi, Maugli boshini ko'tarib qarasa, qishloqning keksa ovchisi Baldeo qo'lida ingliz mushketi bilan turardi. Podachi bolalar hovliqqancha borib, qo'toslar quturib, har tomonga to'zg'ib ketdi deb butun qishloqqa jar solishgandi. Bu xabardan achchiqlangan Baldeo podaga beparvolik bilan qaragan Mauglига qanday jazo berishni oldindan o'ylab qo'yib, yo'lga chiqqandi. Odam sharpasi ko'rinishi bilanoq bo'rilar o'zlarini panaga olishgandi.

– Bu qanday bema'nilik? – jahl bilan so'radi Baldeo. – Yo'lbars terisini shilishni senga kim qo'yibdi?! Qo'toslar uni qayerda o'ldirishdi? Bilasanmi, boshi uchun hukumat tarafidan yuz rupiya va'da qilingan o'sha oqsoq yo'lbarsning o'zginasi-ku! Ha, mayli, podani to'zg'itib yuborganing uchun seni jazolab o'tirmayman buning ustiga, terini Kanhivarga oborib topshirgach, olgan mukofotimdan bir rupiya in'om qilarman.

U chaqmoqtosh bilan pilikni qo'liga olib, Sherxonning mo'ylovini kuydirib tashlashga chog'landi. Chunki Hindistonning jamiki ovchilari arvohi bezovta qilmasin deb o'ldirgan yo'lbarslarining mo'ylovini kuydirib tashlashadi.

Chaqmoqtosh – bir-biriga yoki temir parchasiga urganda o't chiqaradigan qattiq tosh.

– Himm! – dedi Maugli sekingina, yo'lbarsning oldingi oyoqlari terisini shilarkan. – Hali sen terini Kanhivarga oborib topshirasan-da, olgan mukofotingdan menga ham bir rupiya berasanmi? Teri o'zimga ham kerak bo'lib qolar deb o'ylayman. Hoy, qariya, yo'qol oloving bilan bu yerdan!

– Qishloqning manaman degan ovchisi bilan bunday behayolarcha gaplashishga qanday tiling bordi? Sen omad va qo'toslarning nodonligi tufayligina shundayin o'ljani qo'lga kirita olding. Yo'lbarsning qorni to'q bo'lsa kerak, bo'lmasa uni allaqachon bu yerdan yigirma mil narida ko'rarding. Hoy, tilamchi bola, hali terini qanday shilishni tuzukkina bilmaysan-u, yana bidir-bidir qilib, kimsan Baldeoga yo'lbarsning mo'ylovini kuydirma deb aql o'rgatasan-a! Yo'q, Maugli, endi mukofotdan senga bir chaqa ham bermayman, uning o'rniga boplab adabingni berib qo'yaman. Qani, yo'lbars tanasidan nari tur-chi.

– Menga tovon sifatida to'langan qo'tosning haqqi-hurmatiga qasam bo'lsinki, – dedi oldingi oyoqlardan terini shila turib Maugli, – nahotki bu qari maymun bilan g'ijillashishga yarim kunni sarflasam-a? Akela, bu yerga kel, bu odam meni bezor qildi-ku!

Sherxon ustiga engashgancha turgan Baldeo birdan uzalasiga yerga yiqildi, hushiga kelib, ko'zini ochsa, shunday boshi ustida kulrang bo'ri chaqchayib qarab turibdi, Maugli esa butun Hindistonda bir o'zidek teri shilishni davom ettirardi.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 70 10/10/24 17:23

– Shunday, – dedi tishlari orasidan cho‘zib Maugli. – Gaping to‘g‘ri, Baldeo. Mukofotdan biron chaqani ham menga berolmaysan. Men ko‘pdan beri, ehhe, juda ko‘pdan beri bu oqsoq yo‘lbars bilan qasdlashib yurardim. Endi mening omadim keldi!

Adolat yuzasidan aytish kerakki, bundan o‘n yil avval Baldeo o‘rmonda Akela bilan to‘qnash kelib qolgudek bo‘lsa, bo‘ri bilan olishishdan cho‘chimagan bo‘lardi. Biroq odamxo‘r yo‘lbarsda qasdi bo‘lgan bolaning amriga itoat qilgan bo‘ri – oddiy hayvonlardan emasdi, albatta. Bu ishda jodugarlik, juda xavfli sehrgarlik borga o‘xshaydi deb o‘yladi Baldeo…

– Nima deysan? – dedi Maugli o‘girilib ham qaramasdan teri shilishni davom ettirarkan.

– Allaqachon qarib, aqlim suyulib qolgan. Sen oddiygina cho‘pon bola emasligingni men qayoqdan bilay? Ruxsat etsang, o‘rnimdan turib, bu yerdan jo‘nab qolay. Yo xizmatkoring meni parcha-parcha qilib tashlamoqchimi?

– O‘rningdan tur-u yaxshilikcha bu yerdan jo‘nab qol. Esingda bo‘lsin, bundan buyon mening ishimga aralasha ko‘rma. Qo‘yib yubor, Akela!

Baldeo o‘rnidan tura solib, shosha-pisha qishloq tomon yurarkan, Maugli biron dahshatli maxluqqa aylanib qolmadimikin deb dam-badam orqasiga qarab qo‘yardi. Qishloqqa yetib olgach, uning boshiga yog‘dirilgan sehr va jodugarlik to‘g‘risida shunaqangi vahimali gaplarni aytdiki, kohinning jon-poni chiqib ketdi.

Maugli kechgacha bo‘rilar bilan tinimsiz ishlab, kattakon ola-bula terini shilib bo‘lganda atrofga qorong‘ilik tusha boshlagandi.

– Endi terini biron joyga yashirib, qo‘toslarni uyga haydash kerak. Akelajon, qo‘toslarni to‘plashga ko‘maklashib yubor!

Podani to‘plab, qishloqqa yaqinlashgan Maugli yonayotgan olovlarni ko‘rdi. Ibodatxonaning qo‘ng‘irog‘i tinmay jaranglab, karnaylar tinimsiz chalinayotganini eshitdi. Go‘yo qishloqning butun aholisi uni kutib olish uchun darvoza oldiga to‘plangandek edi.

Sherxonni o‘ldirganim uchun shunday kutib olishyapti, deb o‘yladi o‘zicha Maugli.

Biroq shu payt yonidan tosh yomg‘iri guvullab o‘tarkan, odamlar:

– Sehrgar! Jodugar! Bo‘ri suti emgan! Hoziroq daf bo‘l! Tezroq qimirla, yo‘qsa, kohin bir afsun bilan seni bo‘riga aylantirib qo‘yadi! Baldeo, ot, otsang-chi! – deya baqirishdi...

– Bo‘ri! Bo‘ri bolasi! Yo‘qol bu yerdan! – deb muqaddas tulsi daraxtining shoxini silkita-silkita jon-jahdi bilan baqirardi kohin.

– Yana shu gapmi? O‘tgan safar odam bo‘lganim uchun haydaldim. Bu gal esa meni bo‘ri deb quvlamoqdalar. Yur, Akelajon, ketdik bu yerdan!

Yo‘lni kesib, poda tomon chopib kelayotgan ayol sharpasi ko‘rindi. Bu Messua edi. U ovozining boricha:

– O‘g‘ilginam! Bolaginam! Ular seni jodugar deyishyapti. Istagan paytda yana bo‘riga aylanishi mumkin deb vaysayaptilar! Men bu gaplarga ishonmayman, lekin ketganing ma’qul, yo‘qsa, bu johillar seni o‘ldirib qo‘yadilar. Baldeo seni afsungar deyapti. Bekor gap. Sen Natxuginam uchun Sherxondan qasdimni olding, bunga imonim komil!

– Orqangga qayt, Messua! – deb baqirishdi odamlar.

– Qayt yaxshilikcha, bo‘lmasa seni ham toshbo‘ron qilamiz!

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 71 10/10/24 17:23

Maugli qisqagina qilib, g‘ijinib kulib qo‘ydi, chunki bir tosh kelib labiga teggandi.

– Orqangga qayt, Messua! Ularning bu gaplari oqshomlari anjir daraxti tagida aytiladigan navbatdagi uydirmadan boshqa narsa emas! Mayli, nima bo‘lsa ham, o‘g‘lingning xunini oldim. Alvido, endi tezroq o‘zingni chekkaga ol. Hozir men podani ular tomon haydayman. Podaning yopirilishi – ularning toshidan dahshatliroq! Messua, ishon, men afsungar emasman! Alvido!..

Shunday deb shartta orqasiga o‘girilib, Maugli So‘qqabosh bo‘ri hamrohligida yo‘lga tushdi. Osmonga boqib yulduzlarni ko‘rarkan, o‘zini baxtiyor his qildi.

– Akelajon, bundan buyon uy degan qafaslarda uxlamayman. Sherxonning terisini olamiz-u bu yerdan jo‘nab qolamiz. Esingda tut, qishloqqa hech qachon tegmaymiz. Axir bu yerda menga shuncha mehribonlik qilgan Messua yashaydi-ku!

Oy botishiga yaqin Maugli ikki bo‘ri hamrohligida Kengash qoyasi joylashgan tepalikka yetib kelib, Ona Bo‘ri uyasi oldida to‘xtadi.

– Ular meni odamlar to‘dasidan quvib yuborishdi, onajon! – deb qichqirdi Maugli. – Biroq men va’damning ustidan chiqib, Sherxonning terisini shilib qaytdim.

Ona bo‘ri bolalarini oldiga solib shoshilmay uyadan chiqdi va Sherxonning terisiga nazari tusharkan, ko‘zlari chaqnab ketdi.

– Yodingdami, Qurbaqacham, bu ablah seni talab qilib, uya og‘ziga boshi bilan yelkasini suqqanida men unga, kun kelib, ovchidan o‘ljaga aylanasan, degandim. Sen juda yaxshi qilibsan.

Shu choq chakalakzordan:

– Ajoyib ish qilibsan, ukajon! – degan muloyim tovush eshitildi. – Junglida sensiz juda zerikdik. – Bu Bagiraning tovushi edi. U yugurib kelib Mauglining yalang oyoqlariga tumshuqlarini surkab erkalandi.

Ular birgalashib Kengash qoyasiga ko‘tarilishdi. Maugli avvallari Akela o‘tirib hukmronlik qiladigan yassi tosh ustiga yo‘lbars terisini yozib, to‘rt chekkasiga bambuk qoziq qoqib qo‘ydi. Akela teri ustiga cho‘zilib yotib, Mauglini birinchi marta bu yerga olib kelganlaridek bo‘rilarni Kengashga chorlab chaqirdi: “Hoy, bo‘rilar! Ogoh bo‘ling! Eshitmadim demanglar! Hoy, bo‘rilar!”

Akelani tan olmay qo‘yganlaridan beri bo‘rilar To‘dasi yetakchisiz qolib, har qaysisi o‘z boshiga ov, o‘z bilganicha jang qilardi. Shunga qaramay, bo‘rilar qadimiy odatga ko‘ra, chaqiriqni eshitib, asta-sekin yig‘ilib kelishdi. Ulardan ba’zilari qopqonga tushib, cho‘loqlanib qolgan, ba’zilari esa sochma o‘q yeb, arang liqillab yurar, yana ba’zi birlari bo‘lsa muttasil o‘laksa bilan tamaddi qilganidan o‘lar holatga yetib qolgandi, ko‘pchilik bo‘rilar halok bo‘lgandi. Tirik qolganlarning barchasi Kengash qoyasiga kelishi bilanoq Sherxonning yassi tosh ustiga yozilgan va bo‘m-bo‘sh panjalarda osilib turgan bahaybat tirnoqlariga ko‘zlari tushdi.

– Yaxshilab qarang, hoy, bo‘rilar! Men o‘z ahdimning ustidan chiqibmanmi? – dedi Maugli.

– Chiqibsan, chiqibsan! – deb akillashdi bo‘rilar. Shunda qiltiriq bir bo‘ri uvlab turib:

– Hoy, Akela, qaytadan bizning yetakchimiz bo‘l! Hoy, bolakay, bizga boshchilik qilishni o‘z zimmangga ol! Qonunsizlik jonimizga tegdi! Yana qadimgidek Erkin xaloyiq bo‘lib qolaylik!

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 72 10/10/24 17:23

– Yo‘q, – deb miyovladi Bagira, – hech qachon ilgarigidek bo‘lmaydi. Qorinlaringiz to‘y-sa bormi, yana quturib ketasiz. Bekorga sizlarni Erkin xaloyiq deb atashmagan. Ozodlik uchun urush qildingizmi, ana sizga ozodlik. Endi o‘sha “ozodligingiz”ni pishirib yeng, bo‘rijonlar!

– Odamzod to‘dasi ham, bo‘rilar to‘dasi ham meni quvib yubordi, – dedi Maugli. – Endi men junglida yakka o‘zim ov qilaman!

– Biz ham doim sen bilan birga bo‘lamiz, – deyishdi baravariga to‘rtala bo‘ri bolasi.

Maugli shu kundan to‘rtala bo‘ri bilan changalzorda ov qila boshladi.

Ammo u bir umrga so‘qqabosh bo‘lib qolmadi. Oradan ko‘p yillar o‘tib, balog‘atga yetgach, uylandi…

Keling, suhbatlashamiz

1. Mauglining odamlar tilini ham tez o‘zlashtirishiga sabab nima deb o‘ylaysiz?
2. Maugli nima uchun odamlarni ahmoq hisoblab, “kulrang maymun” deb baholagan bo‘lishi mumkin?
3. Messuaning Maugliga birdan ijobiy munosabatda bo‘lishiga asosiy sabab o‘g‘lini kichikligida yo‘lbars olib qochganimi yoki bunga boshqa sabablar ham bor deb o‘ylaysizmi?
4. Kohin va Baldeo singari obrazlar tasviri qanday xarakterdagi insonlarni ko‘rsatib beradi?
5. Mauglining Sherxonni o‘ldirishdan asosiy maqsadi qasos olish edimi yoki bunga boshqa sabablar ham bor deb o‘ylaysizmi? Ularni sanab bering.
6. Mauglini eng og‘ir vaziyatlarda qo‘llab-quvvatlab turganlarni sanang. Ular nega shunday qilgan bo‘lishi mumkin?
7. Sherxonni yo‘q qilish rejasini tuzgan Mauglining zehniga baho bering. Bunda unga qaysi ko‘nikmalari yordam berdi deb o‘ylaysiz?

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 73 10/10/24 17:23



Topshiriq

Sinfdoshlaringiz bilan kelishgan holda 3 guruhga bo‘lining. Har bir guruh o‘ziga tegishli topshiriqni bajarsin. Keyin ularni birgalikda muhokama qiling.

Guruhlar	Topshiriq sharti
1	O‘qilgan parchalar asosida asardagi ona obrazlari (Messua va Ona Bo‘ri) haqida mulohazalaringizni bildiring. O‘xshash va farqli jihatlarni yozing.
2	Changalzor hayvonlarining odamlar to‘g‘risidagi, odamlarning esa ular haqidagi tasavvurlarida qanday o‘xshashlik va tafovutlar borligini yozing.
3	Bob so‘ngida bir bo‘ri: **“Qonunsizlik jonimizga tegdi”,** – deydi. Odamlar hayotida ham, hayvonlar yashash tarzida ham tartib-qoidalarning ahamiyati haqidagi fikrlaringizni yozing.



Uyga vazifa

Maugli kabi bolalarga duch kelsangiz, ularning nutqini o‘stirish (gapirtirish) uchun nimalar qilgan bo‘lardingiz? Bajariladigan ishlarning qadamma-qadam rejasini tuzing. Har bir qilinadigan ishga izoh yozing.




Loyiha ishi

O‘zimiz asar yozamiz!

Sarguzasht yoki hajviy yo‘nalishda kichik asar yozishni mashq qiling. Buning uchun qiziqarli va noodatiy syujet o‘ylang. Asaringiz uchun qahramonlar tanlab, ularga nom bering. Asarni yozishdan oldin voqealar rivojini qisqacha aks ettirgan reja tuzib oling. Uni sinfdoshlaringiz bilan muhokama qiling. Ta’tilda esa asarni kitob shakliga keltiring. Matnga qo‘shimcha tarzda uning mazmunini yoritishga, to‘ldirishga xizmat qiluvchi suratlar ham chizishingiz mumkin.

Muqovani bezang. Ta’tildan qaytgach, sinfda kitobingizning taqdimotini o‘tkazing.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 74 10/10/24 17:23



Hamid Olimjon turmush o‘rtog‘i shoira Zulfiyaxonim bilan.

Tanishing: HAMID OLIMJON

Hamid Olimjon 1909-yilning 12-dekabrida Jizzax shahrida dunyoga kelgan. U shoir, dramaturg, olim va jamoat arbobi sifatida faoliyat yuritgan.

O‘zining “Ko‘klam”, “Tong shabadasi”, “Daryo kechasi”, “O‘lka”, “Baxt” nomli to‘plamlari bilan o‘zbek adabiyoti rivojiga munosib hissa qo‘shgan iste’dod sohiblaridan biridir. U 1944-yilning 3-iyulida vafot etgan.

Shoirning onasi Komila aya xotiralaridan: *“... bolaginam yoshligidan boshlab cho‘pchaklarni tinglagani-tinglagan, o‘zi ham erta-yu kech nimalarnidir yozgani-yozgan edi. Uning qistovi bilan men kechalari ertak aytganim-aytgan edi. U men aytgan ertaklarga miriqmay turib uxlay olmasdi. Xalqning g‘aroyib ertaklariga juda qoyil qolardi, unga alohida manzur bo‘lganlari gashti bilan necha kunlar lol bo‘lib yurar edi… Men o‘sha yillarda Hamidni qiziq-qiziq ertaklar aytib uxlatardim. Hozir bo‘lsa, o‘g‘lim yozgan ertaklarni, dostonlarni o‘qib uxlayman”.*

O‘ylab ko‘ring

1. Yosh Hamid oyisidan eshitgan cho‘pchak, ertaklardan so‘ng “o‘zi ham erta-yu kech nimalarnidir yozgani-yozgan” ekan. Sizningcha, u nimalar haqida yozgan bo‘lishi mumkin?
2. Kattalar ham ertak o‘qib turishi kerak deb hisoblaysizmi? Nima uchun?

Mutolaadan oldin...

Aziz o‘quvchi, siz Vatan haqidagi she’rlarni o‘qiganingizda asosan nimalarga e’tibor qilgansiz? Ulardagi qaysi jihatlar ko‘nglingizdan chuqur joy olgan? Misollar keltiring. Quyida Hamid Olimjonning e’tiboringizga havola qilinayotgan she’ri ham Vatan haqida. Mutolaa davomida Vatan, u bilan bog‘liq tuyg‘ularning ifodalanishiga diqqat qiling. Nima uchun Vatan tuyg‘usi muqaddas va tengsizligi haqida o‘ylab ko‘ring.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 75 10/10/24 17:23

Zavqli mutolaa

O‘zbekiston


Vodiylarni yayov kezganda
Bir ajib his bor edi manda.
Chappar urib gullagan bog‘in,
O‘par edim Vatan tuprog‘in.
Odamlardan tinglab hikoya
O‘sar edi shoirda g‘oya.
Daryolardan kuylab o‘tardim,
Ertaklarga quloq tutardim.
Hammasini tinglardim, ammo
O‘xshashini topmasdim aslo.

***

O‘xshashi yo‘q bu go‘zal bo‘ston,
Dostonlarda bitgan guliston
O‘zbekiston deya atalur,
Uni sevib el tilga olur.
Chiroylidir go‘yo yosh kelin,
Ikki daryo yuvar kokilin.
Qorli tog‘lar turar boshida,
Gul vodiylar yashnar qoshida.
Chor atrofga yoyganda gilam,
Aslo yo‘qdir bundayin ko‘klam.
Tog‘lardagi qip-qizil lola
Bo‘lib go‘yo yoqut piyola,
Buloqlardan uzatadi suv,
El ko‘zidan qochadi uyqu.
Dalalarda boshlanadi ish,
Boshlanadi ijod va turmush.
Kundan kunga o‘sadi paxta,
Barg chiqadi har bir daraxtda.
Olmazorlar gulin to‘kadi,
Meva bog‘lab, shoxin bukadi.
Shaharlarda ishga chiqib el,
Odam bilan to‘lar tekstil.
Hammasining bir istagi bor,
Hammasi ham xursand, baxtiyor.
Bu o‘lkada har narsa bordir,
Ko‘rmaganlar doim xumordir.
Amu bilan Sirdan suv ichgan,
Zarafshonni loylatib kechgan
Chavandozlar bordir bu elda.
Bahor chog‘i pishqirgan selda
Arg‘umoqlar qo‘shig‘i bordir,
Bu shundayin ajib diyordir.
Dalasida o‘smas tikonlar,
Cho‘llarida chopmas ilonlar.
Qush uchganda kuymas qanoti,
Odam o‘tsa, qurimas zoti.
Chanqov qolib, yo‘lovchi o‘lmas,
Har burchakda boshkesar bo‘lmas.
Kulbalarni kelib bosmas qum,
Go‘daklarni yutmas och o‘lim.
Odamga baxt va tole yordir –
Bu shundayin ajib diyordir.

***

Bunda bulbul kitob o‘qiydi,
Bunda qurtlar ipak to‘qiydi,
Bunda ari keltiradi bol,
Bunda qushlar topadi iqbol,
Bunda qorning taglarida qish
Bahor uchun so‘ylaydi olqish.
Bir o‘lkaki, husnga boydir,
Uning eng zo‘r ko‘zgusi oydir.
Bir parcha o‘t bo‘lib bunda kun
Paxtasida ishlaydi har kun.
Botirlari kanal qazadi,
Shoirlari g‘azal yozadi,
Kuychilari o‘qiydi yalla,
Juvonlari aytadi alla,
Pazandasi yopadi shirmon,
Qarilari kutadi mehmon –
Bu shundayin ajib diyordir.



44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 76 10/10/24 17:23

***

Shuning uchun tinchdir ul ko‘ngul,
Shuning uchun osoyishdir ul.
Shuning uchun somonda yotmas,
Shuning uchun sovuqda qotmas.
Yovlariga osmon tutundir,
Shuning uchun bag‘ri butundir.
Shuning uchun yopinmagay xas,
Shuning uchun kiyinar atlas.
Shunday o‘lka doim bor bo‘lsin,
Shunday o‘lka elga yor bo‘lsin.
Omon bo‘lsin og‘aynilari,
Omon bo‘lsin do‘stlarning bari.
Doim bo‘lsin davlati omon,
Shunday bo‘lsin bu butun jahon.

***

Shaftolizor bog‘larni ko‘rdim,
Gul ko‘kargan tog‘larni ko‘rdim,
Mehr qo‘yib o‘pgan sari oq,
Oppoq bo‘ldi bu aziz tuproq.

***

Vodiylarni yayov kezganda
Bir ajib his bor edi manda...

Vodiy – daryo bo‘ylab cho‘zilgan yoki tog‘lar orasidagi keng tekislik; obod yer; mamlakatning bir bo‘lagi.
Chappar – birvarakayiga, yoppasiga, yalpisiga yuz bermoq. Bu o‘rinda daraxtlarning qiyg‘os gullashi ma’nosida qo‘llangan.
Kokil – bir o‘rim soch.
Tekstil – to‘qimachilik kombinati.
Arg‘umoq – zotli chopqir otlarga beriladigan umumiy nom.

Keling, suhbatlashamiz

1. Bahorda yam-yashil qir-adir, vodiylar bo‘ylab quloch yoyib yugurganmisiz? Yuzingizga urilgan yengil shabada va toza havodan to‘yib-to‘yib nafas olganingizda qanday “ajib his”larni tuygansiz?
2. Shoirning yurt kezib aytgan *“o‘xshashini topmasdim aslo”* tarzidagi iqrorini qanday tushundingiz? Siz yashab turgan joyda ham “o‘xshashi yo‘q” narsalar bormi? Fikringizni asoslashga urining.
3. *“Chiroylidir go‘yo yosh kelin, Ikki daryo yuvar kokilin”* misralarini o‘qiganingizda qanday manzara ko‘z oldingizga keldi? Shoir bu o‘rinda nimani nazarda tutgan?
4. She’rda *“qip-qizil lola”*ning *“yoqut piyola”*ga qiyoslanishidagi badiiy go‘zallikni angladingizmi? Xuddi shunday o‘xshatishlardan yana topib, ko‘rsating.
5. Sizningcha, *“El ko‘zidan qochadi uyqu”* deganda shoir nimani nazarda tutgan bo‘lishi mumkin? Bu ifodadan qanday tanish holat ko‘z oldingizga keldi?
6. *“Bunda qorning taglarida qish Bahor uchun so‘ylaydi olqish”* misralarida qanday tabiat hodisasi tilga olingan bo‘lishi mumkin?
7. Shoir *“Dalasida o‘smas tikonlar, Cho‘llarida chopmas ilonlar. Qush uchganda kuymas qanoti, Odam o‘tsa, qurimas zoti”* satrlari orqali nima demoqchi?



44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 77 10/10/24 17:23

Uyga vazifa

Sinfdagi o‘quvchilar bilan kelishgan holda 3 guruhga bo‘lining. Har bir guruh she’rda tilga olingan bitta daryoni tanlab, u haqida taqdimot tayyorlasin. Bunda quyidagi bosqichlarga amal qiling:

1-qadam. Guruh tanlagan daryo vatanimizning qaysi hududlaridan o‘tishini aniqlash.
2-qadam. Ushbu daryoning rasmlarini topish.
3-qadam. U bilan bog‘liq ekologik muammolarni aniqlash.
4-qadam. Ekologik muammolarga yechim bo‘ladigan 3 ta taklif tayyorlash.
5-qadam. Tayyorlangan ishni (yozma ish yoki taqdimot) navbatdagi darsda sinfdoshlar bilan muhokama qilish.

Tadqiq qilamiz

She’r va surat uyg‘unligini tadqiq qiling. Buning uchun quyidagi ikki bosqichni sinfda, uchinchi bosqichni esa uyda bajaring.

1-bosqich. Taniqli mo‘yqalam ustasi Ortiqali Qozoqovning quyidagi suratini sinchkovlik bilan kuzating.



44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 78 10/10/24 17:23

2-bosqich. Suratni “o‘qish”ni o‘rganamiz:

1. Tasvirda nimalarni ko‘rayotganingizni daftaringizga yozing. Qaysi obraz yoki detallar yaqin, o‘rta va olis masofada tasvirlanganini yozing.
2. Manzarada qanday daraxtlarni ko‘ryapsiz (ularning gullari, rang va shakllariga e’tibor qiling)? Javoblarni daftaringizga qayd eting.
3. Suratda e’tiboringizni tortgan jihatlar qaysi?

Uyga vazifa

3-bosqich. Tasviriy san’at asarini she’r mazmuni bilan qiyoslaymiz:

1. She’r bilan suratni taqqoslang. She’rdagi qaysi so‘z, ibora yoki jumlalar manzara mazmuniga mos keladi? Nima uchun?
2. Sizningcha, suratdagi yolg‘iz kulba nimaning ifodasi? Ufq, bulutlar, bog‘ tasviri-chi? She’r matnidan shu tasvirlarga uyg‘un satrlarni aniqlang va yozing.
3. Ikki san’at asari (she’r va surat)ning farqli jihatlarini yozing. Qaysi birining ta’sirchanligini yuqori baholaysiz? Javobingizni asoslang.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 79 10/10/24 17:23



Tanishing: JANNI RODARI

O‘zining yuksak iqtidori va beg‘ubor ko‘ngli, sarguzashtlarga boy ertaklari bilan dunyo bolalari ko‘ngliga yo‘l topgan, “Rimlik sehrgar” nomi bilan mashhur italyan yozuvchisi Jovanni (Janni) Franchesko Rodari 1920-yili Italiya shimolidagi Pyemont shahrida tug‘ilgan.

“Mening yozuvchi bo‘lib qolishim tasodifan yuz bergan, – deb eslaydi u. – Oldiniga skripkachi bo‘lishni orzu qilar edim va shu yo‘lda bir necha yil kamon chertishni o‘rgandim. Men yana rassom bo‘lishni ham orzu qilardim. To‘g‘ri, maktabda rasmdan doim yomon baho olganman, shunga qaramasdan goh qalamda, goh moybo‘yoqda rasm chizishni kanda qilmasdim. Xullas, boshqa bolalar singari men ham ko‘p narsalarni orzu qilardim, biroq ulardan qanchasi ro‘yobga chiqmay, orzuligicha qolib ketdi. Qaytanga nimani kamroq orzu qilgan bo‘lsam, shular ko‘proq amalga oshdi. Lekin ko‘nglimning bir chekkasida qandaydir ishonch bilan yozuvchilik sari uzoq tayyorgarlik ko‘rdim. Maktabda o‘qituvchilik qildim. To‘g‘ri, har jihatdan bekam-u ko‘st o‘qituvchi bo‘lgan edim deb aytolmayman... Ehtimol, quvnoq tabiatli o‘qituvchi bo‘lgandirman, chunki bolalarga turli-tuman kulgili voqealarni so‘zlab berardim… Afsuski, men bilgan ko‘pgina maktablarda bolalar juda kam kulishadi. Goho kulgi bilan ham odam ko‘p narsalarni o‘rganishi mumkin…”

Janni Rodari 1980-yilda vafot etgan.

O‘ylab ko‘ring

1. Yozuvchi va bolalar aks etgan yuqoridagi suratga diqqat qiling. Siz ham biror ijodkordan dastxat olganmisiz? O‘sha vaqtda ko‘nglingizdan nimalar kechgan?
2. Yozuvchining: *“Afsuski, men bilgan ko‘pgina maktablarda bolalar juda kam kulishadi. Goho kulgi bilan odam ko‘p narsalarni o‘rganishi mumkin”* , – degan fikriga munosabat bildiring. Quvnoqlik insonga qanday yordam beradi deb o‘ylaysiz?

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 80 10/10/24 17:23

Mutolaadan oldin...

“Hurishni bilmaydigan kuchukcha” ertagi Janni Rodarining “Uchtadan oxiri bor ertaklar” turkumiga kiradi. Ushbu turkumdagi ertaklarning barchasida uch xil tugallanma bor. Qiziq-a, bitta ertak uch xil tarzda tugasa?! Shunday ertaklarga oldin ham duch kelganmisiz?

Bugun uch xil yakunga ega bo‘lgan ajoyib-u g‘aroyib ertak bilan tanishamiz. Ushbu ertakda hurishni bilmaydigan kuchukchaga duch kelamiz. Tuppa-tuzuk kuchukchadan bir kuni hurishni bilish-bilmasligini so‘rab qolishadi – hammasi shundan keyin boshlanadi. Davomiga qiziqyapsizmi, marhamat, ertakni zavq bilan o‘qib chiqing.

Zavqli mutolaa

Hurishni bilmaydigan kuchukcha

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, hurishni bilmaydigan bir kuchukcha bo‘lgan ekan. U na hura olarkan, na miyovlay olarkan, na ma’rashni bilarkan, qisqasi, hech bir maxluq tilida gapirishni uddalay olmaydigan shunday bir go‘rso‘xta ekan. Asli-naslini so‘rasangiz, o‘zi bir mushtdaygina, juda ham oddiy kuchukcha ekan. Ilgarilari kuchuk asari ko‘rinmaydigan bir qishloqda uning qayerdan paydo bo‘lib qolganini hech kim bilmas ekan. Albatta, shundoq bo‘lgandan keyin “Men nega hurishni bilmayman?” degan o‘yni xayoliga ham keltirmas ekan. Lekin kunlarning birida uni savolga tutishibdi:

– Qiziq, sen nega hurmaysan?

– Hurish? Bu nima deganingiz? Axir men bu yerlik emasman, hurishni bilmayman...

– Obbo jinqarcha-yey. Nahotki hamma kuchuklar “vov-vov” deb hurishini bilmasang?

– Nimaga huradi?

– “Nimaga” deganing nimasi? Axir kuchuk bo‘lgandan keyin huradi-da. O‘tkinchilarga qarab huradi, ko‘ziga shubhali ko‘ringan mushuklarga huradi. Oyga qarab huradi, hayotidan mamnun bo‘lib huradi. Jahli chiqqanda, g‘ashi kelganda huradi. Ko‘pincha kunduz kunlari huradi, lekin tunda hurgan paytlari ham bo‘ladi.

– Gapingizda jon bor-ku-ya, lekin men...

– Sen kim bo‘psan? Yoki sen to‘g‘ringda gazetalarda yozishlarini xohlaysanmi?



44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 81 10/10/24 17:23

Kuchukcha nima deb javob berishini bilmay, jimib qolibdi. U hurishni bilmagani uchun ham uni qanday o‘rganishga aqli yetmasdi-da.

– Unday bo‘lsa, men nima qilsam, sen ham shuni qil, – kuchukchaga ichi achiganidan maslahat beribdi xo‘rozcha. U o‘zining jarangdor tovushi bilan bo‘ynini gajak qilib bir necha marta “Qu-qu-qu-quvvv” deb qichqiribdi.

– Bu sen o‘ylaganchalik osonga o‘xshamaydi, – debdi kuchukcha.

– Be, shu ham gap ekanmi? Yaxshilab quloq sol, mening tumshug‘imga diqqat qil. Qisqasi, men nima qilsam, sen ham shunday qil.

Xo‘rozcha yana “Qu-qu-qu-quvvv” deb qichqiribdi.

Kuchukcha unga taqlid qilmoqchi bo‘libdi-yu, biroq tomog‘idan qandaydir beo‘xshov ovoz chiqibdi xolos. Shu yerda donlab yurgan tovuqlar cho‘chib, har tomonga qochib qolibdi.

– Hechqisi yo‘q, – tasalli beribdi xo‘rozcha, – birinchi martaga juda yaxshi chiqdi. Endi esa takrorla, qani.

Kuchukcha yana bir marta qichqirishga urinib ko‘ribdi, biroq hech narsa chiqmabdi. Shunda u har kuni oz-ozdan mashq qila boshlabdi, goho o‘rmonga kirib ketarkanda, u yerda xalaqit qiluvchi hech kim bo‘lmay, ko‘ngli istagancha qichqirar ekan.



Kunlardan bir kuni ertalab u shunaqangi qotirib qichqiribdiki, azbaroyi ovozi tiniq va jarangdor chiqqanidan o‘zi ham zavqlanib ketibdi. Xo‘roz qichqirig‘i qulog‘iga chalingan tulkivoy o‘zicha: “Xudoga shukur, xo‘rozvoy holimdan xabar olgani keldi. Bu himmati uchun unga darrov minnatdorlik izhor qilib qo‘yishim kerak”, deb o‘ylabdi suyunib. U xo‘rozcha istiqboliga oshiqibdi. Albatta pichoq, vilka, salfetka olishni ham unutmabdi, chunki o‘zingizga ma’lum, tulki uchun dunyoda babaq xo‘rozdan mazaliroq taom bo‘lmaydi. Lekin babaq xo‘roz o‘rniga cho‘nqayib o‘tirgancha ovozining boricha pay-dar-pay “Qu-qu-qu-quvvv” deb qichqirayotgan kuchukchani ko‘rganda tulkivoyning qanchalik hafsalasi pir bo‘lganini aytmasa ham, o‘zingiz bilsangiz kerak.

– Eh, – debdi tulkivoy, – bu ahvolda qopqonga tushib qolmasam go‘rga edi.

– Qopqonga deysanmi? – ajablanib so‘rabdi kuchukcha.

– Ha-da. Men seni ataylab o‘zini o‘rmonda adashib qolganga solib, xo‘roz bo‘lib qichqiryapsanmi deb o‘ylabman. Yaxshiyamki, vaqtida ko‘rib qoldim seni. Lekin bunday ov qilish g‘irromlikdan boshqa narsa emas. Kuchuklar odatda ovchi kelayotganidan ogohlantirib, hurib ovoz beradilar.

– O‘lay agar, ov qilish mening xayolimga ham kelgani yo‘q. Men bu yerga faqat mashq qilgani kelganman.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 82 10/10/24 17:23

– Mashq qilgani deysanmi? Nimani mashq qilasan?

– Men hurishni o‘rganyapman, ancha o‘rganib qoldim ham. Quloq solgin-a, juda yaxshi hura olaman.

Shunday deya kuchukcha yana “Qu-qu-qu-quvvv” deb baralla qichqiribdi. Tulki ichaklari uzilgudek qotib-qotib kulibdi. Yerga dumalab, qornini ushlab shunaqangi kulibdiki, sira o‘zini to‘xtata olmabdi. Kalaka va kulgiga qolganidan kuchukcha qattiq xafa bo‘libdi – axir buni o‘rgangunicha ozmuncha mehnat qildimi?! Bechora yig‘lamoqdan beri bo‘lib, dumini qisgancha uyga qaytibdi.

Yo‘lda u kakkuga duch kelibdi. G‘amgin ketayotgan kuchukchani ko‘rib, kakkuning rahmi kelibdi va ko‘ngil so‘rabdi:

– Senga nima bo‘ldi, kuchukvoy, tinchlikmi?

– Hech narsa bo‘lgani yo‘q.

– Bo‘lmasa, nega buncha g‘amgin ko‘rinasan?

– Eh... so‘rab nima qilasan?.. Hamma balo hurishni bilmaganimda. Buning ustiga, birov o‘rgatib qo‘yay ham demaydi.

– Gap faqat shunda qolgan bo‘lsa, men senga ko‘z ochib yumguncha o‘rgatib qo‘yganim bo‘lsin. Yaxshilab quloq sol, men sayrayman: “Kuk-ku, kuk-ku!” Bildingmi?

– Unchalik qiyinga o‘xshamayapti...

– E, oppa-oson. Men juda kichkinaligimdan kukulashni bilaman. Qani, takrorla: “Kuk-ku, kuk-ku, kuk-ku, kuk-ku...”

– Ku, – sayrashga urinibdi kuchukcha, – ku...

U mana shu “kuk-ku”ni yana ko‘p marta takrorlabdi, o‘sha kuni kechgacha va ertasiga ham faqat shuni mashq qilibdi. Bir haftadan keyin esa qoyil qilib, o‘ylabdi: “Mana, nihoyat chinakam huradigan bo‘lib qoldim. Endi meni hech kim kalaka qilib, ustimdan kulolmaydi”.

Ayni shu kunlari ov mavsumi boshlangan ekan. O‘rmonda ko‘p ovchilar paydo bo‘libdi. Ular orasida to‘g‘ri kelgan tomonga va duch kelgan jonivorga qarab miltiq otaveradiganlari ham bor ekan. Agar ovozlari quloqqa chalingudek bo‘lsa, bulbulni ham ayab o‘tirishmas ekan. Ana shunday ovchilardan biri o‘rmonda ketayotib butalar orasidan “Kuk-ku, kuk-ku” degan ovozni eshitib qolibdi. Ovchi darhol miltig‘ini qo‘liga olib mo‘ljallabdi-da, ustma-ust “paq-paq” o‘q uzibdi.

Xayriyat, o‘q kuchukchaga tegmabdi. Naq qulog‘ining ostidan vizillab o‘tib ketibdi. Bechora kuchukchaning shunaqangi o‘takasi yorilibdiki, qochib ketayotib o‘zicha o‘ylar emish: “Hoynahoy, bu ovchining esi joyida bo‘lmasa kerak, bo‘lmasa, kelib-kelib hurishni biladigan kuchukka qarab o‘q uzadimi?..”

Ovchi esa bu paytda o‘ljasini qidirish bilan ovora ekan. U mo‘ljalni aniq urganiga shubha qilmagan ekan-da.

“Hoynahoy, otgan qushimni allaqayoqdan paydo bo‘lgan haligi kuchukcha ilib ketgan”, deb o‘ylabdi u.

Ovchi alamini bosish uchun inidan mo‘ralab turgan sichqon bolasiga qarab o‘q uzibdi, lekin u ham mo‘ljalga tegmabdi.

Kuchukcha bo‘lsa chopib ketaveribdi...

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 83 10/10/24 17:23

Ertakning birinchi yakuni

Kuchuk chopib ketaveribdi, ketaveribdi, bir vaqt bir sigir bemalol o‘tlab yurgan o‘tloqdan chiqib qolibdi.

– Qayoqqa shoshib ketyapsan, kuchukvoy?

– O‘zim ham bilmayman.

– Unday bo‘lsa, birpas to‘xtab, damingni ol. Bu yerning o‘tlog‘ini qara, ko‘m-ko‘k.

– Eh, gap o‘tloqda bo‘lganda-ku, o‘zim bilardim-a...

– Ha, nima bo‘ldi, tobing yo‘qmi?

– Undan ham battarroq. Men hurishni bilmayman.

– Seni qara-yu, dunyoda eng oson narsa shu-ku. Quloq sol: “Mo‘o‘, mo‘o‘, mo‘o‘”. Xo‘sh, qalay, yoqdimi?

– Durust. Lekin bir narsani ko‘nglim sezib turibdi, menga kerak bo‘lgan narsa bu emas. Chunki sen sigirsan...

– Ha, albatta, sigirman...

– Men esa sigir emas, kuchukchaman.

– Kuchukcha bo‘lmay, nimasan? Kuchukchasan. Xo‘sh, nima bo‘pti shunga? Mening tilimda gapirishni o‘rganib olsang, buning nimasi yomon ekan?

– Bu bilan sen juda zo‘r fikrni o‘rtaga tashlaganingni bilasanmi?

– Qanaqa fikrni?

– Mana hozirgina mening miyamga kelgan fikrni-da. Men barcha hayvonlar tilini o‘rganib olaman-da, sirkda tomosha ko‘rsataman. Hamma meni olqishlab, qarsak chaladi, men boyib ketaman va shoh qiziga uylanib olaman. Kuchuklar shohining qiziga, albatta...

– Barakalla, juda yaxshi o‘ylabsan buni. Qani, belni mahkam bog‘lab, ishga kirishaver. Yaxshilab eshitib ol: “Mo‘o‘, mo‘o‘, mo‘o‘”.

– Mo‘o‘... – o‘zicha g‘o‘ng‘illabdi kuchukcha.

Hurishni eplolmagan, lekin boshqa tillarni o‘rganishda zo‘r qobiliyatga ega bo‘lgan kuchukcha qaysi desa, hech ikkilanmay shuni ko‘rsatavering, yanglishmaysiz.

Ertakning ikkinchi yakuni

Kuchukcha chopib ketaveribdi, ketaveribdi... yo‘lda unga bir dehqon uchrabdi.

– Buncha shoshib qayoqqa ketyapsan, hoy, kuchukvachcha?

– O‘zim ham bilmayman...

– Unda men bilan yur. Menga senday bir kuchukvachcha juda zarur edi, tovuqlarimni qo‘riqlaysan.

– Siz bilan jon deb borar edim-u, lekin bir aybim bor – hurishni bilmayman.

– Ayni muddao-da. Hurishni biladigan kuchuklar faqat o‘g‘rilarga qo‘l keladi – cho‘chitib, o‘g‘rini qochirib yuboradi. Sening ovozingni esa o‘g‘rilar eshitmaydi, chunki sen hurishni bilmaysan. Ular bemalol yaqin kelishadi, shunda sen ularni shappa tutib olib, talab tashlaysan. O‘g‘rilar qilmishiga yarasha jazosini oladi.

– Bo‘pti, roziman, – javob beribdi kuchukcha.

Shu tariqa hurishni bilmaydigan kuchukcha o‘ziga munosib ish topib olibdi, bir umr bo‘yniga zanjir tushib, kunda bir kosa suyak uning nasibasi bo‘libdi.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 84 10/10/24 17:23

Ertakning uchinchi yakuni

Kuchukcha chopib ketaveribdi, ketaveribdi... Birdan qulog‘iga qandaydir maxluqning “Vov-vov, vov-vov” degan g‘alati ovozi chalinibdi-yu, taqqa to‘xtabdi.

“Qulog‘imga tanish va issiq eshitilyaptimi? – o‘zicha o‘ylabdi kuchukcha. – Garchi bu qanaqa jonivor ovozi ekanini bilmasam ham, yuragimga jiz etib teggandek bo‘ldi-ya”.

– Vov-vov.

“Balki, bu jirafadir. Yo‘q, bu timsoh bo‘lsa kerak. Ha, bu xuddi o‘sha badjahl timsoh... Ehtiyot bo‘lish kerak”.

Butalar orasida bekinganicha kuchukcha “vov-vov” degan ovoz kelayotgan tomonga emaklab ketibdi. E Xudoyim, bu ovoz uning yuragini bunchalik o‘ynatib yubormasa.

– Vov-vov.

Bu, hech shubhasiz, kuchuk bo‘lishi kerak.

To‘ppa-to‘g‘ri. Tag‘in kelib-kelib kimning kuchugi deng: kukulagan ovozni eshitib, o‘q uzgan haligi ovchining kuchugi bo‘lib chiqsa-ya!

– Salom, kuchuk.

– Salom, kuchukcha.

– Nega bunaqa ovoz chiqaryapsan?

– Ovoz? Bilib qo‘y, bu shunchaki ovoz emas, balki hurishdir.

– Hurish deysanmi? Hali sen hurishni bilasanmi?

– Bilganda qandoq! Axir ko‘rib turibsan-ku, filga o‘xshab dunyoni boshimga ko‘tarayotganim yoki sherga o‘xshab na’ra tortayotganim yo‘q.

– Unda menga ham o‘rgat hurishni.

– Iye, sen hali hurishni bilmaysanmi?

– Yo‘q...

– Unday bo‘lsa, quloq sol. Bu mana bunday qilinadi: “Vov-vov...”

– Vov-vov, – kuchukcha birdaniga hura ketibdi. Sevinchi ichiga sig‘may: “Nihoyat yaxshi ustozni topib oldim”, deb o‘ylabdi o‘zicha. Shu tobda undan baxtiyor maxluq yo‘qday tuyulibdi unga.

Amir Fayzullayev tarjimasi



Topshiriq

Yozuvchining quyidagi gaplarini diqqat bilan o‘qing: *“Ertaklarim bolalarning o‘z fikrlarini aytishlariga, kattalarga savol berishlariga, ulardan javob talab qilishlariga turtki bo‘lganini ko‘rsam, o‘n chandon suyungan bo‘lardim”.* O‘ylab ko‘ring-chi, yozuvchining maqsadi nima bo‘lishi mumkin? “Hurishni bilmaydigan kuchukcha” ertagidan so‘ng sizda ham qandaydir savollar tug‘ildimi? Agar shunday savollaringiz bo‘lsa, ulardan ikkitasini daftaringizga yozing va uning javobini kattalar (ustozingiz, ota-onangiz, opa-akangiz)dan so‘rang.

1-savolim: _____ * * * _____;

2-savolim: _____ * * * _____.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 85 10/10/24 17:23



Keling, suhbatlashamiz

1. O‘ylab ko‘ring-chi, kuchukcha nega ko‘p tovushlarga taqlid qila olgani holda o‘zining tabiiy tovushi bo‘lgan jo‘ngina hurishni bilmaydi? Sizningcha, buning sababi nimada?
2. Ertakning birinchi yakunidagi eng so‘nggi jumlani qayta o‘qing: *“Hurishni eplolmagan, lekin boshqa tillarni o‘rganishda zo‘r qobiliyatga ega bo‘lgan kuchukcha qaysi desa, hech ikkilanmay, shuni ko‘rsatavering, yanglishmaysiz”.* Bu gapda qanday ma’no yashirin deb o‘ylaysiz?
3. Diqqatingizni ertakning ikkinchi yakunida kuchukchaning hurishni bilmasligidan oqilona foydalangan dehqonga qarating. Dehqon ko‘rsatgan asosga munosabat bildiring. “Har ishning bir xayri bor” deganda nimani tushunasiz?
4. Ovchi itining ovozini eshitishi bilan hurishni bilmaydigan kuchukchaning yuragi o‘ynab ketgani haqida mulohaza yuriting. Nega shunday bo‘ldi deb o‘ylaysiz?
5. Ertakning uchinchi yakunida “...*kuchukcha birdaniga hura ketibdi*” degan ta’kid bor. Buni qanday izohlaysiz? Kuchukcha hurishni nega bu qadar tez va qiyinchiliksiz o‘rganib oldi? O‘zlikni anglash deganda nimani tushunasiz? Sizningcha, kuchukcha buning uddasidan chiqdimi?
6. Hurishni bilmaydigan kuchukcha bilan o‘z tilida so‘zlashni bilmaydigan odam o‘rtasida qanday o‘xshashlik va farqlar bor deb o‘ylaysiz?
7. Sizga ertakning nechanchi yakuni yoqdi? Nima uchun?



Uyga vazifa

1. Asarning uchinchi yakuniga tayangan holda kuchukchaning keyingi sarguzashtlarini tasavvur qilib, ertakning to‘rtinchi yakunini yarating.
2. "Adabiy ertak nima?" matni bilan tanishib keling.

Adabiy ertak nima?

Siz boshlang‘ich sinflardayoq ertak nimaligini, uning qanday belgilari borligini bilib olgansiz. Bilasizki, ertaklarni yaratuvchi mualliflar ma’lum bo‘lmaydi. Qadimda odamlar ertakni og‘zaki to‘qishgan bo‘lsa, keyinchalik ularni yozadigan ham bo‘lishdi. Bunday asarlar *adabiy ertaklar* deb yuritiladi. “Hurishni bilmaydigan kuchukcha” xuddi shu xildagi ertaklardan.

Payqaganingizdek, adabiy ertaklarning yaratuvchisi ma’lum bo‘lib, ular ham nasriy, ham she’riy yo‘lda yoziladi. Hamid Olimjonning “Oygul bilan Baxtiyor”, Anvar Obidjonning “Odil Burgutshoh” kabi she’riy yo‘lda bitilgan adabiy ertaklari bor. Janni Rodarining ertaklari esa nasriydir.

Yozuvchilar ba’zan xalq og‘zaki ertaklarini qayta ishlab, adabiy ertaklar yaratishadi. Aytgancha, o‘sha siz sevgan teleertaklarning ham ko‘pchiligi adabiy ertaklardir.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 86 10/10/24 17:23

Mutolaadan oldin...

- Sayohat qilishni yaxshi ko‘rasizmi? Sizningcha, sayohat insonga nima beradi?
- “Har yerning o‘z tosh-u tarozisi bor” degan naqlni qanday tushunasiz?

Zavqli mutolaa

Burchaklari yo‘q shahar

Yalqov Jovannino sayohat qilishni yaxshi ko‘rar ekan. U sayohat qilib yuraverib, bir ajoyib mamlakatga kelganini o‘zi ham sezmay qolibdi. Bu mamlakatdagi hamma uylarning burchaklari yumaloq emish, tomlarining cheti boshqa mamlakatlardagiga o‘xshab oldinga chiqib turmas, hammasi yuqoriga qayirib qo‘yilganmish. Ko‘cha yoqalab atirgul butalari chopib kelayotganmish. Jovannino atirguldan bittasini yulib olib, kamzuliga taqib qo‘ymoqchi bo‘libdi. Qo‘lini cho‘zibdi-yu, lekin tikani hecham qadalmabdi. Nega desangiz, tikanlarining uchi o‘tmas emish, ular xuddi rezinkadan qilingandan, qo‘lini qitiqlarmish.

Kamzul – astarli, oldi tugmali, ko‘ylak ustidan kiyiladigan yengsiz, yoqasiz, tizzagacha tushuvchi ustki kiyim.

– Bu mo‘jiza-ku! – debdi Jovannino.

Shu gapni aytib tugatmasdanoq butalar orqasidan tirjaygancha mirshab chiqib kelibdi.

Mirshab – soqchi.

– Atirgulni uzish mumkin emasligini bilmagandirsiz-a? – deb so‘rabdi u.

– Buni qarang, bu gap xayolimga ham kelmabdi-ya. Yaxshi ish bo‘lmadi, – deb javob beribdi Jovannino.

Pinokkio – italiyalik yozuvchi Karlo Kollodi qalamiga mansub “Pinokkioning sarguzashtlari” ertagining bosh qahramonlaridan biri.

– Unday bo‘lsa, jarimaning yarmini to‘laysiz, – debdi mirshab yoqimli kulimsirab.

Bu odam Pinokkioni qo‘g‘irchoqlar mamlakatiga olib ketgan o‘ta xushomadgo‘y odamdan sira qolishmas ekan. Mirshab yonidan daftarchasini olib, kvitansiya yoza boshlabdi. Shu payt Jovannino birdan uning uchi chiqarilmagan, ha, ha, mutlaqo uchi chiqarilmagan qalam bilan yozayotganini sezib qolibdi.



44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 87 10/10/24 17:23

– Voy! – deb yuboribdi Jovannino beixtiyor. – Kechirasiz, qilichingizni bir ko‘rsam maylimi?

– Marhamat, bemalol, – debdi mirshab.

Ha, xuddi shunday. Hatto qilichning ham uchi, tig‘i yo‘q emish.

– Bu qanaqa shahar o‘zi? – deb so‘rabdi Jovannino hayron bo‘lib.

– Burchaklari yo‘q shahar, – deb javob beribdi mirshab. U bu so‘zlarni shunday bir nazokat, iltifot bilan aytibdiki, har bir so‘zni katta harf bilan yozsa, arzir ekan.

– Unda mixni qanday qoqasizlar?

– Bilasizmi, biz mixni allaqachon ishlatmay qo‘yganmiz. O‘rniga yelim ishlatamiz. Endi sizdan iltimos, chakkamga ikki tarsaki tushirsangiz.

Jovannino og‘zini ochganicha angrayib qolibdi.

– Kechirasiz, – debdi g‘o‘ldirab. – O‘z vazifasini o‘tayotgan davlat kishisini haqorat qilib, qamoqda o‘tirishga toqatim yo‘q. Bundan tashqari, aslida men tarsaki yeyishim kerak-ku!

– Yo‘q, bizda shu rasm bo‘lgan, – deb tushuntiribdi mirshab xushmuomalalik bilan. – To‘la jarima – to‘rt tarsaki, yarim jarima – ikki tarsaki.

– Mirshabni-ya?

– Ha, mirshabni.

– Axir, bu adolatdan emas-ku! Bu – dahshat-ku!

– Juda to‘g‘ri, bu – adolatsizlik, bu – dahshat, – deb ma’qullabdi mirshab. – Odamlarimiz bu urf-odatni judayam yomon ko‘rishadi, hech bir gunohi yo‘q kishilarning yuziga tarsaki tushirish juda og‘ir, shuning uchun ular qo‘lidan kelgancha qonunning biror harfini ham buzmaslikka harakat qilishadi. Agar hozir siz yuzimga ikki tarsaki tushirsangiz, kelgusi safar ehtiyotroq bo‘lasiz.

– Sizning yuzingizga tarsaki tushirishni hecham istamayman! Hatto chertmayman ham! Silab qo‘yishim mumkin…

– Unday bo‘lsa, – debdi mirshab, – men sizni shahrimizdan tashqariga chiqarib qo‘yishim kerak.

Jovannino burchaklari yo‘q mamlakatdan chiqib ketishga majbur bo‘libdi. Biroq o‘sha yoqqa qaytib borishni, dunyodagi eng odobli odamlar orasida, bitta ham burchagi bo‘lmagan chiroyli, hashamatli uyda ozgina bo‘lsa ham yashashni hozirgacha orzu qilarkan.

Husan Ro‘zimatov tarjimasi



Keling, suhbatlashamiz

1. Sayohat qilishni yoqtiradigan bolakayni yalqov deyish to‘g‘rimi? Nima uchun?
2. Burchaklari yo‘q shaharda o‘rnatilgan tartiblar sizda qanday taassurot uyg‘otdi? Jazolash usuli-chi?
3. Mirshab nima uchun jarimaning yarmidan kechib yubordi? Matnga tayanib fikringizni asoslang.
4. Nima deb o‘ylaysiz, Jovannino nega mirshabga tarsaki tushira olmadi? Sizningcha, u qanday xarakterli bola?
5. Bunday g‘aroyib shaharni “o‘ylab topish” orqali muallif kitobxonlarga, bolajonlarga nima demoqchi?

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 88 10/10/24 17:23



Topshiriq

Janni Rodarining “Ertaklar bolalarni uxlatish uchun emas, uyg‘otish uchun aytiladi” degan fikriga qo‘shilasizmi? “Uyg‘otadigan” ertaklar qanday bo‘ladi? Yozma javob tayyorlang.



Uyga vazifa

Tasavvur qiling, siz burchaklari yo‘q shaharning maktabiga borib qoldingiz. U yerda qanday g‘aroyib qoidalarga duch kelishingiz mumkinligi haqida yozing.

O‘zimiz ertak to‘qiymiz

20–25 daqiqada ertak to‘qiy olish qobiliyatingiz borligiga ishonasizmi? Keling, sinab ko‘ramiz!

Janni Rodarining “Jelsomino yolg‘onchilar mamlakatida”, “Muzqaymoqdan qurilgan uy”, “G‘alati yomg‘ir”, “Ko‘k svetofor” kabi ertaklari ham bor. Bu ertaklarni hali o‘qishga ulgurmagansiz, hoynahoy! Mayli, hechqisi yo‘q. Shu nomlarda o‘zimiz ertak to‘qishga harakat qilamiz. Buning uchun quyidagi qadamlarni bosib o‘tishingizga to‘g‘ri keladi:

1-qadam. Sinfdoshlaringiz bilan kelishgan holda to‘rt guruhga bo‘lining. Guruhni ertak yoki ertak qahramonlaridan birining nomi bilan atang.

2-qadam. Jamoangiz bilan quyida berilgan mavzulardan birini tanlab, topshiriq sharti asosida ertak yozishga urining.

3-qadam. Belgilangan vaqt tugagach, ijodiy ishingizni guruh a’zolari bilan kelishgan holda o‘qib bering.

Ertak nomi	Topshiriq sharti
G‘alati yomg‘ir	Tasavvur qiling, bir kuni osmondan yomg‘ir emas, xilma-xil mevalar yog‘di. Bu qachon sodir bo‘lgani, qancha vaqt davom etgani, siz shu vaziyatda nima qilganingiz, do‘stlaringiz o‘zlarini qanday tutgani, siz yana qanaqa yomg‘ir yog‘ishini istashingiz haqida o‘ylab ko‘rib, qiziqarli ertak yozing.
Muzqaymoqdan qurilgan uy	Shunday uyni tasavvur qiling. Bu uyni kim qurgani, qayerda joylashgani, necha qavatdan iboratligini, shuningdek, devorlari, eshiklari, hatto ichidagi jihozlari ham mevali, qaymoqli va shokoladli muzqaymoqdan yasalganini ko‘z oldingizga keltiring. Kunlarning birida ana shunday ajoyib uyda barchani hayratga soluvchi qandaydir voqea sodir bo‘lgani haqida yozing.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 89 10/10/24 17:23

Yolg‘onchilar mamlakati	Shunday mamlakatga borib qolganingizni tasavvur qiling. U yerning ko‘rinishi boshqa joylardan nimasi bilan farq qilishi, aholisining qanday kiyimlarda yurishi, yashash tarzi, bozorlari, sizni nima deb aldashgani, yolg‘onni fosh qilishda sizga kimlar yordam bergani, qanday qilib o‘z uyingizga qaytib kelganingiz haqida ajoyib voqealar o‘ylang va ularni qog‘ozga tushiring.
Ko‘k svetofor	Bir kuni ko‘chalarga o‘rnatilgan svetoforlarning hamma chiroqlari faqat ko‘k rangni ko‘rsata boshlaganini tasavvur qiling. Uning qizil, sariq, yashil ranglari qayerga ketib qolgani, nima uchun arazlagani, odamlar ularsiz qanday qiynalgani, svetoforning esa go‘yo hech nima bo‘lmagandek, faqat ko‘k rangni xotirjam ko‘rsatib turganida qanday ma’no borligi, bu bilan u insonlarga nima demoqchiligi haqida yozing. Muammoni hal etish uchun uch xil yechim taklif qiling.


4-qadam. Boshqa guruhlarning ertaklari haqida fikr bildiring.

Uyga vazifa

Janni Rodari o‘z xotiralarida bunday yozadi: *“Kitob xoh qalin, xoh yupqa bo‘lsin, u peshtaxta yoki javonda chang bosib yotish uchun emas, balki zo‘r ishtaha bilan “paqqos tushirilish”, yuz minglab bolalar tomonidan osonlik bilan “hazm qilib yuborilish” uchun yozilishini tushungan odamning sadag‘asi ketsang arziydi”.* Ayting-chi, sizning kitob javoningizda ham shunday kitoblar bormi? Bor bo‘lsa, ularning ro‘yxatini quyidagicha tasniflab yozing.

Kitob guruhlari	Kitob nomlari	Sababi
Hali o‘qimagan kitoblarim:	* * *	* * *
O‘qishni boshlab, keyin to‘xtatib qo‘ygan kitoblarim:	* * *	* * *
Maza qilib o‘qigan kitoblarim:	* * *	* * *
Menga sovg‘a qilishlarini kutayotgan kitoblarim:	* * *	* * *

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 90 10/10/24 17:23



Tanishing: MASALLAR

Masal – **ramziylik-majoziylik** asosida **nasriy** yoki **she’riy** tarzda yoziladigan kichik hikoya. Unda **hayvonlar, qushlar** yoki **narsa-buyumlar** asosiy qahramon bo‘ladi. Insonlarga ayni shu hayvonlar yoki buyumlar vositasida murojaat qilinib, ulardagi kamchiliklar ko‘rsatiladi, xulosaga undaladi. Masalning eng muhim xususiyati – u to‘liq **tarbiyaviy maqsadga** yo‘naltirilgan bo‘ladi, masal yakunida esa **qissadan hissa,** ya’ni xulosa chiqariladi.

O‘ylab ko‘ring

1. Siz shu kunga qadar qanday masallar o‘qigansiz yoki eshitgansiz? Ular nimasi bilan yodingizda qolgan?
2. O‘qigan ertak, masallaringizda turli hayvon, qush va narsa-buyumlarning gapirishini qanday tasavvur qilgansiz? Agar ular hayotda rostdan ham odamlardek so‘zlay olganida olam qanday voqealarga boy bo‘lardi?

Biz siz bilan bir necha dars davomida **Ezop, Ivan Krilov** va zamonaviy o‘zbek masalchisi **Muxtor Xudoyqulov** qalamiga mansub masallar bilan tanishamiz, tahlil etamiz va kerakli xulosalar chiqarishga harakat qilamiz.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 91 10/10/24 17:23

Zavqli mutolaa

Ezop masallari



Bilib oling

Yunon masalchisi Ezop miloddan oldingi VI asrda yashagan. U qul bo‘lib, keyinchalik ozod qilingan. Donishmandligi bilan tanilgan Ezopning majoziy hikoyalari qadim davrlardayoq “Ezop masallari” nomi bilan jamlangan. Ushbu to‘plamdan uning 500 ga yaqin masali o‘rin olgan.

Echki va podachi

Podachi adashib orqada qolib ketgan echkini podaga qaytarib kelish uchun rosa urinibdi. U hushtak chalibdi, surnay chalibdi. Ammo bularning foydasi bo‘lmabdi: orqada qolib ketgan echki bu tovushlarga ahamiyat bermabdi. Oxiri podachi unga tosh otibdi, echkining shoxi sinibdi. Shunda podachi echkidan bu haqda xo‘jayiniga aytmaslikni iltimos qilibdi.

Echki bunday deb javob beribdi:

– Ey esi yo‘q odam, men indamaganim bilan shoxlarim hammasini aytib qo‘yadi-ku!



44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 92 10/10/24 17:23



Ikki do‘st va ayiq

Ikki do‘st o‘rmonda aylanib yurganida to‘satdan ayiqqa duch kelib qolibdi. Ulardan birinchisi shoshib daraxtga chiqib, ayiqning changalidan qutulib qolibdi. Ikkinchisi esa hech narsa qo‘lidan kelmasligini bilib, o‘zini o‘lganga yotib olibdi.

Ayiq yerda yotgan kishining oldiga kelib, qulog‘ini hidlabdi. Hatto uni turtib ham ko‘ribdi. Kishini o‘lgan deb o‘ylab, unga tegmasdan ketib qolibdi. Ayiq ketgach, yerdagi kishining do‘sti daraxtdan tushib kelib so‘rabdi:

– Do‘stim, ayiq qulog‘ingga nima deb shivirladi?

– U menga: “Qiyinchilik payti seni tashlab qochadigan kishi bilan do‘st bo‘lishni yaxshilab o‘ylab ko‘rmabsanda”, – dedi xolos, – deya javob beribdi do‘sti.

Sichqonlar kengashi

Mushukning doimiy xavf solishidan tushkunlikka tushgan sichqonlar muammolarini hal qilish uchun kengash chaqirishibdi. Ular birin-ketin bildirilgan rejalarni tahlil qilib, rad etaverishibdi. Oxiri bir yosh sichqon mushukning bo‘yniga qo‘ng‘iroq osib qo‘yishni taklif qilibdi.

– Qanday ajoyib fikr! – deb qichqirishibdi ular. – Bu – mushuk kelayotganini bilib, qochish uchun juda yaxshi ogohlantirish!

Ular bu taklifni zavq-shavq va olqishlar bilan qabul qilishibdi. Shunda keksa bir sichqon o‘rnidan turib:

– Bu rostdan ham juda yaxshi maslahat, shubhasiz, bizning muammomizni hal qiladi, – debdi. – Biroq mushukning bo‘yniga qo‘ng‘iroqni qaysi birimiz ilamiz?!



44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 93 10/10/24 17:23



Bo‘ri bilan laylak

Bo‘rining bo‘g‘ziga suyak tiqilib qoldi-yu, joni ko‘ziga ko‘rinib, yordam istab yugurgiladi. Baxtini qarangki, laylakka duch keldi: “Suyakni chiqarib tashlasang, mukofotlayman”, – deya va’dalar berib yordam so‘radi. Laylak tumshug‘i-yu boshini bo‘rining bo‘g‘zigacha tiqib, arang suyakni chiqarib oldi-da, va’da qilingan mukofotni talab qildi. Bo‘ri bunga javoban dedi: “Ha, azizim, bo‘rining og‘zidan boshing omon chiqqani kammi, yana mukofot deysan-a?!”

Feruza To‘xliyeva tarjimasi

Keling, suhbatlashamiz

1. Odamlar nima uchun o‘z fikrini masal yoki maqol aytib asoslashga, xulosa chiqarishga urinishadi?
2. Ezop masallarida qaysi insoniy sifatlar ulug‘lanib, qaysi salbiy jihatlar tanqid ostiga olingan? Sanab bering.
3. Qaysi masal sizga ko‘proq saboq bo‘ldi? Nima uchun?

Guruhlarda ishlang

Uch guruhga bo‘lining. Quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1. Har bir guruh o‘ziga tegishli savollarni muhokama qilsin.

	1-guruh uchun	2-guruh uchun	3-guruh uchun
Echki va podachi	Ushbu masalda qanday g‘oya ifodalangan? Podachining qilgan ishini qanday baholaysiz?	Masalda kim (nima) aqlliroq deb hisoblaysiz? Nima uchun?	Podachining echkini ortga qaytarish uchun tosh otishini qanday baholaysiz? Buning qanday majoziy ma’nolari bor?
Ikki do‘st va ayiq	Ayiq nega yerda o‘zini o‘lganga solib yotgan odamga tegmadi deb o‘ylaysiz? Tabiiy fanlardan olgan bilimlaringiz va kuzatuvlaringiz asosida javob bering.	Ayiqdan qutulish uchun kimning hiylasi ishonchliroq? Qaysi kishini uddaburonroq, qaysi birini tavakkalchi deb hisoblaysiz?	Ushbu masalda yerda o‘zini o‘lganga solib yotgan odamga ayiq rostdan ham: “Qiyinchilik payti seni tashlab qochadigan kishi bilan do‘st bo‘lishni yaxshilab o‘ylab ko‘rmabsan-da”, – degan bo‘lishi mumkinmi? Fikringizni asoslashga urining.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 94 10/10/24 17:23

Sichqonlar kengashi	Sichqonlarning voz kechilgan rejalarini taxmin qilib ko‘ring. Fikringizni asoslab bering.	Yosh sichqonning taklifiga munosabat bildiring. Siz ularga qanday maslahat bergan bo‘lardingiz?	O‘ylab ko‘ring, keksa sichqon bergan savoliga qanday javob olgan bo‘lishi mumkin? Taxminlaringizni asoslang.
Bo‘ri bilan laylak	Bo‘rining laylakka “bergan” mukofoti adolatdanmi? Fikrlaringizni izohlang.	Siz agar laylakning o‘rnida bo‘lib qolganingizda, bo‘ridan mukofot talab qilarmidingiz yoki yo‘q? Nima uchun?	Yomonlik qilmaslikning o‘zini yaxshilik deb hisoblovchi kimsalar haqida fikrlaringizni masal bilan bog‘lab ifodalang.

2. Har bir masal mazmunini ifodalaydigan hikmatli so‘z yoki maqollarni topib, daftaringizga yozing.

	Echki va podachi	Ikki do‘st va ayiq	Sichqonlar kengashi	Bo‘ri bilan laylak
1-guruh	* * *	* * *	* * *	* * *
2-guruh	* * *	* * *	* * *	* * *
3-guruh	* * *	* * *	* * *	* * *

Uyga vazifa

Ijodiy ish

Quyida taqdim etilgan xulosalardan birini tanlab, uning mazmunini ifodalaydigan kichik hajmli masal yozishingiz lozim. Bu jarayonda kattalar bilan maslahatlashing. Balki, ularning hayotida bo‘lib o‘tgan biron voqeani hayvonlar yoki buyumlar vositasida ifodalarsiz...

Do‘st bilan obod uying.

Yaxshilikka yaxshilik bilan javob qaytarish lozim.

Oltin olma, duo ol.

Nafs balosiga uchrasang, nobud bo‘lasan.

1-qadam. Xulosaga mos obrazlar tanlang. Ular hayvonlar yoki narsa-buyumlar bo‘lishini aniqlashtiring.
2-qadam. Masal uchun qiziqarli syujet o‘ylab toping.
3-qadam. Masal yozishni boshlang.
4-qadam. Oila a’zolaringizga o‘qib bering. Ularning tavsiyalari asosida ijodiy ishingizni tahrir qiling.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 95 10/10/24 17:23

Zavqli mutolaa

Ivan Krilov masallari



Bilib oling

Ivan Andreyevich Krilov (1769–1844) rus masalchiligining eng mashhur vakilidir. Uning birinchi kitobi – “Masallar” 1809-yili nashr qilingan.

Bo‘ri bilan qo‘zichoq

Daraxtning bo‘shini qurt yeydi doim,
Tarixda misollar juda ko‘p bunga.
Tarix to‘g‘risida qolaylik-da jim,
Bir ertak so‘ylaylik, quloq ber shunga.

***

Yozning issiq bir kunida
Qo‘zi bordi suv ichgali.
O‘z joniga qasd qilgandan
Xabari yo‘q uning hali.
O‘sha joyda och bo‘rining
Yurganini bilmaydi u.
Shu chog‘ birdan ro‘paradan
Bo‘ri chiqib qoladi-ku!
O‘z ishiga oz bo‘lsa ham
Qonuniy tus bermoq bo‘lib,
Qichqiradi qo‘zichoqqa
Ikki ko‘zi qonga to‘lib:
“Sen iflosni men bilaman,
Tumshug‘ingni suvga tiqib
Toza suvni bulg‘atasan!
Suv yuziga qolar chiqib
Tagidagi hamma loylar.
Toza bir suv icholmayman
Bu ariqdan yillar, oylar.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 96 10/10/24 17:23



Bu ishingga chidolmayman,
Tutib olib, bir yamlayman!”
Qo‘zi dedi: “Ey muhtaram,
Arzimni bir tinglasalar.
Mening hech bir gunohim yo‘q,
Menga g‘azab qilmasalar.
Yuz qadamcha pastdaman men
Janobingiz ichgan joydan.
Mening aslo xabarim yo‘q
Suv yuziga chiqqan loydan”.
“Demak, mening gapim yolg‘on,
Bu gunohing undan yomon!
Dunyoda yo‘q bunday bo‘hton!
Shoshma, hali sen yaramas,
Uch yil burun juda dag‘al,
Bir gap qilib eding menga!
Ko‘rsataman endi senga!”
“O‘tgan yili tug‘ildim-ku?”
“Unday bo‘lsa, akangdir u!”
“Na akam bor, na ukam bor”.
“Gap qaytarma, ey badkirdor!
Urug‘ingdir, aymog‘ingdir,
Biror og‘zi maymog‘ingdir.
Ulardan ham tonasanmi?
Tonmoq shunchalik osonmi?
Siz hammangiz bir bo‘lasiz!
Doim menga qasd qilasiz!
Hammang menga bir dardisar,
Hammasiga sen javobgar”.
“Taqsir, mening aybim nima?”
“Jim tur endi, ko‘p gapirma!
Surishtirib o‘tirishga vaqtim bormi?
Qorin ochsa, ovqat bo‘lsa – tanlanarmi?
Aybing shuki, uchrab qolding qornim ochganda!”
Shunday qilib, qo‘zichoqni yedi o‘rmonda.


Cho‘lpon tarjimasi

Keling, suhbatlashamiz

1. “Bo‘ri bilan qo‘zichoq” masalining birinchi misrasi – *“Daraxtning bo‘shini qurt yeydi doim”* satrining mazmunini tushuntirib bering. Nega masal ayni shu hikmat bilan boshlanmoqda?
2. O‘ylab ko‘ring: sizda ham qo‘zichoq bilan bo‘lgani kabi holat yuz berganmi? Aybsiz aybdor bo‘lib qolganingizda o‘zingizni qanday his qilgansiz? Kechinmalaringizni aytib bering.
3. Bo‘ri nima uchun 3 yil avvalgi “gap”ni eslab qoldi? Mulohazangizni dalillang.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 97 10/10/24 17:24

Kvartet



Kvartet – 4 kishilik guruh

Echki bilan eshakvoy va sho‘x bir maymun,
Yalpoq panjali ayiq o‘tloqda bir kun
Mashq qilmoqchi bo‘lishdi, atrof – daraxtzor,
To‘rt xil g‘ijjak va nota qo‘llarida bor.
Qoyil qilmoq bo‘lishdi olamni butun,
Kamonlarni tortdilar – kuy chiqmas nechun?
Shu vaqt qichqirdi maymun:
“To‘xtangiz biroz!
Biz bu xilda o‘tirsak, durust chiqmas soz!
Sen echkiga ro‘baro‘ o‘ltir, ayiqvoy,
Men bo‘lsam, eshak bilan turay yonma-yon.
Shunda chiqib mashqimiz albatta ravon,
Muqom qilar bizlarga tog‘-u tosh, o‘rmon!”
Almashtirib joylarni, boshladilar soz,
Baribir hech chiqmasdi yoqimli ovoz.
Shunda eshak hangrab der: “Shoshmang, bir gap bor!
Yaxshi chiqar kuyimiz o‘ltirsak qator.”
Ma’qul tushib bo‘ldilar to‘rtov yonma-yon,
Baribir kuy chiqmadi bu gal ham ravon.
Endi yana kuchaydi tortishuv, janjal:
Kim qayerda va qanday o‘ltirsin bu gal?
O‘rmondagi bu shovqin, g‘avg‘o, to‘polon
Bulbulni jalb ayladi o‘ziga shu on,
Shunda iltimos bilan bulbulga ular:
“Andakkina quloq sol, ey qush, – dedilar. –
Bizda nota, ham cholg‘u – bari narsa bor,
Yangramog‘i kerakdir bulardan navo.
Yalinamiz, jon qushcha, bo‘l bizga hamkor,
Faqat, aytgin, qay taxlit o‘tirmoq darkor?”
Bulbul dedi: “Bo‘lmoq-chun sozanda, mashshoq,
Uquv bilan kerakdir nozikroq quloq.
Siz-chi, aziz do‘stlarim, qanday o‘ltirmang,
Mashshoq bo‘la olmaysiz, ovora bo‘lmang”.

Shukur Sa’dulla tarjimasi

Keling, suhbatlashamiz

1. Nega kvartetchilar turli usullarni qo‘llashgan bo‘lsa-da, musiqa chalishni eplay olishmadi?
2. Kvartetchilar misolida qanday insonlar tasvirlangan?
3. Nima deb o‘ylaysiz, kvartetchilarga bulbul kelib qo‘shilganida, ular chalayotgan musiqa yoqimli bo‘lar edimi? Xulosangizni izohlang.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 98 10/10/24 17:24

Topshiriq

Kvartetchilarga 2 ta tavsiya yozing.

Uyga vazifa

Ijodiy ish

“Bo‘ri bilan qo‘zichoq” va “Kvartet” masallarini siz qanday yakunlagan bo‘lar edingiz? Ikkisiga yakuniy qism yozib, navbatdagi darsda o‘qib bering.

Zavqli mutolaa

Muxtor Xudoyqulov masallari



Bilib oling

Muxtor Xudoyqulov 1937-yili Farg‘ona viloyatining Rishton tumanida tug‘ilgan. Uning “Qoya va palaxsa”, “Daryo va po‘kak”, “Zirapcha”, “Qirq masal”, “O‘ylab topilmagan hikoyalar” kabi kitoblari chop etilgan.

Yo‘lbars bilan Mosh

O‘zini ko‘rmagan bo‘lsa-da garchi,
Yo‘lbarsning dovrug‘in eshitdi-yu Mosh
Dedi: “Bir o‘zimni sinab ko‘rsam-chi,
Yo‘lbars siyoqliman bo‘lsam hamki yosh…”
Orzuga ayb yo‘q, deydilar, ammo
Betayin orzu ham boshga bir balo…
To‘qayga keldi-yu, xullasi kalom,
Ta’zim bilan dedi: “Ey ustoz, salom!
Shogird bo‘lay deya keldim men sizga,
Kerakli yo‘l-yo‘riq o‘rgating bizga”.
Yo‘lbars qarasaki – g‘irvaygan maxluq,
Go‘layib turibdi ikki ko‘zi lo‘q.
Yelka qisib dedi: “Xo‘sh, ayt-chi, qani,
Senga o‘rgatishim kerak nimani?

Go‘layib – baqrayib, angrayib qaramoq.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 99 10/10/24 17:24



Mushuk chapdast dedi: “Yo‘lbarslikni-da…
Yoshligimdan orzu qilaman juda!”
“Himm… shunaqa de… – Yo‘lbars qashlar bosh,
– Oting nima edi? Ha, esladim, Mosh,
Gap bunday: ne qilsam – shuni qilasan,
Ishimizni o‘zing ko‘rib, bilasan…”
Qulluq qildi mushuk, boshi osmonda,
Yo‘lbars ov boshladi bir kun o‘rmonda,
“Ketimdan qolmagin”, – deya mushukni,
Quvlab ketdi ustoz uchqur kiyikni.
Jon holatda chopar shogird halloslab,
Ustoz o‘lja bilan ketdi olislab.
Harchandiki qildi – yeta olmadi,
Ustoz etagidan tuta olmadi.
“Ehtimol, – der mushuk, – yanagi safar
Qattiqroq urinsam – meniki zafar…”
Yana ov va lekin mushuk bechora
To‘qayda uloqib, bo‘lib ovora,
Qilolmay birorta yumushni udda –
Holdan toyib abgor bo‘ldi-ku juda…
“Ukam, senga juda qiyin bo‘ldiyov, –
Der yo‘lbars, – ilgari qilganmiding ov?”
“Ha, – der dum qisib Mosh, – sichqon ovlardim…”
“Shunaqa ekan-da, men ham payqadim,
Yaxshisi o‘zingning ovingdan qolma,
Bizning ish – og‘ir ish, ko‘nglingga olma…”
Ustoz o‘gitini olib quloqqa,
Mushuk astagina qaytdi qaznoqqa.
Ulug‘lar shuhratin qil, mayli, havas,
Lekin o‘z ishingni qoyillatsang bas!

Qaznoq – ombor, hujra.

Keling, suhbatlashamiz

1. Mosh yo‘lbarsdan nimalarni o‘rganishni maqsad qilgan bo‘lishi mumkin? Taxminlaringizni asoslashga urining.
2. Yo‘lbars nima uchun noshud shogirdiga qattiq dakki bermadi deb o‘ylaysiz?
3. Muallifning masalda keltirgan quyidagi ikki fikrini qiyoslang. Ularga qo‘shilasizmi yoki yo‘q? Javobingizga matndan tashqari dalillar keltirib asoslang.

Orzuga ayb yo‘q, deydilar, ammo *Betayin orzu ham boshga bir balo…*	*Ulug‘lar shuhratin qil, mayli, havas,* *Lekin o‘z ishingni qoyillatsang bas!*

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 100 10/10/24 17:24

Ikki kitob

Ittifoqo bir kun kitob javonida
Ikki kitob uchrashib qoldi.
Qalin, og‘ir kitob o‘zin yonida
Eskiroq kitobni ko‘rib, so‘z oldi:
“Voy-vuy, muncha qarib, ezilmasang-a?
Turqingga qaragin, bo‘lmaydi tanib.
Hech kimsa qayrilib boqarmi senga,
Yuribsan-da sen ham men kitobman deb.
Bizga tenglashishga kim qo‘yibdi, bee…
Noming bormi o‘zi, ayt-chi?”
– “Alifbe”,
– Deya javob berdi haligi kitob,
Hamrohi negadir jim qoldi shu tob.

Keling, suhbatlashamiz

1. “Ikki kitob” masalidagi qalin kitob jamiyatimizdagi qanday odamlarning timsoli?
2. Qalin kitob nima uchun yonidagi eski kitob “Alifbe” ekanini bilgach, jim qoldi deb o‘ylaysiz?
3. Odamlarning tashqi ko‘rinishiga qarab baho berish, sizningcha, qanchalik to‘g‘ri? Siz insonlarni qaysi jihatlariga qarab hurmat qilasiz yoki yoqtirmaysiz? Fikrlaringizni asoslang.
4. Tasavvur qiling: “Yo‘lbars bilan Mosh” masalida mushuk ustoz o‘gitiga quloq solmay, qaysarlik qilib turib olsa, yo‘lbars yana qanday yo‘l tutgan bo‘lar edi? Taxminlaringizni asoslang.

Uyga vazifa

Ijodiy ish

“Havas va harakat” mavzusida ijodiy matn yozing.

1-qadam. Kimga havas qilishingizni bayon etish uchun qahramon tanlab oling. Siz tanlagan qahramon yaqinlaringiz, do‘stingiz, mahalladoshingiz, kitob yoki kino qahramoni bo‘lishi ham mumkin.

2-qadam. Tanlagan qahramoningizni tavsiflang.

3-qadam. Havas qilgan qahramoningizdek bo‘lish uchun nimalar qilishingiz kerakligi haqida reja tuzing.

4-qadam. Matnni yozing.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 101 10/10/24 17:24



Tanishing: XUDOYBERDI TO‘XTABOYEV

Bolalar adabiyotining mashhur vakillaridan biri, O‘zbekiston xalq yozuvchisi Xudoyberdi To‘xtaboyev 1932-yil 17-dekabrda Farg‘ona viloyatining Katta Tagob qishlog‘ida tavallud topgan. Ota-onasidan erta yetim qolgach, bolalar uyiga joylashtiriladi. Bu haqda yozuvchining o‘zi bunday xotirlaydi: “*Chaldevor ota makonimiz edi. 1943-yili Toshkent “detdom”iga majburlab keltirilgan qo‘qonlik 13 bola uyga qochdik. Qo‘qongacha piyoda ketdik. Qishloqma-qishloq tilanchilik qildik. Duch kelgan joyda tunadik... Kuzning ilk oyida yo‘lga chiqqandik, so‘nggi kecha bir chuqurda tunadik – uyg‘onsak, ustimizga qor yog‘ibdi. Qishda uyga kirib bordik. Chunki och bo‘lsak ham, ota yurtimizda bo‘laylik, dedik. Dunyoda faqat o‘zbek farzandlarigina ota uyi chirog‘ini yoqsam deydi…*”

Yozuvchi “Omonboy va Davronboyning sarguzashtlari”, “Sariq devni minib”, “Sariq devning o‘limi”, “Besh bolali yigitcha”, “Qasoskorning oltin boshi”, “Yillar va yo‘llar”, “Shirin qovunlar mamlakatida”, “Mungli ko‘zlar”, “Jannati odamlar” kabi asarlari bilan xalq ko‘nglidan chuqur joy egallagan.

Xudoyberdi To‘xtaboyev 2021-yilda vafot etgan.

O‘ylab ko‘ring

1. 11 yoshli Xudoyberdining “detdom”dan qochishi, yo‘lda ko‘rgan-kechirganlari sizda qanday tuyg‘ularni junbishga keltirdi?
2. Yozuvchining *“...och bo‘lsak ham, ota yurtimizda bo‘laylik”* degan fikriga munosabat bildiring.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 102 10/10/24 17:24

Mutolaadan oldin...

Qadrli o‘quvchilar, orangizda “Sehrli qalpoqcha” kinofilmini tomosha qilmagan o‘g‘il-qiz bo‘lmasa kerak. Fikrimizcha, bosh qahramon Hoshimjonga o‘xshab sehrli qalpoqcha topib olishni, unga o‘xshab g‘aroyib sarguzashtlarni boshdan kechirishni istagan bolalar ham oz emas. Hech o‘ylab ko‘rganmisiz, Hoshimjon obrazining sevimli bo‘lishi sabablari nimada? Quyida siz tanishadigan “Sariq devni minib” romanidan ayrim parchalar mana shu savolga javob topishingizda yordam beradi deb umid qilamiz. Bu asar 1968-yilda yozilgan bo‘lib, bolalar uchun yaratilgan eng maroqli sarguzasht romanlardan biridir. Jahondagi ko‘plab tillarga tarjima qilingan.

1. Siz o‘zingizda qanday sehrli buyumlar bo‘lishini orzu qilasiz? Bunday buyumlar bilan qanday ishlarni amalga oshirgan bo‘lardingiz?
2. Qaysidir xatti-harakatingiz uchun boshqalarning oldida uyalib qolgan paytlaringiz bo‘lganmi? Xatongizni qanday tuzatgansiz?

Zavqli mutolaa

Sehrli qalpoqcha

(“Sariq devni minib” romanidan parcha)

I bob

Ko‘chaga quvildim

Tanishib qo‘yaylik: otim Hoshim, erkalatib chaqirmoqchi bo‘lsangiz, Hoshimjon deb aytasiz. Familiyam – Ro‘ziyev, Ro‘zivoy traktorchining o‘g‘liman. Ruxsat bersangiz, oilamiz haqida ham ikki-uch og‘iz so‘zlab o‘tsam: dadam ikki-uch yildan buyon cho‘lda buldozer haydab yer tekislaydi, oyimning aytishiga qaraganda, o‘sha tomonlarga ham paxta ekisharmish. Bir oyda, ba’zan ikki oyda bir kelib-ketadi. Kelganida har birimizga alohida-alohida sovg‘a-salom olib keladi. Sovg‘aning eng yaxshisi, albatta, menga tegadi. Oyim bo‘lsa uyimizdan uch yuz metr naridagi fermada sigir sog‘adi. Bir o‘zi 24 govmishga qaraydi. O‘tgan yili sutni ko‘p sog‘gani uchun medal olgan. O‘sha medalni oyimdan yashirib men ham ikki marta taqdim. Bir marta taqib bozorga borib, sabzi-piyoz olib keldim, ikkinchi marta taqib maktabga boruvdim, direktorimiz chaqirib olib, rosa urishdi.



“Sehrli qalpoqcha” filmidan lavha
Hoshimjon rolida Bunyod Rahmatullayev

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 103 10/10/24 17:24

Katta singlim Oyshaxon to‘rtinchi sinfda o‘qiydi. Hovlini supurish, idish-tovoqlarni yuvish o‘shaning bo‘ynida. Oyim uni: “Oppoqqinam, jonimning huzuri”, – deb erkalatgani-erkalatgan. Oyim uni bag‘riga bosib suygan kuni men ham biqinidan sekin chimdib:

– Puchuqqinam, – deb qo‘yaman.

Kichik singlimning oti Donoxon. Hozir birinchi sinfda o‘qiyapti. Oyimning aytishiga qaraganda, u katta bo‘lsa, albatta doktor bo‘larmish. Menimcha, undan doktor chiqmasa kerak. Nega desangiz, ko‘cha-ko‘yda hamshiralarga ko‘zi tushib qolsa, ukol qiladi deb tog‘dan tog‘ga qochadi. Tunov kuni maktab hovlisida oq xalat kiygan bufetchini ko‘rib, doktor keldi deb derazadan o‘zini tashlab qochibdi.

Rostini aytsam, o‘zim unchalik yomon bola emasman. Aql-hushim joyida, odobim ham chakki emas, oltinchi sinfning intizomli o‘quvchilaridanman. Bir xil, haligi sho‘x bolalarga o‘xshab ko‘cha changitib yurmayman. Yashirib nima qilaman, ko‘cha changitib yurgandan ko‘ra komandaga bo‘linib olib, to‘p tepgan yoki xoliroq joyga, masalan, oying harchand chaqirsa ham, ovozi yetmaydigan joyga borib olib, chillak o‘ynagan ming marta yaxshi.

– Hoshim! – deb chaqiradi ba’zan oyim.

– Labbay, oyijon?

– Tomdan o‘tin tashlab bergin.

– Xo‘p bo‘ladi, oyijon, – deyman-u sekin u yoq-bu yoqqa qarayman-da:

– Oysha! – deb qichqiraman.

– Labbay, akajon?

– Tomdan o‘tin tashlab bergin.

Chillak – bitta uzun, bitta kalta yog‘och bilan o‘ynaladigan bolalar o‘yini va shu o‘yinda ishlatiladigan ingichka tayoq.

– Xo‘p bo‘ladi, akajon, – deydi Oysha. Shunday demasa, ishlar chatoq. Och biqiniga musht borib tushadi. Ishqilib, oyimning gapini hech yerda qoldirmayman. Aytganini o‘zim bajarmasam, birovga bajartiraman. Aslini olganda, o‘zing bajarishing shart emas. Fermamizning mudiri Sirojiddin aka nuqul shunaqa qiladi. Raisdan biror topshiriq olib kelsa, a’zolarga topshiradi. Siz qanaqaligingizni bilmayman-ku, lekin men mudirlikka o‘xshash ishlarni yaxshi ko‘raman. Shu o‘ynayversang, o‘ynayversang, senga tegishli ishlarni birovlar bajaraversa, bajaraversa...

– Orif! – deb qichqiraman ba’zan.

Aytgandek, esimdan chiqib qola yozibdi, Orif bilan birga o‘qiymiz, bir partada o‘tiramiz. O‘zi pakanagina bola-yu, lekin boshi to‘la aql. Har qanday masalani ham ko‘z yumib-ochguncha ishlab tashlaydi, men ko‘z yumib-ochguncha ko‘chirib olaman. Goho biror joyini jo‘rttaga xato qilib ko‘chiraman, shunday qilmasam bo‘lmaydi-da, muallimimiz ko‘chirganimni bilib qoladi.

Shunday qilib:

– Orif! – deb chaqiraman.

– Nima deysan? – deydi Orif uyidan turib.

– Chiq, dars tayyorlaymiz.

– O‘zing chiqa qol.

Orif meni chaqirayotganini oyim eshitsin deb jo‘rttaga qayta-qayta so‘rayman:

– Nima deding?

Jo‘rttaga – atayin, ataylab.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 104 10/10/24 17:24

– O‘zing chiqa qol deyapman, nima, qulog‘ing karmi?

Papkani ko‘tarib sekin “quyon” bo‘laman. Chiqib tayyor vazifalarni apil-tapil ko‘chiraman-da, hali aytganimdek, ko‘cha changitib yurmayman-ku, to‘ppa-to‘g‘ri narigi mahallaga futbol o‘ynagani jo‘nab qolaman.

Apil-tapil – tezlik bilan, naridan beri, shosha-pisha.

Mana, bugun ham shunga o‘xshash rejalar tuzib, Orifni chaqiraman deb endigina kekirdagimni cho‘zayotgan edim, oyim:

– Hoshim, – deb chaqirib qoldi.

– Labbay, oyijon.

– Nega tovuqlarga don bermading?

Rost, ertalab oyim tovuqlarga don berib qo‘ygin, deb tayinlab ketgan edi. Butunlay unutgan ekanman. Endi nima qildim-a, ishqilib quloqning tagida shavla qaynamasa bo‘lgani!

– Nima dedingiz, oyi?

– Nega tovuqlarga don bermading, deyapman, nima, qulog‘ing devorning ostida qolganmi?

– Ovqatini o‘zlari topib yesin-da. Tokaygacha tekinxo‘rlik qilishadi, – deb gapni chalg‘itmoqchi bo‘ldim.

– Voy o‘lmasam, suvam bermaganga o‘xshaysan.

– Oyi, tovuqlar suv ichmaydigan bo‘lib ketgan...

– Shunaqami?

– Ha, shunaqa...

Nojo‘ya gap aytib qo‘ygan bo‘lsam kerak, oyim katta kaltakni olib quvlashga tushdi. Uch marta hovlini aylandim-da, ko‘cha eshik oldiga borib, egilib salom berdim va bir hatlab o‘zimni tashqariga oldim. O‘sha yerdan turib:

– Bir haftadan beri suv berganim yo‘q. Tuxumini biryo‘la poroshok qilib tug‘aversin! – deb baqirdim.

– Teringga somon tiqmasammi! – dedi oyim tayoqni o‘qtalib.

“Tamom” deb o‘yladim ichimda. Nega desangiz, kecha ham shunga o‘xshashroq bir voqea bo‘lib o‘tgan edi. Har kuni darsdan qaytganimda oyim:

– Hoshimjon, bugun qanaqa baho olding, o‘g‘lim? – deb so‘raydi.

– Besh-da, oyijon, bizniki doim besh! – deyman.

– Barakalla, – deydi oyim. Keyin o‘zim yaxshi ko‘rgan shokoladdan ikki-uchta uzatib: – Bor, endi birpas o‘ynab kelgin, – deydi. Kun botguncha maza qilib o‘ynab yuraman.

Kecha oyim negadir bahoni so‘ramadi-yu, qani, “Kundaligingni bir ko‘rsat-chi”, deb qoldi. Rang-qutim o‘chib ketdi, nega desangiz, ishning bu yog‘i sal ishkalroq edi-da.

– Kundaligim o‘qituvchimizda qolgan, – deb qutulmoqchi bo‘ldim.

– Papkangni och, deyapman!

Boshqa ilojim bo‘lmaganidan papkani ochib, sekin kundalikni chiqarib berdim.

– Bu nima? – so‘radi oyim.

– Ikki.

– Bunisi-chi?

– Uch.

– Nega yolg‘on gapirding?

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 105 10/10/24 17:24

– Kim yolg‘on gapiribdi, – dedim bo‘sh kelmay, – ikkovini qo‘shsa, besh bo‘ladi, oyijon!

– Shunaqami?

– Shunaqa...

Oyim qoshlarini chimirib, qo‘llari qaltirab, kundalikni varaqlashda davom etdi.

– Bu nima?

– Ikki, oyijon.

– Bunisi-chi? Xo‘p, mana bunisiga nima deysan?

– Hech narsa deyolmayman, lekin, oyijon, uchovini qo‘shsa, besh bo‘ladi.

– Shunaqami?

– Shunaqa…

– Hu o‘sha...

Fizkulturadan qilgan mashqlarim mana shu paytda qo‘l kelib qoldi. Bir sakragan edim, o‘zimni hovlining o‘rtasida ko‘rdim. Bu gal kaltak yeyishim aniq bo‘lib qoldi.

– Sen hali shoshmay turgin! – dedi oyim dag‘dag‘a qilib.

Shunday qilib desangiz, kecha mana shunaqangi dilsiyohlik bo‘lib o‘tgan. Hozir ko‘chaga chiqib, shularni o‘ylab yuragim siqilib ketdi. Singlimni uyga kiritib, papkani oldirib chiqdim-da, uy vazifalarini ko‘chirib olish uchun Oriflarnikiga kirdim.

– Orif yo‘q, – dedi oyisi, – magazin tomonga ketuvdi.

– Orif meni papkamni olib kelgin deb yubordi, – dedim. Nega desangiz, agar papka qo‘lga eson-omon tegib qolsa, ichini ochib, uy vazifalarini ko‘chirib olishni mo‘ljallagan edim.

– Papkasini o‘zi bilan olib ketuvdi-ku.

– Bo‘lmasa, o‘g‘lingiz meni aldapti-da, – dedim sir boy bermay.

Endi nima qildim? Juda boshim qotib qoldi-ku. Biryo‘la uch fandan vazifa berilgan edi, bittasini ham bajarganim yo‘q. Hozir negadir Orifni tutib olib, do‘pposlagim, biqiniga, boshiga rosa mushtlagim kelib ketdi. Qani endi qo‘limga tushsa-yu, bir alamimdan chiqsam!

Ancha vaqtdan buyon direktorimiz nomiga to‘rt-beshtamiz birlashib talabnoma yozmoqchi bo‘lib yuruvdik. Maktabga borib, o‘shani yozishga kirishdim.

Pushkin nomidagi maktab direktori o‘rtoq O. Azizovga o‘quvchilar nomidan

Ariza

Biz o‘quvchilar so‘nggi paytda juda qiynalib ketdik, uy vazifalari ko‘paydi, bajarishga vaqt yo‘q. Shuning uchun quyidagi fanlarni dars jadvalidan vaqtincha bo‘lsa ham olib tashlashingizni so‘raymiz: algebra, geometriya, ona tili. Umuman olganda, bu fanlarning hech kimga keragi yo‘q. Boshni qotiradi xolos. Ularning o‘rni bo‘sh qolmasin desangiz, futbol haqida fan bo‘lsa, o‘shani kiritsa ham bo‘ladi. O‘qituvchilikka, agar xo‘p desa, o‘rtoq Gennadiy Krasnitskiyni olib kelish kerak. Talabimizni amalga oshirsangiz, hamma fanlardan besh olib o‘qishga so‘z beramiz, sho‘xlik qilmaymiz. O‘quvchilar nomidan: Hoshimjon Ro‘ziyev.

Gennadiy Krasnitskiy – o‘zbekistonlik mashhur futbolchi, sport ustasi.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 106 10/10/24 17:24

Talabnomani yozishga yozib qo‘ydim-u, lekin direktorning oldiga kirishga botinolmay qoldim. O‘rnimdan turay desam deng, tizzam dag‘-dag‘ qaltiraydi. Ko‘zimni chirt yumib shartta turdim-da, shu holda sekretar qizning hoyhoylashiga ham qaramay, to‘ppa-to‘g‘ri Otajon Azizovning kabinetiga kirib bordim.

– Xizmat? – so‘radi direktor.

– Salom, domla! – dedim ko‘zimni ochib.

– Salom.

Indamasdan talabnomani uzatdim. Yo‘q, ishim yana o‘ngidan kelmadi. Otajon Azizov naq bir soatcha nasihat qildi. Men ro‘yxatdan o‘chirib tashlamoqchi bo‘lgan fanlar juda foydali emish, ularni puxta egallamasdan turib, kishi agronom ham, injener ham, zootexnik ham bo‘la olmas emish. U desam, bu dedi, bu desam, u dedi, xullas, oxiriga borib hech gap topolmay qoldim. Ichimda esa “Algebra o‘qigandan ko‘ra oyimdan kaltak yeganim ming marta yaxshi edi”, deb turibman.

– To‘g‘rimi? – deb so‘radi oxirida Otajon Azizov.

– Noto‘g‘ri! – dedim ko‘zimni shiftga tikib, – Uchastkamizning agronomi Anorvoy tog‘a hech joyda o‘qimagan-ku.

– Endi o‘qiyman deb turganida urush boshlanib qolgan, sen bilan mening hayotimizni saqlash uchun frontga ketgan, – deb tushuntira boshladi Otajon Azizov. Keyin u yog‘ini yana nasihatga ulab yubordi...

O‘zi ishing bir ortga ketsa, hech o‘ngarib bo‘lmas ekan. Bu ko‘ngilsizliklar ozlik qilgandek, o‘sha kuni yana ketma-ket yomon baholar oldim. Birinchi dars “jon-dilimdan yaxshi ko‘rganim” algebra edi, albatta. Qo‘ng‘iroq chalinishi bilan yuragim shig‘illab ketdi. Qo‘ng‘iroq xuddi qornimning ichida chalingandek ko‘nglimni ozdirib yubordi. O‘qituvchi ko‘rib qolmasin deb oyoqlarimni oldingi partaning ostiga uzatib, faqat boshimnigina chiqarib o‘tirardim.

– Ro‘ziyev? To‘g‘ri o‘tirib ol! – dedi Qobilov.

To‘g‘ri o‘tirib oldim.

– Ro‘ziyev, qani, ayt-chi, avvalgi darsda nimani o‘tuvdik?

Sekin o‘rnimdan turib, yonginamda o‘tirgan Orifni turtdim. U bo‘lsa teskari qarab, go‘yo hech narsadan xabarsizdek jim o‘tirardi.

– Tezroq gapir! – qistadi muallim.

Bu gal men ham Orifni qattiqroq turtgan edim, ko‘zlari ola-kula bo‘lib ketdi-yu, qo‘rqqanidan pichirlay boshladi. U nima desa, oqizmay-tomizmay men ham takrorlab turdim.

Sinfda gurullab kulgi ko‘tarildi. O‘zim ham maza qilib kulgiga qo‘shildim. Keyin bilsam, “teng” so‘zi o‘rniga “yeng” deb yuborgan ekanman. “Qani, ta’rifni ayt-chi”, – dedi muallim kulgini bosib.

– Tilimning uchida turibdi-yu, aytolmayapman, – dedim go‘yo aytishga qiynalayotgandek. Shunday deyman-u xonaning shiftiga, derazaga, doskaga qarayman. Oradan uch-to‘rt minut o‘tgach: – Aytasanmi, yo‘qmi? – deb so‘radi yana o‘qituvchimiz.

Agronom – agronomiya mutaxassisi. Agronomiya – qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi, uning qonun-qoidalari haqidagi fan; qishloq xo‘jaligi va dehqonchilikka doir nazariy-amaliy bilimlar majmuyi.

Injener – texnikaning biror sohasi bo‘yicha oliy ma’lumotga ega bo‘lgan mutaxassis; muhandis.

Zootexnik – zootexnika mutaxassisi. Zootexnika – chorvachilikni rivojlantirish, chorva mollarini asrash, parvarish qilish bilan shug‘ullanadigan fan sohasi.

O‘ngarib – o‘nglab.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 107 10/10/24 17:24

– Aytaman, domlajon, albatta aytaman.

– Ayt axir, bo‘lmasam.

– Mana hozir, tilimning uchida turibdi.

– Tilingning uchi qursin seni, o‘tir, – deb yubordi o‘qituvchimiz.

O‘sha kunni eslasam, hozir ham yuragim orqaga tortib ketadi. Rostini aytsam, tug‘ilganimga ming bor pushaymon bo‘ldim. Lekin darsdan qaytayotganda men ham bo‘sh kelmadim, Orifdan boplab o‘chimni oldim.

– Menga qara, – dedim chinorning tagiga yetganda biqiniga turtib, – nega mening kuchugimni urding?

– Qachon uribman?

– O‘tgan yili urganding-ku!

– Hecham urganim yo‘q.

– Urgansan, mana bunday qilib urgansan, – dedim-da, boshiga bir musht tushirdim. Keyin... u yog‘ini o‘zingiz ham bilib turgan bo‘lsangiz kerak, kattagina mushtlashish bo‘ldi. Bolalarning yarmi Orif taraf bo‘lishdi, yarmi – men taraf. Kiyim-boshlarimiz dabdala bo‘ldi, yuzlarimiz qonga bo‘yaldi...

Lekin men xursand edim, o‘ch olganimdan xursand edim, yuz-ko‘zi demay, savalaganimdan o‘zimda yo‘q shod edim. To‘g‘ri-da, hadeb beshlarni u qatorlashtirib olaveradi-yu, mening boshim ikkidan chiqmas ekan-da. Menga ham uncha-muncha yordamlashib tursa, bir joyi kamayib qoladimi?!

Xullas, kayfim chog‘ edi. Xursand holda ashulani vang qo‘yib uyga qaytardim. Qorin ham ochgan, oyijonim pishirib qo‘ygan palovjonni ko‘z oldimga keltirib, har zamonda lablarimni chapillatib qo‘yaman. Hozir borib palovxonto‘rani pok-pokiza tushiraman-u, qorinni qashlab yotib, televizor ko‘raman deb o‘ylayman-da, ashulaning avjiga chiqaman.

Ko‘cha eshigimiz ichkaridan zanjir ekan. Taqillatdim. Tirqishidan qarab turibman. Bir mahal tayoq ko‘tarib asta-sekin chiqib kelayotgan oyimga ko‘zim tushib qolsa bo‘ladimi!

– Kim bilan mushtlashding?! – eshikni ochgan oyijonimning birinchi savoli shu bo‘ldi.

– Hech kim bilan, – dedim orqamga tisarilib.

– Orifni uribsan-ku?

– Yolg‘on! Uning o‘zi meni urdi.

– Dars tayyorlamasang, uy ishlariga qarashmasang, singillaringga kun bermasang, kun bo‘yi mushtlashsang... Seni o‘ldirib qo‘ya qolmasammi? – deb oyim qo‘lidagi tayoqni menga qarab otdi. Chap berib qoldim.

– Yo‘qol, ko‘zimga ko‘rinma!

Ko‘cha eshik oldida turib qoldim. Yo‘q, oyim shashtidan qaytadiganga o‘xshamaydi. Endi nima qildim, qayoqqa boray, kimdan boshpana so‘rayman? Qorin-chi, ovqatni qayoqdan topdim endi...

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 108 10/10/24 17:24



Keling, suhbatlashamiz

1. Hoshimjonning o‘zini tanishtirishiga diqqat qiling. So‘zlash ohangidan nimalarni sezdingiz?
2. *“Yashirib nima qilaman, ko‘cha changitib yurgandan ko‘ra komandaga bo‘linib olib, to‘p tepgan yoki xoliroq joyga, masalan, oying harchand chaqirsa ham, ovozi yetmaydigan joyga borib olib, chillak o‘ynagan ming marta yaxshi”.* Hoshimjonning bu fikrini qanday baholaysiz? Sizda ham shunday “shumlik”lar bo‘lganmi? Eslang-chi, oqibati qanday tugagan?
3. *“O‘sha medalni oyimdan yashirib men ham ikki marta taqdim. Bir marta taqib bozorga borib, sabzi-piyoz olib keldim, ikkinchi marta taqib maktabga boruvdim, direktorimiz chaqirib olib, rosa urishdi”.* Ushbu gaplaridan Hoshimjonning tabiatidagi qaysi xususiyatlarni ilg‘adingiz? Sizningcha, direktor uni nega urishgan? Hoshimjonning bu ishida qandaydir yomonlik bor deb o‘ylaysizmi?
4. O‘ziga topshirilgan vazifani boshqalarga yuklashni qanday atash mumkin? Hoshimjonda bu kabi xatti-harakatlar qaysi o‘rinlarda namoyon bo‘lgan? Uning bu ishi yaxshimi yoki yomon? Nega shundayligini o‘z qarashlaringizdan kelib chiqib asoslang.
5. Onasi bilan suhbatidagi gapirish ohangi Hoshimjondagi qaysi odatlarni ochiq ko‘rsatadi? Buni qanday atash mumkin? Uning bu ishiga o‘z munosabatingizni bildiring.
6. *“Rostini aytsam, tug‘ilganimga ming bor pushaymon bo‘ldim. Lekin darsdan qaytayotganda men ham bo‘sh kelmadim, Orifdan boplab o‘chimni oldim”.* Bu o‘rinda Hoshimjonga xos bo‘lgan qanday sifatni payqadingiz? Sizningcha, bu fazilatmi yoki illat? Uning bu odati keyingi boblarda qanday oqibatlarga olib kelishini kuzating.
7. Eslab ko‘ring-chi, Hoshimjon kabi dars tayyorlamay, noqulay ahvolga tushish holatlari sizda ham bo‘lganmi? Vaziyatdan qanday chiqqansiz? Bundan qanday xulosaga kelgansiz?



Uyga vazifa

Hoshimjonning direktorga yozgan arizasidagi qaysi g‘oya sizga ma’qul bo‘ldi? Siz ham o‘qituvchingiz yoki maktab direktoriga uchta taklif tayyorlang. U qiziqishlaringiz yoki sinfingiz (maktabingiz)dagi biror muammo yechimiga qaratilgan bo‘lsin.

T/r	Taklifim	Qanday amalga oshiriladi?
	* * *	* * *

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 109 10/10/24 17:24

II bob

Shaytonning yelkasiga igna sanchdim

Bir jihatdan olib qaraganda, oyim uyga kiritmay, to‘g‘ri ish qilgan ekan. Nega desangiz, o‘sha paytlarda men sehrli qalpoq axtarib, egasi ko‘chib ketgan hovlilarni, go‘ngtepalarni, eski-tuski kiyim-boshlar tashlanadigan burchak-surchaklarni tintib yurgan edim. Bir oy avval Kashmir qishloqda turadigan buvim biznikiga mehmonga kelib, sehrli qalpoq haqida ertak aytib beruvdi. Qalpoqni kiyib olgan azamat yigit biram ishlar qiladiki, biram qahramonliklar ko‘rsatadiki, agar eshitsangiz, og‘zingiz ochilib qoladi. U hammani ko‘rib turadi. Uni esa hech kim, eng ko‘zi o‘tkir odamlar ham ko‘rolmaydi.

– Buvi, buvijon, o‘sha qalpoqning rangi qanaqa? – deb so‘radim hovliqib.

– Oq, jundan to‘qilgan.

– Uni qayerdan topsa bo‘larkan?

– O‘sha qahramon qarib-chirib o‘layotganda qalpoqni shu atrofdagi hovlilardan biriga yashirib ketgan, bolam.



– Topsa bo‘larmikan?

– Nega bo‘lmas ekan? Izlasang, albatta topasan, bolam.

Xullas, o‘sha kechadan buyon oromimni yo‘qotganman. Kechasi-yu kunduzi tinim bilmay sehrli qalpoqni axtaraman. Ishonsangiz, izlamagan joyim qolmadi. Faqat eski qishloqning chekkasidagi tashlandiq bir uy qolgan xolos. Bu hovli kimniki ekanini hech kim bilmaydi. Hatto oyim ham aniq bir narsa ayta olmadi.

Kechqurun uyga kirishdan mahrum bo‘lgach, oyim so‘rayapti deb, qo‘shnimizdan ikkita nonni qarzga oldim-da, qorong‘i tushishi bilan o‘sha hovli tomon yo‘l oldim. Tashlandiq uydan xunugi bo‘lmas ekan. Qaysi burchakka qaramay, ajinami, alvastimi ko‘zini lo‘q qilib menga baqrayib turganga o‘xshaydi. Hatto, nazarimda, ikki marta bo‘ri ham ko‘ringandek bo‘ldi. Keyin bundoq, sinchiklab qarasam, ikkovi ham mushuk ekan. Men titkilamagan burchak qolmadi. Teshikki bor, hammasiga qo‘l suqib ko‘rdim...

Bir mahal charchab, suvsab, holdan toyib o‘tirib qolibman. Mudray boshladim. “Yo‘q, men uxlamasligim kerak”, dedim o‘zimga o‘zim. Keyin shartta o‘rnimdan turib, sal ichkariroq kirdim. Molxona bo‘lsa kerak, oxurda bir to‘p latta yotibdi. Orasini titkilagan edim... topdim, ishonasizmi, topdim, xuddi o‘shaning o‘zi! Oq mayin jundan to‘qilgan, chekkasiga ipakdan chiroyli hoshiya tikilgan!

– Salom, qalpoqcham! – qichqirib yubordim.

– Salom, Hoshimjon! – degan ovoz eshitildi.

– Men seni axtarib yuruvdim.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 110 10/10/24 17:24

– Men seni kutib yotuvdim...

Boshimga ildim-u uy tomon qush bo‘lib uchdim. Axir men uning chinakam sehrli qalpoq ekanini sinab ko‘rishim kerak edi-da... Sinab ko‘rdim ham. Ko‘cha eshikning ustidan oshib to‘ppa-to‘g‘ri uyga kirib bordim. Oyim tepki mashinada Donoga ko‘ylak tikib o‘tirgan ekan. Yonginasiga borib:


– Oyi, – dedim ingichka ovozda. Oyim boshini ko‘tarib, u yoq-bu yoqqa qaradi-yu, “tavba” deb ko‘ksiga tuflab qo‘ydi. Sekin borib lagandagi sovuq oshni yeya boshladim.

– Oysha, akangdan darak bo‘lmadi-ku? – deb so‘radi oyim.

– Bilmasam, – deb qo‘ydi bir chekkada dars tayyorlab o‘tirgan singlim.

– Bechora qayerlarda qolib ketdi ekan?

– O‘zingiz-da, bo‘lar-bo‘lmasga urishaverasiz.



Shu payt sovuq osh tomog‘imga tiqilib, hiqichoq tutib qolsa bo‘ladimi, bunaqasiga ilgari hech uchramagan edim. O‘ziyam naq o‘n besh minut nag‘ma qildim-da.

– Tavba! – dedi oyim u yoq-bu yoqqa qarab.

– Tavba! – dedi singlim ham yoqasini ushlab.

Demak, qalpoqcham chindan ham sehrli ekan deb o‘yladim-da, termosdan choy quyib ichgan edim, hiqichoq bosildi. O‘shangacha ham hech biri meni ko‘rmadi. Sekin xolodilnikning yoniga bordim-u eshigini ochib, boshimdan qalpoqchani oldim.

Oyim bilan singlim baravariga o‘rinlaridan turib ketishdi.

– Qayoqdan paydo bo‘lib qolding? – ikkovlarining ham savoli shu bo‘ldi.

– Xolodilnikning ichida yotuvdim, – deb yuboribman bilmasdan. Oyim bechora qo‘rqqanidan yig‘lab yubora yozdi. Darrov meni issiq bag‘riga olib, yuz-u ko‘zlarimdan o‘pa ketdi.

– Bolaginam, muzlab qolay debsan-ku! – derdi u tinmay. Issiq ko‘rpaga o‘rab qaynoq-qaynoq choy ichirishdi. Har choy ho‘plaganimda jo‘rttaga bir inqillab qo‘yaman. Ichimga issiq kirishi bilan huzur qilib uxlab qolibman.

Ertasiga birinchi qilgan ishim qishlog‘imizda yashaydigan Soraxon folbinning ishlarini tekshirib ko‘rish bo‘ldi. Meni biron kishi komissiya qilib tayinlagani yo‘q-ku, lekin shunchaki o‘zim qiziqib ko‘rdim-da. O‘qituvchimiz unga ishonmanglar, hammasi yolg‘on deydi. Yolg‘on bo‘lsa, nega xolamning shuhrati shunchalik yoyilib ketgan? Rom ochirib, dardiga davo so‘rash uchun odam shunaqangi ko‘p keladiki, shunaqangi ko‘p keladiki, qishlog‘imizdagi medpunkt uning oldida ip esholmaydi. Undan keyin, kelganlar quruq kelishmaydi. Birovi shoxdor qo‘y, birovi sariq echki, birovi qog‘ozga o‘ralgan pul, bir xillari katta tog‘oradа to‘rt quloqli somsa tashlab ketishadi. Men bilan o‘qiydigan o‘g‘li Mirobiddinxo‘janing kerilganini aytmaysizmi, bir o‘zining ikkita velosipedi bor. Tunov kun bittasini minib biroz sayohat qilgan edim, qasqonini egib qo‘ygan ekanman, aka-uka meni tutib olib, rosa do‘pposlashdi.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 111 10/10/24 17:24

Odamlar:

– Soraxon folbin to‘ppa-to‘g‘ri Xudo bilan gaplashadi! – deyishadi.

Mirobiddinxo‘ja bo‘lsa maqtanib:

– Bizning uydan Xudoning ovozi eshitilib turadi! – deydi.

Ishqilib, ana shu narsalarni tekshirib ko‘rmoqchi bo‘ldim-u ertalab nonushtadan so‘ng to‘ppa-to‘g‘ri folbin xolamning uyiga qarab yo‘l oldim. Hovlisida yettita xotin, beshta chol, uchta bola o‘tirishibdi. Hammasi ham kasal bo‘lsa kerak, rangi oftob urgan xamakdek sap-sariq. Qalpoqni kiyib, sekin ichkari kirdim. Folbin xolam qorong‘i uyda o‘tirib olib fol ochyapti, qarshisida mening oyimga o‘xshash bola qo‘ltiqlagan cho‘ziq yuzli bir ayol o‘tiribdi.

Xamak – hali pishib yetilmagan, xom qovun; sapcha.

– O‘g‘lingni sariq jin uribdi, qizim, – dedi folbin xolam. Shu payt uyning pollari ostidanmi, qalin devorlari orasidanmi, shiftidanmi – qayoqdanligini aniq anglay olmadim-ku, – lekin sariq jinlarning jarang-jurung qilib o‘yinga tushayotgani, childirma chalayotgani eshitilib, qo‘rqqanimdan dodlab yubora yozdim. Xayriyatki, oldimda folbin xolam, bolali ayol o‘tirishibdi. Bo‘lmasa, kim biladi, nimalar qilib qo‘ygan bo‘lardim. Vahimali ovozlar tinishi bilan g‘oyibdan:

Jin – Sharq xalqlari mifologiyasi va diniy tasavvurlarga ko‘ra, pastqam joylarda kishi ko‘ziga odam timsolida ko‘rinib, go‘yo uni biror dard-illatga chalintirib (masalan, og‘zini qiyshaytirib) ketadigan afsonaviy maxluq.

– Ovmiiin! – degan surnaynikiga o‘xshash ingichka ovoz eshitildi.

Folbin xolam davom etdilar:

– Sariq echki so‘yib, terisiga bolangni o‘raysan.

– Ovmiiin! – degan ovoz eshitildi yana g‘oyibdan.

Ketidan haligi vahimali jarang-jurunglar jo‘r bo‘ldi. Folbin xolam bolali ayolning qo‘rqqanidan o‘ynab turgan ko‘zlariga tikilib:

– Xudo o‘zi shifo beradi! – deb qo‘ydi.

Bu gal jarang-jurung eshitilmadi-yu, lekin qisqa-qisqa qilib aytilgan “ovmin” eshitildi. Boshimda qalpoqcham bor. Jinlar baribir meni ko‘rolmaydi deb o‘zimga o‘zim dalda berdim-da, ular bilan uchrashish niyatida ovoz qaysi tomondan kelayotganini aniqlash uchun shoshilib tomga chiqdim. Qalin devor orasiga narvon tushirilgan ekan. Sekin pastga tushdim. Uyning osti yerto‘la, o‘rtada so‘ppayib bir xum turibdi. Shu choq folbin xolamning uyiga yana bir kishi kirgandek bo‘ldi. Uning: “Oh otaginam, otaginam, sizga qora dev hamla qilibdi, suf, suf, suf”, – degani eshitildi. Bu ovoz tinib ulgurmasdan xumning ichidan jarang-jurung bilan childirma sadolari yangradi, ketidan “ovmin” ham eshitilib qoldi. Avvaliga ko‘rganimdan bezgak tutgandek dag‘-dag‘ qaltiradim. Keyin o‘zimni bosib, sekin borib mo‘ralasam, xumning ichida o‘zimizning Mirobiddinxo‘ja o‘tiribdi. Bilaklariga har xil shiqildoqlar taqib olgan, qo‘lida do‘ppidan sal kattaroq o‘yinchoq childirma! “Iye, ha, shaytonning o‘zlari shu yerda ekanlar-da, yashavorsinlar-e! – dedim kulgim qistab. – Sariq jin ham o‘zlari bo‘lsa kerak?” Shu payt shunaqangi achchig‘im chiqdiki, shunaqangi achchig‘im chiqdiki, cho‘ntagimdan to‘g‘nag‘ichni olib, bor bo‘yicha yelkasiga sanchib yuborganimni o‘zim ham bilmay qolibman.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 112 10/10/24 17:24

– Voydod! – deb qichqirdi Mirobiddinxo‘ja. Folbin xolam: “Otaginam, kasalingiz g‘oyat og‘ir, ana, quloq soling, parilarim faryod chekyapti”, – deb javray boshladi. Kap-katta xotinning yolg‘on so‘zlaganini ko‘rib, yana jahlim chiqdi. Ko‘zimga Mirobiddinxo‘ja alvastidan ham xunuk ko‘rinib ketdi. To‘g‘nag‘ichni yana sanchib yuboribman.

– Oyijon! – deb qichqirdi Mirobiddinxo‘ja.

– Ovozingni o‘chir! – boshidan xumning ichiga bosdim.

– A!

Mirobiddinxo‘janing ko‘zi xuddi jon berayotgandek ola-kula bo‘lib ketdi.

Pari – Sharq xalqlari folklorida keng tarqalgan, juda go‘zal qiyofali, nurdan yaratilgan, odamlarni jin-ajinalardan saqlaydigan afsonaviy obraz.

Azroil – Islom dinida to‘rt bosh farishtadan biri, jon oluvchi farishta.

– Sen kimsan o‘zi, ayt, kimsan?

– Men Azroilman.

– Azroil?

– Ha, Azroilman, joningni olgani keldim.

– Oyijon! Men o‘lyapman...

– Dodlama, – deb boshiga bir shapaloq urdim. – Menga qara, Hoshim degan bolani taniysanmi?

– Taniyman, Azroilbobo, taniyman.

– Tanisang, nega unga velosipedingni berib turmading?

– Berdim-ku?

– Nega uni akang bilan ikkovlashib urdilaring?

– Tavba qildim, endi urmaymiz.

– Baribir, hozir joningni olaman, – shunday deb jo‘rttaga bo‘g‘moqchi bo‘lgandek ikki qo‘limni tomog‘iga olib bordim.

– Jon Azroilbobo, bu gal jonimni olmang, kechiring.

– Nega odamlarni aldaysan?

– Oyim aytdilar-da...

– Oying nima dedi?

– Ovmin deysan, dedi. Undan keyin mana bu shiqildoqlarni chalib, childirmani do‘pillatasan, dedi.

– Yolg‘on. O‘zing ham maktabga borib, uyimizdan Xudoning ovozi eshitiladi, degansan.

– Aytdim-ku, oyim o‘rgatdi, deb.

– Oying nima deb o‘rgatdi?

– Ko‘cha-ko‘yda yurganingda, maktabga borganingda shunday deb aytasan, dedi.

– Demak, hammasi yolg‘onmi?

– Yolg‘on, Azroilbobo, yolg‘on.

– Yolg‘onligini maktabga borib aytasanmi yoki joningni olib qo‘ya qolaymi?

– Aytaman, bugunoq aytaman.

– Bo‘lmasa, seni sinab ko‘raman. Hozircha joning o‘zingda tursin. Uy vazifalarini yaxshilab tayyorlagin. Hoshim degan bola so‘rasa, yo‘q demagin...

Tashqariga chiqib, endi nima qiliq ko‘rsatsam ekan deb o‘ylanib qoldim. Hali folbin xolam bolali ayolga dori berayotganida xaltasiga ko‘zim tushib qoluvdi. Ana o‘sha xaltachalarni ham bir tekshirib ko‘rmoqchi bo‘ldim. Har xil chitdan tikilgan katta-kichik beshta

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 113 10/10/24 17:24

xaltacha bor, hammasida ham o‘zimizning aptekalarda sotiladigan oddiy dorilar: birida penitsillin, birida biomitsin, boshqasida yurak o‘ynoqni bosadigan poroshok, xudoyi taolo ato qilgan noyob dorilar deb xolajonim ana shularni pullayotgan ekan. Yashavorsinlar-e, dedim o‘zimga o‘zim, hali shoshmay tursinlar, o‘zlarini ham bir uyaltirib qo‘ymasammi...

Folbin xolamning cho‘ntagiga qo‘l solib besh-o‘n so‘m oldim-da, darhol tug‘uruqxona oldidagi aptekaga yugurdim. O‘sha yerdan ichni suradigan har xil dorilar olib keldim. Xaltachalardagi dorilarni olib, o‘rniga o‘shalarni ehtiyotkorlik bilan joylab qo‘ydim. Oradan o‘n-o‘n besh kun o‘tar-o‘tmas, xolamning obro‘lari ham bir pul bo‘ldi. Sen hali bizni ataylabdan zaharlamoqchi bo‘ldingmi, deb, ichi surilib darmondan ketgan bemorlar xolamni tutib olib, rosa do‘pposlashibdi...

Ishlarim yurishgandan yurishib ketdi. O‘zim xursand, kayfim chog‘, ashula aytganim-aytgan. Baholarim ham joyida – nuqul besh! Ilgarigidek uy vazifangni bajargan bo‘lsang, menga berib tur, deb birovlarga yolvorib ham o‘tirmayman. O‘qituvchilarimizning uyiga shartta kiraman-da, konspekt daftarini olib, o‘sha yerda ko‘chiraman-qo‘yaman. Obro‘yim ham shunaqangi oshib ketdiki, o‘qituvchilar menga kulib boqadigan bo‘lib qolishdi. Faqat og‘zaki so‘raladigan fanlardan hamon mazam yo‘qroq. Lekin unga ham bir vaj topib qo‘yganman.

– Mening og‘zaki nutqim rivojlanmagan, yozma ravishda talab qilaveringlar, – deyman-da, o‘qituvchilarimning o‘zlaridan ko‘chirib olgan konspektlarni sal boshqacharoq qilib o‘qib beraveraman.

Xullas, ishlarim har jihatdan yurishib ketgan edi. Sinfkomimizni amaldan tushirib, o‘rniga meni saylamoqchi bo‘lib turishgan edi-yu, bir xatoga yo‘l qo‘yib, butun maktabga sharmanda-yu sharmisor bo‘ldim, rostini aytsam, bir pulcha obro‘yim qolmadi.

Darsdan qaytayotganda hech kim sezmasa kerak deb o‘zimga va eng yaqin do‘stim bo‘lmish Qosimjonga yettita fandan a’lo baholar qo‘yib, chorak tugamagan bo‘lsa ham, cho‘zib o‘tiramanmi deb chorak baholarini ham chiqarib qo‘ya qolgan edim. Bu ishni avval ona tili o‘qituvchimiz, so‘ngra fizika o‘qituvchimiz payqab qolibdi. O‘sha soatdayoq hammaga oshkor bo‘libdi. Ertasiga maktabga borishim bilan direktorning xonasiga chaqirishdi. Kirsam, yettita o‘qituvchi qator o‘tiribdi. Qosimni ham chaqirtirib kelishdi.

– Hoshim, beriroq kel-chi, – dedi Otajon Azizov barmog‘i bilan jurnaldagi bahoni ko‘rsatib, – bu baholarni kim qo‘ydi?

– Bilmasam... – dedim yelkamni qisib.

– Sen qo‘ydingmi? – so‘radi Qosimdan direktor.

– Nimani? – mendan battarroq hayron bo‘lib dedi Qosim.

– Ikkoving maslahatlashib qilgansan bu ishni. Ochiqchasiga iqror bo‘linglar, – dedi o‘qituvchilardan biri.

– Yo‘q, bu ish Qosimdan chiqqan, – dedi boshqasi, – nega desanglar, Hoshim so‘nggi paytlarda ancha tuzalib qoldi. Baholari ham nuqul besh...

O‘tirganlarning hammasiga bu fikr ma’qul tushdi shekilli, har tomondan bechora Qosimga savol yog‘dira boshlashdi. Qarasam, do‘stimning ahvoli chatoq – ko‘zida miltillab yosh tomchilari ko‘rinyapti. Yo‘q, qilg‘ilikni men qilib, jabrini birov tortmasligi kerak! Shartta o‘rtaga chiqdim:

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 114 10/10/24 17:24



– Kechirasizlar, bu ishni men qilganman.

– Nimaga? – sakkiz kishi birdaniga shu savolni berdi.

– Ha, men qilganman. Qosimning bu ishdan mutlaqo xabari yo‘q. Undan keyin, xullas, bu ishni men qilganman...

Tamom, hali aytganimdek obro‘ bir pul bo‘ldi. Aytilmagan gap-u, qilinmagan nasihat qolmadi. Shu ketishda ketaversam, mendan tuzukroq odam chiqmas emish, agronom ham, injener ham, zootexnik ham bo‘la olmas emishman.

– Yo‘q, – dedim qaysarligim tutib, – mendan agronom chiqadi albatta.

– Chiqmaydi! – sakkizovlari bir ovozdan takrorlashdi.

– Bo‘lmasa, zootexnik bo‘laman.

– O‘qimasang, zootexnik tugul molboqar ham bo‘lolmaysan!

– Bo‘la olaman.

– Gapni ko‘paytirma, bo‘lolmaysan! – achchig‘i chiqib dedi direktor.

– Bo‘laman, bo‘laman, bo‘laman! – dedim-da, eshikni qarsillatib yopib chiqib ketdim. Men boshimda shu qadrdon qalpoqcham bor ekan, o‘qimay turib, albatta agronom ham, injener ham, shoir-u artist ham bo‘la olaman deb qattiq ishonar edim. “Ha, albatta bo‘laman, – deb takrorladim o‘zimga o‘zim, – bularga, menga ishonchsizlik bilan qarayotgan mana shu qadrdon o‘qituvchilarimga o‘zimning kimligimni ko‘rsatib qo‘yaman...”

O‘sha kuni kechasiyoq qahramonliklar ko‘rsatib, shon-u shuhrat taratib, o‘qituvchilarimni, Otajon Azizovni hayratda qoldirish niyatida safarga otlandim.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 115 10/10/24 17:24

Xayr, jonajon qishlog‘im, hayqirib toshdan toshga urilib oqayotgan zilol suvli anhorlar, poyonsiz mevazor bog‘lar, hammangizga xayr. Yo‘l yoqasidagi azim yong‘oqlar, sizlar ham yaxshi qoling. Endi hech kim tosh otib, shoxingizni sindirmaydi, tanangizga mix qoqib, ozor bermaydi!

Mehribon oyijonim, sho‘xliklar qilib ko‘nglingizni og‘ritgan bo‘lsam, qaysarligim tufayli o‘ksitgan bo‘lsam, kechiring meni! Qo‘ng‘ir sochli singillarim, sizlar ham yaxshi qoling. Har xil qiziqchiliklar qilib sizlarni qiqirlatib kuldiradigan, maktabdan qaytayotganingizda sho‘x bolalar urganda tarafingizni oladigan akangiz yoningizda yo‘q endi. Sog‘inganda, ko‘nglingiz o‘ksiganda rasmga boqing. Lekin yig‘lamang. U albatta keladi, qahramonliklar ko‘rsatib qaytadi. O‘z o‘qituvchilariga o‘qimasdan turib ham agronom bo‘la olishi mumkinligini, artist bo‘lib, hammani o‘ziga mahliyo qila olishi mumkinligini ko‘rsatib qo‘yadi. Ha, albatta ko‘rsatadi. Ko‘ksi to‘la orden bilan qaytadi.

Xayr! Ey chala qolgan uy vazifalari, sizlarga ham xayr!

Yarim tunda qishloqdan chiqib borar ekanman, ko‘zim jiqqa yosh, ammo qalbim shodlikka to‘la edi.

Keling, suhbatlashamiz

1. Kattalardan asarda tilga olingan “qora dev”, “sariq dev”, “sariq jin” haqida biror voqea, ertak yoki rivoyat eshitganmisiz? Xalqimizda ularga nimaning timsoli sifatida qaraladi?
2. Hoshimjon va qalpoqchaning ilk uchrashuvdagi suhbatiga e’tibor qiling. Nega qalpoqcha ham Hoshimjonni kutayotgan edi? Javobingizni asoslang.
3. Mirobiddinxo‘ja nima uchun onasiga qarshi chiqolmadi deb o‘ylaysiz? Uning o‘rnida siz qanday yo‘l tutar edingiz?
4. Hoshimjonning Soraxon folbinnikidagi “taftish”ida xaltachalardagi dorilarni almashtirib qo‘yishini qanday izohlaysiz? U qanday yo‘l tutganida boshqalarga ziyon yetmas edi?
5. *“Ha, albatta bo‘laman, – deb takrorladim o‘zimga o‘zim, – bularga, menga ishonchsizlik bilan qarayotgan mana shu qadrdon o‘qituvchilarimga o‘zimning kimligimni ko‘rsatib qo‘yaman...”* O‘ylab ko‘ring-chi, Hoshimjonning bu gaplarida uning tabiatiga xos qanday sifat namoyon bo‘lgan?
6. Biror nojo‘ya ishingiz sababli boshqalardan kechirim so‘raganmisiz? Bu qanchalik qiyin yoki oson kechgan? Izoh bering.
7. Hoshimjonning xayrlashish oldidan: *“Yo‘l yoqasidagi azim yong‘oqlar, sizlar ham yaxshi qoling. Endi hech kim tosh otib, shoxingizni sindirmaydi, tanangizga mix qoqib, ozor bermaydi!”* tarzidagi iqrorini qanday izohlaysiz? Bu iqrordan Hoshimjonning xarakteriga xos bo‘lgan sifatni aniqlang.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 116 10/10/24 17:24



Tadqiq qiling

I–II boblarda qo‘llangan quyidagi iboralarning ma’nosini aniqlang.

Iboralar	Ma’nosi
Ko‘cha changitib yurmoq	* * *
Quyon bo‘lmoq	* * *
Quloqning tagida shavla qaynamoq	* * *
Terisiga somon tiqmoq	* * *
Tilining uchida turmoq	* * *



Uyga vazifa

Xayol kuchini ishga solib o‘zingizni Hoshimjonning o‘rniga qo‘yib ko‘ring: “Sehrli qalpoqcham bo‘lganda…” mavzusida sarguzasht insho yozing.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 117 10/10/24 17:24

III bob

Baxtim kulib boqqan edi

Qayoqqa borishni, nima qilishni bilmas edim. Boshim qotgan, o‘ylab o‘yimga yetolmayman. Ammo bir jihatdan ko‘nglim shod – ovqat tekin, poyezd-u avtobuslar tekin, qadrdon qalpoqcham boshimda. Zeriksam, u bilan suhbat quraman.

– Qalpoqcham, qayerlarga kelib qoldik? – deb so‘rayman.

– O‘zim ham bilmayman, Hoshimjon, – deydi qalpoqcham.

– Rostini ayt, mendan agronom chiqarmikin-a?

– Chiqadi. Albatta chiqadi.

– Axir mening diplomim yo‘q-ku? – deyman ko‘nglim o‘ksib.

– O‘kinma, – deydi qalpoqcham, – qo‘lingni cho‘ntagingga sol – diplom tayyor.

Diplom – biror o‘quv maskanini bitirganlik yoki biror ilmiy unvon, ilmiy daraja berilganligini tasdiqlovchi hujjat.

Qo‘limni cho‘ntagimga solgan edim, chindan ham ko‘k jildli, ichkarisiga har xil yozuvlar yozilib, dumaloq muhr bosilgan diplom chiqib keldi.

– Qalpoqcham, axir mening bo‘yim juda past-ku, – deyman yana ikkilanib, – hech kim meni katta odam deb o‘ylamaydi-ku?

– Xafa bo‘lma, kerak bo‘lganda bo‘y ham qo‘shib beraman.

Yo‘l yurdim, yo‘l yursam ham, mo‘l yurdim, bir mahal mundoq qarasam, sahro-yu biyobonga kelib qolibman. Bir tomoni – poyoni yo‘q cho‘l. Qarasang, ko‘zing jimirlab ketadi. Yantog‘-u sho‘radan boshqa hech narsa ko‘rinmaydi. Ahyon-ahyonda menga o‘xshab qayoqqa borishini bilmay, garang bo‘lib uchib yurgan qushlar to‘dasigami, dumi uzun yumronqoziq yoki ko‘zini lo‘q qilib turgan kaltakesakkami duch kelib qolasan. Ikki marta ilonlar galasiga ham uchrab qoldim. Yegani ovqat topolmay bir-birining dumini so‘rib yotgan ekan, meni ko‘rishi bilan sevinib shunaqangi quvlashga tushib ketishdiki, agar boshimga qalpoqchamni kiyib olmaganimda, kim biladi, holim ne kechar edi...

Biroz yurgach, bog‘-rog‘lar yashnab yotgan joyga kelib qolibman. Tavakkal qilib daraxtzorlar orasidan yurib boraverdim. Goh olmazor, goh shaftolizor, goh tokzorlar orasidan o‘tib borardim. Bir tomonda g‘o‘zalar ham yashnab yotibdi. Dadamga o‘xshagan odamlar tepasiga brezentdan soyabon o‘rnatilgan universallarga minib olib, g‘o‘zalarga ishlov berishmoqda. Katta sement ariqdan shundoqqina o‘tishim bilan g‘alati bir manzaraga ko‘zim tushib, rostini aytsam, hang-u mang bo‘lib qoldim. Yuz gektarcha keladigan katta maydon mayda-mayda bo‘laklarga bo‘lib tashlangan, har bir bo‘lakchada uchtadan-to‘rttadan bo‘lib o‘zim tengi, o‘zimdan sal kattaroq bolalar, Oyshaxon singlimga o‘xshash qo‘ng‘ir sochli qizchalar terlab-pishib ishlab yotishibdi.

– Hoy, bola, horma! – dedim g‘o‘zaning ichidan o‘t yulib yurgan bir bolaning yoniga borib.

– Ishingni qil, – dedi u boshini ko‘tarmay.

– Horma deyapman.

– Ishingni qil deyapman, – shunday deb notanish bola sekin boshini ko‘tardi. Ko‘tardi-yu, uyalganidan bo‘lsa kerak, sholg‘omdek qizarib ketdi.

– Kechirasiz, – dedi peshonasidagi terini artib, – men sizni o‘zimizning Shavkat deb o‘ylabman.

– Kechirasiz, – dedim men ham hurmatini joyiga qo‘yib, – bu qaysi mamlakat?

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 118 10/10/24 17:24

– Nima?

– Qaysi mamlakat deyapman?

– Mamlakat emas, Mirzacho‘l.

– E, anavi gazetadagi Mirzacho‘l shu yerlarmi?

– Gazetadagi emas, Mirzacho‘ldagi Mirzacho‘l, – tushuntirdi notanish bola.

– Bu yerda nima qilyapsizlar?

– O‘t yulyapmiz.

– Bu g‘o‘zalar kimniki o‘zi?

– Bizniki.

– Nega endi sizniki bo‘larkan?

– Ana shu, ko‘rib turganingiz uch gektar yerdagi g‘o‘zani oltovimiz ekkanmiz. O‘zimiz parvarishlayapmiz, hosilini ham mashinada o‘zimiz yig‘ishtirib olmoqchimiz.

– Sizlarga agronom kerak emasmi?

– Yo‘q, – dedi bola boshini chayqab, – biz o‘zi bo‘lajak agronomlarmiz...

Karta – yerning, dalaning alohida, to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida ajratilgan bo‘lagi, bir bo‘lak dala.

Gapni cho‘zib o‘tirmasdan narigi kartalarga o‘tib ketdim. Mendan sal novcharoq bo‘lgan ikkita bola qovun chopiq qilish bilan ovora.

– Nima qilyapsizlar? – so‘radim jo‘rttaga, nima qilayotganlarini ko‘rib turgan bo‘lsam ham.

– Ikkinchi chopiq qilyapmiz, – degan mujmalroq javob oldim. Bolalar juda shoshib ishlashardi. Yo bir-birlari bilan kim ko‘p ishlashga musobaqa o‘ynashgan, yoki o‘zlari shunaqangi chaqqon ishlashga o‘rganib qolishgan deb o‘yladim. Rostini aytsam, shu paytda mening ham egatlarga tushib olib, ana shu bolalar bilan musobaqalashib, yonma-yon ketmon chopgim kelib ketdi. Lekin o‘zimni bosib, jiddiy bir ohangda:

– Sizlarga agronom kerak emasmi? – deb so‘radim.

– Yo‘q, kerak emas.

– Nega endi kerak bo‘lmas ekan? Ehtimol, kerakdir?

– Biz o‘zimiz agronommiz.

Shundan keyin kun botguncha ishlayotganlarni gapga solib, suhbatlashib, mayda kartalarni aylanib, tomosha qilib yuraverdim. O‘ziyam tomosha qilsang arzigulik joylar ekan, cho‘lni yashnatib yuborishibdi. Bu kartada hali aytganimdek paxta, boshqasida hali aytganimdek qovun-tarvuz, nariroqda piyoz, beriroqda karam! Ayniqsa, bu atrofdagi mevalarni aytmaysizmi! Luchchak shaftolilarga maza kiray deb qolibdi, olma daraxtlari hosili ko‘pligidan ayb ish qilib qo‘ygandek boshlarini egib turibdi. Uzumning o‘zidan, xoh ishoning, xoh ishonmang, roppa-rosa yigirma ikki xilini sanasam-a! Tovuqlarga don berib yurgan, hadeb tuxum yeyaverganidan bo‘lsa kerak, oshqovoqdek semirib ketgan sariq sochli bir qizdan:

– Bu tovuqlar kimniki? – deb so‘radim.

– Bizniki, – dedi qiz hozirgina archilgan kattagina tuxumni og‘ziga solib.

– Tuxumni kimga berasan?

– O‘quvchilarga.

– Uy vazifalarini bajarmaganlarga ham beriladimi?

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 119 10/10/24 17:24

– Bizda unaqalar yo‘q.

– Bordi-yu, bitta-yarimta topilib qolsa-chi?

– Bor, ishingni qil, – dedi sariq sochli qiz yana bitta tuxumni og‘ziga solib, – tovuqlarimni hurkitib yuboryapsan.

– Menga qara, – dedim biroz yumshab, – sizlarga zootexnik kerak emasmi?

– Zootexnikni nima qilamiz?

– Ish o‘rgatadi-da.

– Unaqasidan o‘zimizda ham to‘lib yotibdi...

Sal nari borgan edim, atrofi yog‘och taxta bilan o‘ralgan katta qo‘rg‘onga ko‘zim tushib qoldi. Darvoza tepasiga “Maktab-internat fermasi” deb yozib qo‘yishibdi. Ha-ha, bu maktabning hali fermasi ham bor ekan-da deb o‘yladim-u sekin ichkari kirib bordim. Rostini aytsam, ferma uncha katta ham, uncha kichkina ham emas ekan: sakkizta sigir, uchta qo‘tir echki – bor-yo‘g‘i shu.

Internat – o‘quvchilari davlat tomonidan oziq-ovqat va kiyim-kechak bilan ta’minlanadigan, yotib qolib o‘qiladigan maktab.

– Qo‘ylaring ham bormi? – so‘radim mollarning tagini tozalab yurgan past bo‘yli, peshonasi do‘ng bir boladan.

– Qo‘ylar cho‘lda... – dedi bola menga qarab angrayib.

– Quyonlar-chi?

– Quyon fermamiz katta bog‘ning ichida.

– Echkilaring bor-yo‘g‘i uchtami?

– Muncha ezma ekansan-a, aytdim-ku, echkilar ham qo‘ylarning yonida deb.

– Shunaqa demaysanmi, – dedim sal past kelib. – Men bo‘lsam, boshqalari kasal tegib o‘lib ketganmi deb o‘ylabman. Buzoqlaring ko‘rinmaydi?

Peshonasi do‘ng bola toza jonimga tegding-ku degandek qo‘lini siltab, paqir bilan supurgini ko‘targancha xiyol oqsoqlanib nari ketdi. Uzoqroqdan turib, negadir tilini chiqarib meni masxara ham qilib qo‘ydi.

– Tort tilingni, hozir borib sug‘urib olaman! – dedim mushtimni ko‘rsatib.

– Meni-ya!

– Ha, seni.

– Urishgandan ko‘ra kelib, ishga qarashsang bo‘lmaydimi?! – dedi bola iljayib.

Ishga tushsam tushay deb ustimdagi yangi ko‘ylagimni shartta yechdim-da:

– Qani, ishingni ko‘rsataver, – deb qo‘ydim.

– Menga qara, tag‘in sen mehmon bo‘lmagin? – qiziqib qoldi u.



44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 120 10/10/24 17:24

– Mehmonman-da.

– Iye, shunday demaysanmi? Qani, tanishib qo‘yaylik. Mening otim Hayitvoy, yettinchi sinfda o‘qiyman.

– Mening otim Hoshimboy, – deb qo‘limni cho‘zdim, – oltinchi sinfning a’lochi o‘quvchilaridan bo‘laman. Sizlar o‘zi kimsizlar, o‘quvchimi, kolxozchimi, hech tushunolmay qoldim-ku?

Kolxozchi – jamoa xo‘jaligi a’zosi.

– Bizmi, biz hu anavi ikki qavatli bino bor-ku, o‘sha yerda o‘qiymiz, darsdan bo‘sh vaqtimizda, ko‘rib turganingdek, ishlaymiz, kasb o‘rganamiz. Biz-chi, Hoshimboy, o‘zimizni o‘zimiz boqamiz, o‘zimizni o‘zimiz kiyintiramiz...

– Rostdan-a?! – dedim hech ishongim kelmay.

– Rost.

Hayitvoy ishonchsizlik bildirganim uchun biroz xafa bo‘ldi:

– Hali sen ko‘rganing yo‘q, o‘ttiz gektar yerda mevazor bog‘imiz bor, shirin hosilga kirgan. Yarmini yeymiz, yarmini bozorga chiqarib sotamiz. Go‘sht ham, sut ham o‘zimizda yetarli.

– Sigirlarni kim sog‘ib beradi?

– Kim sog‘ardi, o‘ninchi sinfning qizlari-da.

– Meva-chevalarni ham o‘shalar sotib beradimi?

– Bo‘lmasam-chi? – dedi Hayitvoy maqtanib. – Direktorimiz Xursanali Sharafiddinovich bu qizlardan ajoyib sotuvchilar yetishib chiqadi, deydi. Mayli, rastrata qilsalar ham ishlashaversin, bora-bora o‘rganib ketishadi, deydi. Tunov kuni, bilasanmi, nima bo‘ldi? Tekshiruvchilar borganda haligi budkada sut-qatiq sotib o‘tiradigan Sanobar opam bor-ku?

– Qaysi? – so‘rab qo‘ydim.

– Haligi o‘ninchi “B”da o‘qiydigan bor-ku, o‘sha oq xalat kiymasdan savdo qilayotgan ekan, qo‘lga tushib qolibdi. Tartibni buzgani uchun rosa muhokama qilib, vigovor berishdi. Undan keyin desang, o‘n besh so‘m shtraf qilishdi.

– Shtraf pulini qayerdan oladi?

Brigada – mehnatning muayyan bir turini birgalikda bajarish uchun tuzilgan va ish natijasi uchun umumiy javobgar bo‘lgan jamoa, ishchilar guruhi.

– Qayerdan olardi, brigadaning fondidan oladi-da, hali aytdim-ku, mahsulotlarimizdan kelgan foydani kassaga qo‘yamiz deb. Kassadagi pul yig‘ilaveradi, yig‘ilaveradi, keyin o‘ninchini bitirib, butunlay ketayotganimizda har kim o‘ziga tegishli pulni olib ketadi.

– Rost aytyapsanmi? – dedim yana ishongim kelmay.

– Rost. O‘tgan yili maktabimizni ellik kishi bitiruvdi, bitiruv kechasi Xursanali Sharafiddinovich har biriga ming so‘mdan pul berdi, biz rosa qarsak chaldik. Sizlarning maktablaringizda ham shunaqami?

Rostini aytsam, nima deyishni bilmay, jo‘rttaga nariroqdagi sigirlarni tomosha qilayotgandek angrayib turaverdim. Bizning maktabimizda, yashirib nima qilaman, bu yerda ko‘rganlarimning mingdan biri ham yo‘q. Rost, tirik burchakda ikkita oriq quyon bor edi, lekin shuning ham bittasi ochidan o‘lib qolgan. Undan keyin maktabimizning orqasida kattagina mevazor bog‘ bor, lekin bu daraxtlar meva qiladimi, yo‘qmi – hozir o‘ylay-o‘ylay hech eslay olmadim.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 121 10/10/24 17:24

Shunday bo‘lsa ham, maktabimizning sha’nini hecham yerga urgim kelmasdi.

– Nima deding? – dedim maqtanishga chog‘lanib.

– Sizlarda ham shunaqalar bormi deyapman?

– Sizlarnikidan yuz marta yaxshisi bor.

– Quyon fermalaringiz ham bormi?

– Bor. Hatto bizda sher, arslonlargacha bor...

– O‘hho‘! – dedi Hayitvoy qo‘rqqanidan ko‘zlari ola-kula bo‘lib. – Yeb qo‘ymaydimi?

– Biz ularni temir qafaslarga solib, ustidan kattaligi sening kallangdek keladigan qulflar osib qo‘yganmiz...

– Sizlarda, haligi, eshik-rom yasaydigan ustaxonalar ham bormi?

– O‘hho‘, bizning ustaxonani bir ko‘rsang, – deb qo‘ydim.

Shunday deyman-u, lekin maktabimizning ustaxonasi qayerda ekanini o‘zim ham bilmayman.

– Haligi, kiyim-bosh tikadigan artel-chi? – deb so‘rashda davom etdi Hayitvoy.

– Bor. Hammasi bor. Mana shu ustimdagi ko‘ylak ham o‘sha yerda tikilgan. Oyog‘imdagi tuflini Shokir degan bitta og‘aynim tikib bergan.

– Bizda ham ustaxonaning har xilidan bor, – dedi Hayitvoy biroz shashtidan tushib. – Hozir olib borib ko‘rsatardim-u, lekin ishlarim qolib ketadi-da.

Men uning ishlariga ko‘maklashadigan bo‘ldim. Ko‘z yumib-ochguncha avval molxonani, so‘ngra qo‘yxonani yog‘ tomsa yalagudek qilib tozalab tashladik. Go‘ng bilan chiqindilarni men katta chelakka solib turdim. Hayitvoy tashqariga bo‘zchining mokisidek qatnab turdi. Bir nafasda hamma yoq, hali aytganimdek, yog‘ tomsa yalagudek bo‘ldi-qoldi.

– Do‘stim Hayitvoy, – dedim ishlar tugagach, – sizlarga mol doktori kerak emasmi?

– Do‘stim Hoshimboy, – javob qaytardi sherigim, – mana shu fermadagi sakkiz bola hammamiz mol doktori bo‘lamiz.

Hayitvoy bilan o‘rtoq bo‘lib qoldik. O‘ziyam ko‘ngli ochiq, xushchaqchaq, menga o‘xshab qiziqchiroq bola ekan. Avvaliga rosa maqtanchoq bo‘lsa kerak deb o‘ylagan edim. Yo‘q, unchalik maqtanchoq ham emas ekan. Aytganidek, maktabning ustaxonasi ko‘rsang ko‘rgudek, tomosha qilsang tomosha qilgudek joy ekan. Qizlar mening oyimnikiga o‘xshash tepki mashinada chok tikishayotgan xonaga kirib, o‘n minut chamasi angrayib turdim. Qasam ich desangiz, qasam ichib aytamanki, bunaqangi ustaxona dunyoda hech bir maktabda bo‘lmasa kerak. Quyonlarning terisidan jajji qizlar uchun popukli qalpoqchalar, oq batistdan o‘quvchi qizlar kiyadigan fartuk deysizmi, paxta teriladigan kanop etaklar deysizmi, xullas, dunyodagi yo‘q kiyimlar mana shu yerda tikilar ekan. Biram bejirim, biram chiroyli tikishyaptiki! Hay-hay, nozik qo‘lchalarning chiroyli harakatlarini aytmaysizmi, oyoqchalarning bir me’yorda ishlashini qarang-a! O‘zlari kichkina-kichkina qizlar, oyoqlari tepkiga zo‘rg‘a yetyapti-yu, katta ayollardek kerilib o‘tirishadi-ya, obbo jin sochlar-ey! Zavqim oshganidan yoniga borib bittasining biqinidan sekin chimdigan edim, qo‘limga bir tushirdi.

– Bular ham sotiladimi? – deb so‘radim Hayitvoydan.

– Sotiladi, hammasi sotiladi, – tushuntirishda davom etdi u.

– Menga qara, anavi qalpoqchalardan esdalik uchun menga ikkita berolmaysanmi?

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 122 10/10/24 17:24

– Nima qilasan bularni?

– Ikkita singlim bor, o‘shalarga sovg‘a qilib olib bormoqchiman.

– Yo‘q, berolmayman.

– Berasan, keyin qo‘limga pul tushganda kelib, to‘lab ketaman.

– Berolmayman! – dedi Hayitvoy biroz jahli chiqib.

– Berasan, – shunday dedim-da, stol ustida turgan chiroyli qalpoqchalardan ikkitasini olib qo‘ltiqqa urdim. Hayitvoy qo‘limga yopishgan edi, bilmasdan qattiqroq itarib yuborgan ekanman, bechora ikki-uch dumalab ketsa bo‘ladimi. Chok tikayotgan qizlar bizni kuzatib turishgan ekan, ularni sut-qatiq bilan ta’minlab, nonushtalariga qaymoq yetkazib berayotgan ukajonlarini ranjitganim uchun mendan o‘ch olmoqchi bo‘lib 28 qiz baravariga o‘rnidan turdi: birining qo‘lida pichoq, birining qo‘lida qaychi, birisi qizib turgan dazmolini ushlab olgan, hammalari menga tashlanib qolishdi. Qarasam, ishning keti xunuk bo‘ladigan. Qochmagan nomard, dedim-da, o‘zimni eshikka urdim...

Yo‘q, Mullahoshimboy kechikkan ekanlar, eshikni allaqachon berkitishga ulgurishibdi, qalpoqchamni boshimga kiyishga arang ulgurib qoldim. Ko‘zdan g‘oyib bo‘lishim bilan:

– Stolning tagini qaranglar, stolning tagida! – deb qichqirdi biri.

– Shkafning ichiga kirgandek bo‘ldi! – dedi boshqasi shovqin solib.

O‘zimni sekingina derazadan hovliga otdim. Qizlar: “O‘g‘ri qochdi, ushlanglar!” – deb orqamdan yugurib chiqishdi. Butun internatda trevoga ko‘tarildi. Direktor Xursanali Sharafiddinovich radiouzel orqali e’lon qilib, meni qidirishga 550 o‘quvchining hammasini safarbar qildi.

– Aft-angori esingda qolganmi? – so‘radi u Hayitvoydan.

– Bo‘lmasam-chi...

– Unda mana bu radiouzel orqali hammasini gapirib ber, tezroq bo‘l!

– Diqqat, diqqat! – hovliqib, xirillab gapira boshladi Hayitvoy. – O‘g‘rini qidirayotganlar diqqatiga. Hozirgina qochgan bola 12–13 yoshlarda edi. O‘zi qorachadan kelgan, oriq, bo‘yi mendan ko‘ra novcharoq. Ko‘zlari yirik-yirik, doim chaqnab turadi. Burni angishvonaga o‘xshaydi. Gapirganda tutilib-tutilib qoladi. Egnida oq shoyidan sorochkasi bor, shimi yo‘l-yo‘l sherstdan, dazmollanmagan. Aft-boshiga bir haftadan buyon suv tegmagan bo‘lsa kerak, hamma yog‘i kir...

Hayitvoy radiodan e’lon berayotgan mahalda men direktorning xonasida xuddi o‘sha direktorning o‘zi bilan yonma-yon o‘tirib, choyxo‘rlik qilmoqda edim. Divanga yonboshlab olib o‘ylanib ketdim.

“Nimalar qilib qo‘ydim o‘zi? Ularning mehnatiga yordamlashish o‘rniga hammasini ishdan qo‘ydim-ku! Mana, Xursanali Sharafiddinovich bilan yonma-yon o‘tiribmiz, o‘zi yomon odamga o‘xshamaydi, ancha mehribon, gapga tushunadigan ko‘rinadi... Ehtimol, yaxshilikchasiga iltimos qilganimda meni biron uchastkaga agronom qilib olgan bo‘larmidi? Ishlarim yurishib ketganda, kim biladi, rasmim gazetalarda bosilib ham chiqarmidi? Ana shunda mehribon direktorimiz Otajon Azizov ham, algebra muallimimiz Qobilov ham kishi o‘qimasdan turib agronom bo‘la olishi, o‘rtoqlariga hisobsiz foydalar keltirishi mumkinligini o‘z ko‘zlari bilan ko‘rardilar... Ha, baxtim kulib boqay deb turgan edi. Lekin, afsuski, ishni o‘zim buzib qo‘ydim...”

Sekin o‘rnimdan turdim-da, Xursanali Sharafiddinovichning sovib qolgan choyidan och qoringa xo‘rillatib bir ho‘pladim-u radiouzel o‘rnatilgan xonaga kirdim. Hayitvoy o‘sha yerda hamon kekirdagini cho‘zib gapirar edi.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 123 10/10/24 17:24

– Ma, qalpog‘ingni ol, bunaqasi bizning maktabda ham to‘lib yotibdi! – dedim-da, oyog‘ining tagiga tap etib tashladim. Arzimagan bir narsa uchun yuzim shuvut bo‘lib qoldi, endi bu yerda qolishim mumkin emas edi. Bolalarning oshxonasiga kirib, qozonning boshiga o‘tirib oldim-da, lazzatli taomlardan to‘yib-to‘yib yedim. Kompot qaynatishgan ekan, undan ham ikki stakanni pok-pokiza urib oldim. Keyin, o‘zingiz ham sezib turgan bo‘lsangiz kerak, yana yo‘lga ravona bo‘ldim...



Keling, suhbatlashamiz

1. Maktab-internat o‘quvchilari hayoti sizga qaysi jihatlari bilan yoqdi? Fikringizni matndan misollar keltirib asoslang.
2. Parchadan Hoshimjonning bilimi sayozligi ko‘rinib qolgan lavhalarni aniqlang. Bu borada unga qanday tavsiyalar bergan bo‘lardingiz?
3. Hayitvoy obrazida qanday bolani ko‘rdingiz? Atrofingizda unga o‘xshagan bolalar bormi? Masalan, kimlar?
4. Hoshimjonning yangi topgan do‘stlari orasida o‘zini tutishiga, gap-so‘zlariga munosabat bildiring. Bu o‘rinda uning fe’l-atvoridagi qaysi xususiyatlar bo‘rtib ko‘rinadi?
5. *“Divanga yonboshlab olib o‘ylanib ketdim. Nimalar qilib qo‘ydim o‘zi? Ularning mehnatiga yordamlashish o‘rniga hammasini ishdan qo‘ydim-ku!..”* Hoshimjonning gaplarida qanday ohang seziladi? Buning sababi nimada deb o‘ylaysiz? Fikringizni izohlang.



Uyga vazifa

Turli lug‘atlardan foydalangan holda quyidagi so‘zlarning ma’nolarini aniqlang. Qaysi manbalardan foydalanganingizni ham qayd qilib qo‘ying.


So‘zlar	Ma’nosi	So‘zlar	Ma’nosi
Brezent	* * *	*Batist*	* * *
Rastrata	* * *	*Sherst*	* * *
Vigovor	* * *	*Radiouzel*	* * *

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 124 10/10/24 17:24

Loyiha ishi

Komiks chizamiz!
Sinfdoshlaringiz bilan kelishgan holda 5 guruhga bo‘lining. O‘quv yili davomida o‘rganilgan (hajmi kichikroq bo‘lgan) asarlardan birini tanlab oling. Guruhdoshlar bilan maslahatlashgan holda asar mazmunini ifoda etadigan bir qancha komikslar loyihasini ishlab chiqing.

Namuna:



44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 125 10/10/24 17:24

MUNDARIJA

Alisher Navoiy 3
“Sher va durroj”, “Hotami Toy”, “Qanoatli va tamagir” hikoyatlari
(“Hayrat ul-abror” dostonidan)

Nodar Dumbadze 13
“Hellados” hikoyasi

Zahiriddin Muhammad Bobur 30
Ruboiylar

Erkin Vohidov 36
“Tandir haqida ertak”, “Matmusaning tandiri”,
“Tandir kiygan Matmusa” hajviy she’rlari

Redyard Kipling 46
“Maugli” asaridan parcha

Hamid Olimjon 75
“O‘zbekiston” she’ri

Janni Rodari 80
“Hurishni bilmaydigan kuchukcha” ertagi.
Adabiy ertak haqida. “Burchaklari yo‘q shahar” ertagi.
O‘zimiz ertak to‘qiymiz!

Masallar 91
Ezop, Ivan Krilov, Muxtor Xudoyqulov masallaridan namunalar

Xudoyberdi To‘xtaboyev 102
“Sehrli qalpoqcha” (“Sariq devni minib” romanidan parcha)

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 126 10/10/24 17:24

O‘quv nashri

Qozoqboy Yo‘ldoshev, Saodat Qambarova,
Dilfuza To‘xliyeva, Nazokat Yusufjonova,
Orifjon Olimjonov

Adabiyot
5-sinf
II qism

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik

“Novda Edutainment”
Toshkent – 2024

Muharrir:	*Xurshidbek Ibrohimov*
Badiiy muharrir:	*Mixail Zaimbetov*
Musahhih:	*Orifjon Madvaliyev*
Rassomlar:	*Sevilina Mamedova, Ra’no Ismailova*
Kompyuterda sahifalovchi:	*Rustamir Mirakov*

Nashriyot litsenziyasi AI № 080756, 12.05.2023-yilda berilgan.
02.10.2024-yilda original-maketdan bosishga ruxsat etildi.
Bichimi 60x84 1/8. “Arial” garniturasi. Kegli 12 n/shponli.
Ofset bosma usulida bosildi. Mashinada yengil bo‘rlangan MFC 80 gr/m^2 qog‘oz.
Shartli b.t. 14,88. Hisob-nashriyot t. 12,67. Adadi 635 186. Buyurtma raqami 24-306.

“Novda Edutainment” MCHJ.
Toshkent sh. Mirobod tumani, Taras Shevchenko ko‘chasi, 21-uy.

“O‘zbekiston” NMIUda chop etildi.
Toshkent sh. A.Navoiy ko‘chasi, 30-uy.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 127 10/10/24 17:24

Darslik holati haqida ma’lumot

№	O‘quvchining F. I. O.	O‘quv yili	Darslikning olingan vaqtdagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning qaytarib berilgan vaqtdagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						
6						

Darslikni olish va o‘quv yili oxirida uni qaytarishda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi mezonlarga muvofiq to‘ldiriladi

Yangi	Darslikning holati a’lo darajada.
Yaxshi	Muqovasi butun, kitobning asosiy qismidan uzilmagan. Barcha sahifalar mavjud, butun, yirtilmagan, yelimi ko‘chmagan.
Qoniqarli	Muqovasi ezilgan, shikastlangan, kitobning asosiy qismidan qisman ajralgan va foydalanuvchi tomonidan tiklangan. Qayta tiklash ishlari qoniqarli. Yirtilgan sahifalar yopishtirilgan, ba’zi sahifalari yirtilgan.
Qoniqarsiz	Muqovasiga chizilgan, kitobning asosiy qismidan to‘liq yoki qisman yirtilib, uzilgan, qoniqarli tiklangan. Sahifalari yirtilgan, ba’zi sahifalari yo‘q, bo‘yalgan, ifloslangan, tiklash mumkin emas.

44 READING LITERACY SCHOOLBOOK G5 P2 UZB 205x290 128PG.indd 128 10/10/24 17:24